

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI

T.N.QORI NIYOZIY NOMIDAGI O'ZBEKISTON PEDAGOGIKA
FANLARI ILMIY TADQIQOT INSTITUTI

SH.Q.MARDONOV, S.K.ANNAMURATOVA,
V.I.ANDRIYANOVA, A.P.SULAYMONOV,
O.JABBOROVA, SH.AXMEDOVA

O'QUVCHILARNING DIZAYN IJODKORLIGINI SHAKLLANTIRISH

MAJBURIY
BEPUL NUSXA

Toshkent – 2012

УДК: 372.862:7.012

КБК: 74.202.5

О'-98 Sh.Q.Mardonov, S.K.Annamuratova, V.I.Andriyanova,
A.P.Suiaymonov, O.Jabborova, Sh.Axmedova.

O'quvchilarning dizayn ijodkorligini shakllantirish. –
Toshkent: «Sano-standart», 2012. – 128 bet.

ISBN 978-9943-396-97-5

УДК: 372.862:7.012

КБК: 74.202.5

Mazkur monografiyada umumiy o'rta ta'lif maktablarida mehnat ta'limi darslari hamda darsdan tashqari jarayonlarda o'quvchilarning dizayn ijodkorligini shakllantirishning nazariy asoslari, muammoning o'ziga xosliklari, xususiyatlari, ijtimoiy ahamiyati, dizaynerlik tafakkurini shakllantirish va rivojlantirish muammosining amaldagi holati, uning psixologik jihatlari hamda didaktik asoslari yoritilgan.

Monografiya umumiy o'rta ta'lif maktablari o'qituvchilari, oliy ta'lif muassasalarini bakalavr, magistr bosqichi talabalari, ota-onalar hamda mazkur sohaga qiziquvchi keng omma uchun mo'ljallangan.

XT-ID-1-001 «O'quvchilar dizayn ijodkorligini rivojlantirishning innovatsion texnologiyalarini ta'tbiq etish» innovatsion tadqiqot loyihasi doirasida tayyorlangan.

Mas'ul muharrir:

p.f.d., prof. R.H.Djurayev

Taqrizchilar:


p.f.d., prof. R.G'.Safarova

p.f.d., prof. S.S.Bulatov

T.N.Qori Niyoziy nomidagi O'zbekiston Pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot instituti ilmiy kengashining 2012 yil 26 sentyabrdagi № 09 qarori bilan nashr etildi.

10/41237
20/
ISBN 978-9943-396-97-5

© «Sano-standart», 2012 y.



KIRISH

Olam taraqqiyoti insonlar kashf etgan yangiliklar bilan to'ldirib borilaveradi. Bu ob'yektiv haqiqat.

Insoniyat tarixidagi taraqqiyot bosqichlarining mazmuni, mohiyati, nomlanishi qanday bo'l shidan qat'iy nazar inson omili, unga ta'lif berish, uni tarbiyalash jamiyat rivojining ijtimoiy buyurtmasi bo'lib qolavergan. Chunki, «Barkamol shaxs – jamiyat taraqqiyotining asosi» sanaladi.

Pedagogik, psixologik tadqiqotlardan ma'lumki, bolaning dunyoqarashi, asosan, maktabgacha bo'lgan yoshida shakllanadi. Bolaning o'z «Men»ini anglash jarayoni, asosan, o'yin jarayonida sodir bo'ladi. Bolaning dunyoqarashi, ma'naviy sifatlarining shakllanishi, atrof olamni anglab yetishida estetik tasavvurlar muhim o'rinni tutadi. Ular bolani go'zallik dunyosiga olib kiradi, fikrlash, tasavvur olamini boyitadi.

Umumiy o'rta ta'lif maktablarida o'quvchining qiziqishlari, tabiiy moyilliklari, ruhiy, aqliy hamda jismoniy imkoniyatlari qarab ish tutilsa, ularga mustaqil faoliyat uchun yetarli shart-sharoit yaratib berilsa, o'quvchida o'z xatti-harakatlari uchun javobgarlik hissi paydo bo'ladi. Uning o'z mustaqil fikri, qarashi shakllanib boradi. Mamlakatimizda mustaqil, ijodiy fikrlovchi shaxslardan iborat barkamol avlod tarbiyasiga alohida e'tibor qaratilmoqda va u ustuvor vazifalar sirasiga kiritilganligi beziz emas, albatta. Bu borada oila, umumiy o'rta ta'lif maktablari, shuningdek, maktabdan tashqari ta'lif muassasalarining imkoniyatlari keng. Jumladan, amaliy san'at vositasida o'quvchilarni dizaynerlik faoliyatiga o'rgatish, ularda dizaynerlik tafakkur elementlarini shakllantirish hamda ularning bu boradagi tushuncha va tasavvurini yanada o'stirish, takomillashtirish imkoniyatlari mavjud.

Ma'lumki, sanoat sohasida maxsus ijodiy faoliyat sifatida dizayn XIX-XX asrlarda paydo bo'ldi. Sanoat va ommabop ishlab chiqarish inqilobi natijasida paydo bo'lgan dizayn, foyda va go'zallik orasidagi nomuvofiqlikni yo'qotishga qaratilgan hamda sanoat va texnika orasidagi chegarani bartaraf qildi. Dizayn loyihalash faoliyati bo'lib, u yangi turdag'i madaniyat hisoblanadi. Bu madaniyat turida ilmiy texnikaviy va ijtimoiy madaniyatlar o'zaro uyg'unlashadi.

Mustaqillik yillarda O'zbekistonda tarixiy islohotlar amalga oshirildi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi qonuni, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» qabul qilinib, mamlakatimiz ijtimoiy hayotida ta'lim ustivor soha sifatida e'tirof etildi. Shunga monand tarzda uzuksiz ta'lim tizimining barcha jahbalarida sezilarli o'zgarishlar yuz berdi.

Dizayn, dizaynerlik faoliyatini zamonaqda madaniyatning eng tez rivojlanayotgan sohalaridan biriga aylanib bormoqda. Dizaynerlik faoliyatida ilmiy, badiiy va texnik ijodkorlikning sintetik tarzda namoyon bo'lishini ko'ramiz, lekin dizayn ulardan mazmun va mohiyatan farqlanadi. San'at bilan dizayn o'rtaida umumiyliliklar bor, lekin ular estetik faoliyatning turlari hisoblanadi. San'at avalo ma'naviy ishlab chiqarishning turi bo'lib, u estetik ongning bilish sohasiga kiradi. U san'atning tub mohiyatini ifodalaydi.

Shu nuqtai nazardan olib qaralganda o'quvchining dizaynga qiziqishini, ya'ni dizaynerlik tafakkurini oilada, maktabgacha ta'limga muassasalarida shakllantirib, umumi o'rta ta'limga maktablarida rivojlantirib, kasb-hunar hamda oly ta'limda yanada takomillashtirib borish maqsadga muvofiqdir.

Ma'lumki, maktabgacha ta'limga muassasalarida bolalarni maktab ta'limga tayyorlashda haqli ravishda estetik mazmundagi mashg'ulotlarga katta e'tibor bilan qaraladi. Jamiyatimizda «Farzandlarimiz oilada ta'limga tarbiya ko'radilarimi, bog'chalarga boradilarimi, oxir-oqibatda maktabga tayyor bo'lib kelishlari.... asosiy vazifalaridan biridir».

Ta'kidlab o'tish joizki, maktabgacha yoshdagagi bolalarni bolalar bog'chalariga jalb etish salmog'i kamligi bois ularni oilada maktab faoliyatiga tayyorlash, ularda atrof-olam haqidagi yaxlit tasavvurlarni tarkib toptirish, xususan, ularda estetik tasavvur, dizaynerlik tafakkurlarini shakllantirish va rivojlantirish o'z yechimini kutayotgan dolzarb ijtimoiy-pedagogik muammodir.

Estetik tarbiya inson ongli faoliyatidagi eng qadimiy mashg'ulotlardan biri. Zero, insonlar hamisha ish qurollarining qulay, turmush tarzining go'zal bo'lishiga e'tibor qaratib kelganlar. Qadimgi yunon faylasuflarining asarlari, shu jumladan, O'zbekiston hududidan arxeologik qazishmalar chog'ida topil-

gan tarixiy manbalar bunga misol bo'la oladi. Shuning uchun ham estetik tarbiya har doim tarbiyaviy tadbirlarning eng asosiyalaridan bo'lganligini e'tirof etish mumkin. Zero, u (estetik tarbiya, shu jumladan dizayn tarbiyasi) o'quvchi-yoshlarning ilmiy dunyoqarashni shakllanishida alohida e'tiborga molik.

O'quvchilarda dizaynerlik dunyoqarashni shakllantirishda turli omillarning ta'siri ham turlicha. Bu omillar ichida mакtab tarbiyasi eng tasirchani hisoblanadi. Zero, o'quvchida tasavvur, tushunchalarning shakllanish jarayoni aynan umumiyligini o'rta ta'larning boshlang'ich sinflarda boshlanadi va bu davr o'quvchi dunyoqarashi mazmunining hajm jihatidan ortirishning eng salmoqli bosqichdir. Shuning uchun ham boshlang'ich sinf davri o'quvchilarda tushuncha va tasavvurlarni shakllantirishda asosiy davr hisoblanadi. Bu tushuncha va tasavvurlar tizimida dizaynerlik tasavvurlar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shu o'rinda haqli savol tug'ilishi mumkin, dizaynerlik tasavvuri nima? Uning mazmuni, shakli, shakllantirish metodikasi qanday bo'lgani ma'qlid? Barkamol shaxs tarbiyasida dizaynerlik tasavvur va tushunchalarning o'rni qanday belgilanadi? Umuman, madaniyat, san'at, go'zal voqeа va hodisalarни foydalilik va go'zallik nuqtai nazardan idrok eta olish va baho bera bilish hissi barkamol shaxsni shakllantirish tushunchasida qanday o'rinni egallaydi? Bu savollarga birgina misol bilan javob berish qiyin.

Dunyodagi mashhur, komil insonlar (Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Amir Temur, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Kamoliddin Behzod) aynan madaniyat va san'at sohasida ham o'ziga xos salohiyatga ega bo'lganlar. Tarixiy o'tmishimizda bunga ibratli misollar ko'p. Shuning uchun ham o'quvchilarda boshlang'ich sinflardan boshlab estetik, shu jumladan, dizaynerlik tasavvur va tushunchalarni (go'zallik, shakli, rang, tuslar uyg'unligi, kompozitsiya va b.) shakllantirish, ibratli namunalardan oqilona foydalanish bo'lajak ma'naviyatli, madaniyatli, intellektual salohiyatli barkamol insonlarni tarbiyalashning dastlabki, ayni paytda eng muhim bosqichidir.

O'quvchilarning dizaynerlik tasavvurlarini boshlang'ich sinflarda shakllantirishning eng optimal shakli badiiy loyihalash haqidagi, shuningdek, go'zallik, mehnatsevarlik, tinchliksevarlik,

madaniyatlilik, marifatparvarlik to'g'risidagi ma'lumotlar, badiiy estetik qonuniyatlar haqidagi bilimlar vositasida elementar tasavvurlarni tarkib toptirib borishdan iborat. Bu borada musiqa, raqs, teatr, kino, tasviriy va amaliy san'at, milliy badiiy hunarmandchilik namunalarining tarbiyaviy imkoniyatlari beqiyosdir. Ularning tarbiyaviy ahamiyatidan boshlang'ich sinflarda samarali foydalanish uchun esa ilmiy asoslangan, tajribada sinab ko'rilgan ta'limiylar, tarbiyaviy tadbirlarning mazmuni, metodikasi, pedagogik shart-sharoitlarini ishlab chiqish talab ettiladi.

Bu bugungi kun pedagogika fanining ustuvor vazifasi, dolzarb mavzusi sifatida e'tirof etilishi lozim. Zero, o'quvchilarda dizaynerlik tasavvurlarni shakllantirish nafaqat oilada, balki umumiyl o'rta ta'lim maktablarida, maktabgacha ta'lim muassasalarida olib borilishi lozim va shart, shuningdek, ularning otagonalari, aka-ukalari, opa-singillari, tarbiyachi va muallim-o'qituvchilarning hamda keng jamoatchilikning mas'uliyatli vazifasi hisoblanadi. Ular uchun ilmiy asoslangan o'quv-uslubiy tavsiyalar ishlab chiqish esa olimlarimiz zimmasidagi mas'uliyatli vazifadir.

Dizayn va uning kelib chiqishi haqida ko'plab maqolalar, risolalar yozilgan bo'lsa-da, uning dastlabki nuqtalariga tarixiy haqqoniylig nuqtai nazaridan uzil-kesil oydinlik kiritilgan emas. Bugungi kunda uning terminologiyasi ham tartibga solinganicha yo'q.

Qur'oni Karim, Hadisi shariflar, shuningdek, «Avesto» kabi muqaddas manbalarda komil inson tarbiyasi haqida ibratl hikmatlar mavjud. Ayniqsa, Sharq mutafakkirlari bu masalalarga alohida e'tibor bilan qaraganlar. Abu Nasr Forobiyning «Fozil odamlar shahri», Abu Rayhon Beruniyning «Mineralogiya», «Geodeziya», «Hindiston», «O'tgan avlodlar obidalari», Abu Ali ibn Sinoning «Axloq», «Axloq fani», «Oila xo'jaligi», Burhoniddin Marg'insoniyning «Hidoya», Alisher Navoiyning «Hayrat-ul abror» va «Mahbub-ul qulub», Zahiriddin Muhammad Boburning «Boburnoma», Kaykovusning «Qobusnama», Rizouddin ibn Fahriddinning asarlarini ushbu e'tibor va e'tirof yo'lidagi sa'y-harakatlari natijasi sifatida qarash mumkin.

Shuningdek, ta'lif-tarbiyada estetika, nafosatning o'rniiga oid qimmatli fikrlar ulug' mutafakkirlar imom al-Buxoriy, at-Termiziylarning asarlarida ham zikr etilgan.

O'zbekistonda ijtimoiy fanlar, pedagogika va psixologiyada o'quvchi-yoshlarni estetik, nafosat ruhida tarbiyalash masalalari ham mamlakatimiz olimlarining diqqat markazida bo'lgan. Xususan, o'quvchilarini badiiy qadriyatlar bilan tanishtirish jarayonida estetik tarbiyalash A.Mo'minov, M.Aliyev, S.Shermuhamedovlarning ishlarida; B.B.Qodirovning izlanishlarida tasviriyan san'at vositasida tarbiyaning turli tomonlari ko'ssatilgan; S.K.Annamuratova, S.X.Fayzulinalarning monografiyalarida san'at asarlarini o'rganishning metodologik jihatlari; N.Kevish, R.Muhamedova, A.Sulaymonov, N.Svichinskayalarning tadqiqotlarida badiiy idrok muammolari yoritilgan; munosabatlar madaniyati va sog'lom avlod tarbiyasi (O.Musurmonova, M.Xolmatova), tarbiyaning psixologik muammolari (G'.Shoumarov, E.G'oziyev, V.Karimova, N.Sog'inov) va pedagogik masalalari (A.Munavvarov, M.Inomova, D.Xoliqov) olimlarimiz tomonidan keng qamrovli tadqiq etilgan. Shuningdek, olimlarimizdan Sh.S.Sharipov, N.A.Muslimov, S.S.Bulatov, V.E.Alekseyev, R.N.Andrianov, A.I.Vorobej, S.A.Limanskiy, Z.Sh.Sotivoldiyev, I.Ismoilov, O'.Q.Tolipov, D.Nozilov kabilar kasb-hunar ta'limi tizimida o'quvchilar ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirish, texnik ijodkorlik va dizayn, O'rta Osiyo dizayni tarixi, talabalarning ixtirochilik ijodkorligi, texnik loyihalash va modelleshtirish kabi muammolar yechimi bilan shug'ullanganlar.

Komil inson tarbiyasining tarbiyaviy qismi – yosh avlodni estetik tarbiyalash masalasining metodologik muammolari respublikamiz faylasuf olimlari (T.Mahmudov, E.Umarov, S.Shermuhammedov, A.Tsoy), shuningdek, xorij tadqiqotchilari (B.T.Lixachev, L.V.Kvyatkovskiy, V.A.Razumniy, A.A.Adamyan, D.Blagoyev, A.I.Buyev, G.D.Gachev, M.S.Kagan, N.I.Kilhenko, V.P.Kopnin, N.L.Leyzerov va boshqalar) tomonidan badiiy ijodkorlikning falsafiy tomonlari o'rganilgan.

Muammoning psixologik tomonlarini R.Amxeym, V.S.Meylax, A.Peyper va boshqalar tadqiq qilishgan bo'lsa, mavzuning pedagogik jihatlarini V.V.Alekseyeva, N.A.Dmitriyeva, N.M.Zubarev,

A.A.Melik-Pashayev, N.N.Fomina, V.S.Xerbakova va boshqalar ko'rsatib berishgan.

Badiiy-estetik faoliyatning ta'lif va tarbiyaga ta'siri to'g'risida N.P.Azarov, D.N.Djola, B.T.Lixachev, Z.I.Kalmokov, G.P.Kalishnin va boshqalarning tadqiqotlari mavjud.

O'zbekistonda maktabgacha ta'lif yoshidagi bolalarni estetik tarbiyalashning u yoki bu muammolari F.B.Valixo'jayeva, Z.Rahimova, N.Egamberdiyevalarning tadqiqotlarda, umuman, estetik tarbiya masalalari S.K.Annamuratova, S.Bulatov, Sh.Munavvarov, H.Nurmatov, A.Sulaymonov, S.Fayzulina, R.Hasanovlarning ishlarida o'z aksini topgan. Maktabgacha ta'lif yoshidagi bolalarni badiiy-estetik tarbiyalash muammolari ning tadqiqi nuqtai nazaridan D.X.Alimova, L.V.Vetlugina, E.N.Dimitreva, V.A.Ezikeyeva, T.G.Kazakova, X.N.Qosimova, T.S.Kamarova, N.P.Sakulina, V.D.Sich, G.T.Uranova, N.B.Xalezova, E.A.Flerina, S.A.G'ozibayevlarning tadiqiqotlari shu yo'nalishdagi tadqiqotlar uchun ilmiy manba vazifasini o'tashi mumkin.

Manbalarning tahlili shuni ko'rsatadiki, umumiy o'rta ta'lif maktablarida o'quvchilarning dizayn ijodkorligi, estetik tasavvurlarni shakllantirish masalasi respublikamizda maxsus tadqiq etilmagan. Shu bois bugungi ijtimoiy muhitdan kelib chiqqan holda, pedagogik tadqiqot o'tkazish dolzarb muammodir. Aynan shu omillar tadqiqotimiz mavzusini tanlashga asos bo'ldi.

UMUMIY O'RTA TA'LIM MAK TABI O'QUVCHILARIDA DIZAYN IJODKORLIGI XUSUSIYATLARINI RIVOJLAN- TIRISHNING PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK ASOSLARI

1.1. Intellekt va intellektual faoliylik.

Ijodiy intellektual faoliyat

Bugungi kunda intellekt, intellektual ko'nikma va malaka, yuqori bilimdonlik, mustaqil fikrlash, mustaqil ravishda asosli qaror qabul qilish qobiliyati kabi mezonlar ta'lif jarayonida asosiy o'rirlarni egallayotganligi ko'rinish turibdi.

XXI asr – intellektual avlod, bilim, ta'lif asri, axborot va intellektual ko'nikmalar – bu xalqaro tijoratda yangi hamda qimmatli tovar va bugungi kunda ushbu tovar jahonda katta tezlikda tarqalmoqda. Kirib kelgan sifatlari ta'lif, axborot, birinchi navbatda, intellektual ta'lif asrida – bu muvaffaqiyatni kafolatlovchi, qadr-qimmatini yo'qotmaydigan investitsiya hisoblanadi.

Intellekt (lotinchadan *intellectus*) – 1) aql, idrok; 2) fahm; 3) inson fikrlash qobiliyati; 4) keng ma'noda – bu individning barcha idrok etish funksiyalari to'plami: his qilish va idrok etishdan tortib fikrlash va o'ylashi, tasavvurigacha; *tor ma'noda* – bu tafakkur. Intellekt psixologiyada borliqni bilishning asosiy shakli sifatida tan olinadi.

Intellekt tushunchasi ko'pincha insonning psixologik faoliyati xususiyatini ko'rsatish uchun qo'llaniladi. Biroq abstrakt belgilari va munosabatlar bilan ishlash qobiliyati – bu intellekting faqat bir tomoni ekanligini yoddan chiqarmaslik kerak; boshqa tomoni, xususan, aniq fikrlash tomoni ham shu kabi muhim.

Intellektning yana bir – ilgari egallagan tajribasidan foydalanganib yangi vaziyatlarga moslashish imkoniyati sifatida talqini ham mavjud. Ushbu variantda intellekt amalda ta'lif olish qobiliyati bilan tenglashtiriladi. Intellekt tushunchasi turlicha talqin qilinishi bilan u o'zida mahsuldar negizini ifoda etishi birlashtiruvchi asos hisoblanadi. Intellekt atrof-muhit predmetlari va hodisalarining qonuniy bog'liqligi hamda munosabatlarini aks

ettirishga imkonyat yaratishi, shu bilan borliqni ijodiy o'zgartirish imkoniyatini taqdim etishi, inson intellektining eng muhim xususiyati hisoblanadi.

Intellekt idrokning asosiy ko'rinishi bo'lib xizmat qiladi. Amalda aynan intellekt insonni hayvonlar dunyosidan ajratib turadi, bu holat insonga alohida ahamiyatlilik beradi, tezkor o'zgarib boruvchi borliq sharoitlariga faqatgina moslashish emas, balki atrof olamni jadal o'zgartirish va qayta yaratish, muhitni o'ziga moslashtirish imkonini beradi.

Agar tafakkur – bu masalani hal qilish jarayoni bo'lsa (keng ma'nosida), unda *intellektual faollik* – bu fikrlashni davom ettirishni tashqaridan rag'batlantirishdir.

Intellektual faollik – idrok etish va motivatsion omillarning shaxsiy xususiyatlari birligidir.

Shaxs harakatlarining ikki darajasi ajratib ko'rsatiladi:

1) shaxsnинг ijtimoiy individ darajasidagi harakatlari, bunda faoliyat qo'yilgan maqsad va ko'zlangan natijaga asoslanadi; 2) ijodiy shaxsnинг harakatlari, bunda natija har doim qo'yilgan maqsadlardan keng bo'ladi.

Ushbu holat harakat keltirib chiqaruvchi xususiyatga ega bo'ladi (yangi maqsadni keltirib chiqaradi) va masalaga javob shaklini borgan sari yo'qotib boradi (D.B.Bogoyavlenskaya).

Intellektual faollikning uchta sifat darajasi mavjud.

Birinchi darajasi – *rag'batlantirish-produktiv yoki passiv*, bunda inson juda halol va g'ayratli ish bajargan holda ham berilgan yoki dastlab topilgan harakat usuli doirasida qoladi.

Ikkinci darajasi – *evristik*. Ushbu darajasida inson tashqi omillar bilan va faoliyat natijalaridan qoniqmaslik, sub'yektiv baholashi bilan *rag'batlantirilmagan* u yoki bu darajadagi intellektual faollikni namoyon etadi.

Inson ishonarli hal qilish usuliga ega bo'lib, o'z faoliyati tartibi va tuzilishini tahlil qilishda davom etadi, alohida masalalarni o'zaro taqqoslaysidi, bu uni yangi, o'ziga xos yechim usullarini topishiga olib keladi.

Intellektual faollikning uchinchi, oliy darajasi – *kreativ daraja*. Bu yerda sub'yekt tomonidan aniqlangan empirik qonuniyat uning uchun evristik bo'lmay, balki mustaqil muammo bo'lib qoladi, uni o'rganish uchun inson tashqaridan olinadigan

faoliyatni to'xtatishga, endi ichidan quvvatlangan boshqasini boshlashga tayyor bo'ladi.

Intellektual faollikning rag'batlantirish-produktiv darajasida masalalar sub'yekt tomonidan turli-tuman individual xususiyatlari bilan, ammo xususiy va boshqa masalalar bilan o'zaro bog'liqliksiz tahlil qilinadi. *Bu ayrim, yagonani bilish turidir.*

Evristik darajaga o'tishda qator masalalarni taqqoslash sodir bo'ladi, buning natijasida masalalar tizimi uchun umumiy bo'lgan yangi qonuniyatlar ochiladi. *Bu o'ziga xoslikni bilish darajasi.*

Nihoyat, dastlabki genetik asosini tahlil qilish yo'li bilan topilgan qonuniyatlar tahlil qilinib isbotlanadigan kreativ darajada *tafakkurning umumiy xususiyatga ega bo'ladi*.

Intellektual faollikning rag'batlantirish – produktiv darajasi inson oldida turli masala bo'yicha samarali, mahsuldar qaror qabul qilishga ham mos keladi. Ushbu holatda qo'yilgan muammolar doirasida ushbu ijodkorlik turidagi insonlar dadil farazlar va o'ziga xos, o'zgacha yo'llarni topishga qodir bo'ladilar.

Evristik darajasi empirik yo'l bilan qonunlarni ochishga mos keladi. Bu empirik kashfiyotlar darajasi. Intellektual faollikning kreativ darajasi nazariy kashfiyotlarga mos keladi.

Mazkur darajadagi olim o'zi topgan yoki boshqa omillar hamda qonuniyatlar asosida ularni tushuntiruvchi nazariyani quradi, yangi muammoni qo'yadi (D.B.Bogoyavlenskaya).

Inson faoliyatining ko'plab sohalaridagi jadal o'zgarishlar yangi texnologiyalarning hayotga tezkor sur'atlarda tatbiq etilishi bilan bog'liq, texnologiyalar esa doimiy ravishda takomillashib bormoqda. Shuning uchun tayanch, fundamental bilimlarni olish va o'zlashtirish, chuqur akademik ta'lim olish bilan bir qatorda inson faoliyatning umumiy usullarini egallagan bo'lishi, vaziyatni tahlil qilishga, muammoni tushunishga, masalani hal qilishga, xulosalar chiqarish va aniq bir fikrga kelishga qobiliyatli bo'lishi kerak.

– Oldimizda turgan eng muhim masalalardan biri, – adolatli ta'kidlaydi prezident Islom Karimov, – bu odamlar o'z fikrini aytishga, erkin fikrlashga o'rganishi zarur. Ya'ni, fikrga qarshi fikr bo'lishi kerak. Meni ko'proq bezovta qilayotgan narsa ham shu. Bu borada qaysi mактабда, qaysi oliy o'quv yurtida

qanday tajribalar bor? Yoshlarimizni erkin fikrlashga, bahslashishga o'rgatyapmizmi?

Shu aytganlarimizdan o'quvchilarda zamonaviy demokratik davlat, zamonaviy mehnat bozori ehtiyojlari va raqobat-chilik qonuniyatları talablariga javob bera oladigan mustaqil, ijodiy, tanqidiy fikrlashni shakllantirish va rivojlantirish zarurati kelib chiqadi.

Ijodiy intellektual faoliyat o'ziga xos mazmunga ega, uning asosiy xususiyatlari quyidagilar hisoblanadi:

- bilim va malakalarni yangi vaziyatga mustaqil ko'chirish;
- tanish vaziyatda yangi muammoni ko'ra bilish;
- ob'yeckning yangi funktsiyasini ko'ra bilish;
- faoliyatning ma'lum usullaridan yangi vaziyatlarda mustaqil foydalanish;
- ob'yeckt tuzilishini ko'ra bilish, ushbu ob'yeckt elementlarining muhim va ahamiyatsiz nisbatlarini ko'ra bilish;
- muqobil fikrlash, ya'nii ushbu muammoning mumkin bo'lgan yechimlarini, hal qilishning turli usullarini, qarama-qarshi dalil-isbotlarining mavjudligini ko'ra bilish, boshqacha aytganda, ob'yeckni, muammoni har tomonlama keng ko'ra bilish;
- boshqa ma'lum bo'lgan yoki ma'lum bo'lмаган yechim usullari to'plami hisoblanuvchilardan farqli ravishda yechimning umuman yangi usulini qurish (M.A.Danilov, M.N.Skatkin).

Tadqiqotlar intellektual faoliik darajasining shaxsning ma'naviy sifatlari, shuningdek iqtidori, ijodkorligi bilan bevosita bog'liqligini ko'rsatadi.

Bugungi kunda maktabda shunchaki faqat ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish emas, balki ijodiy shaxsni shakllantirish haqida gapirish kerak, lekin har qanday holatda ham ijodiy shaxs intellektual faoliyating yuqori darajasiga ega bo'lishi kerak.

Aqliy (intellektual) rivojlanishning asosiy ko'rsatkichlari – bu boy bilim zahiralari, bilimlari tizimiliigi darjasasi, aqliy faoliyatning ratsional uslublarini (usullari) egallanganligi.

Ta'lim olishni bilimlar to'plash va bir vaqtida ularni amaliyotda qo'llash usullarini egallash kabi tushunish, ta'lim olish va ijodiy rivojlanish jarayonlari o'tasidagi qarama-qarshilikni yo'qotadi. Shuning uchun o'qituvchi uchun faqatgina alohida fikrlash jarayonlarini emas, balki, umuman, ijodiy

shaxsni tarbiyalash, intellektual tarbiya vazifasi juda muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

Demak, o'qituvchi faqat o'quvchilarning ijodiy fikrlash jarayonlarini tashqi boshqarish to'g'risida emas, balki o'quvchida bilim olishga nisbatan yuzaga kelgan munosabatni hisobga olib, o'quv jarayonini o'zi boshqarishini ta'minlash haqida ham qayg'urishi kerak.

Masalalarni ijodiy hal qilish imkonini beruvchi intellektual faoliyning yuqori darajasiga ma'lum motivatsiya, ma'naviy ko'rsatmalariga ega bo'lgan o'quvchilargina erishishlari mumkinligini yoddan chiqarmaslik kerak. O'zini namoyon qilishga yo'nalganlik, o'zini yuqori baholash, raqobat, muvaffaqiyatsizlikdan qochish intellektual imkoniyati yuqori bo'lgan hollarda ham ijodkorlik yo'lida to'siq bo'lib qolishi mumkin.

Shuning uchun o'qituvchining alohida fikrlash jarayonlarini shakllantirishgina emas, balki, umuman, ijodiy shaxsni tarbiyalash, uni intellektual rivojlantirish vazifasi muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

1.2. Ijodiy qobiliyatlar tushunchasi va ularni shakllantirish mexanizmlari

Qobiliyatlar muammosi, birinchi navbatda, umumiyl fan hamda barcha – fiziologiyadan tortib, to kognitiv sohalarining e'tiborini talab qiluvchi kompleks psixologik muammo sifatida talqin qilinadi. Qobiliyatga rivojlanish natijasi sifatida qaraladi, u hayot davomida, ta'lim va tarbiya jarayonida shakllanadi va rivojlanadi.

Ijodiy faoliyatning eng muhim determinantlariga ijodiy tafakkur va ijodiy qibiliyatlar kiradi. «**Mahsuldarlik**» va «**selektivlik**» (avtonomlik) tafakkurning muhim tavsiflari deb tan olinadi. Mahsuldarlik deganda, fikrlash jarayonida ob'yeqtning yangi aloqalarda ishtirok etishi va yangi sifatlarda ishtirok etish qobiliyati tushuniladi, ular yangi tushunchaviy tavsiflarda qayd etiladi.

Selektivlik deganda esa, ijodiy faoliyatni tashkil qilish tamoyillaridan biri sifatida ongli ravishda izlash sohasini cheklash nazarda tutiladi.

Tafakkur har doim ijodiy hodisa hisoblanadi, chunki masalalar hal qilish uchun sub'yektda tayyor vositalar bo'limgan vaziyatlarda yuzaga keladi. Mazkur vaziyatda ijodiy ishni ijodiy faoliyatning asosi sifatida qarash mumkin, u to'rtta asosiy bosqichlarni o'taydi: *tayyorgarlik* (ongli ravishda ish bajarish), *yetilishi* (muammo ustida beixtiyor ishlash, yo'naltiruvchi g'oyani yaratish), *ruhlanish* (beixtiyor ishlash natijasida ongga qandaydir kashfiyot g'oyasi keladi, avvaliga faraz ko'rinishida) va *g'oyalar rivojlanishi, uni yakuniy shakllantirish va tekshirish*.

Ijodiy qobiliyatlar (kreativlik), ba'zi tadqiqotchilarning fikrligiga asosan (D.J.Gilford, K.Taylor, Ya.L.Ponomarev), umumiy qobiliyatlarga bog'liq bo'limgan va ijodiy tafakkur va faoliyatni faollashtirish uchun zarur bo'lgan mustaqil omil hisoblanadi.

Ijodiy qibiliyatlar – bu birinchi navbatda:

1) egiluvchan tafakkur, bu hodisalar bir turidan boshqasiga tez va oson o'tish qobiliyatini anglatadi;

2) tekshirishdan avval ko'plab muqobilardan birini baholash, tanlash qobiliyatidir;

3) «birlashtirish» qobiliyati – ya'ni yangi qabul qilinayotgan ma'lumotni ilgari ma'lum bo'lgani bilan birlashtirish, ularni mavjud bilimlar tizimiga kiritish qobiliyati;

4) osongina g'oyalarni ishlab chiqish qobiliyati. Shu bilan birga har bir g'oya to'g'ri bo'lishi shart emas;

5) boshlangan ishni oxiriga yetkazish qobiliyati. Bu yerda boshlangan ishni yakunlashga shunchaki qat'ilylik, tirishqoqlik, tartiblilik va irodaviy kayfiyat emas, balki aynan har tomonlama puxta o'ylab ishlab chiqish, me'yoriga yetkazish, dastlabki rejalarни takomillashtirishga qobiliyat nazarda tutiladi.

Aynan intilish noan'anaviy, nostonart yechimni topish, boshqalarning yordamisiz, mustaqil ravishda ilgari ma'lum bo'limgan natijaga erishishga intilish – shaxsning butun tuzilishi bilan bog'liq bo'lgan eng muhim qobiliyati.

Albatta, bиргина mana shu sifat hisobiga ijodiy shaxs bo'lib qolish mumkin emas: u bir qator boshqa, juda muhim sifatlar bilan bирgalikda shakllanishi lozim. Ular orasida quyidagiлarni ko'rsatish mumkin: maqsadga erishishda qat'ilylik, topqirlik, o'ziga nisbatan talabchanlik va tanqidiylik, chaqqon fikrlash, dadillik va jasorat, g'ayratlilik va boshqalar.

Faqatgina maxsus va umumi yobiliyatlarning yaxlit birligi natijasida ijodiy shaxs paydo bo'ladi.

Fikr boshqa fikrdan emas, balki ongimiz motivatsion sohasidan paydo bo'ladi. Aynan motiv – tafakkurning qo'zg'atuvchisi, uning boshqaruvchisi. Motivatsiya tafakkur jarayonining barcha tuzilishi birliklariga jiddiy ta'sir ko'rsatadi: masalani tushunish, baholash va qabul qilishda; ishning yakuniy va oraliq maqsadlarini aniqlashda; fikrning yo'nalganligi shakllanishida; avvalgi tajribalaridan foydalanishda; ob'yeqtning yashirin xususiyatlaridan foydalanishda namoyon bo'ladi. Ushbu xulosalar ta'lim amaliyoti uchun katta qimmatga ega: har bir pedagogik ish to'g'ri asoslanishi, har bir ta'lim metodi va usuli esa o'zida katta motivatsion kuchga ega bo'lishi kerak.

Bilimlar darajalari (reproduktiv, konstruktiv, ijodiy), faoliyat va bilim olish usullari (sintez1 – analiz – solishtirish – asosiysini ajratish – sintez2 – umumlashtirish)¹, o'rtaida ta'lim bosqichlari bo'yicha murakkablashib boruvchi yanada chuqur bog'liqlikning mavjudligi ham aniqlagan.

Birinchi, reproduktiv darajada o'quvchining fikrlash jarayoni o'qituvchi, darslik, boshqa shunga o'xshash obrazlar asosida amalga oshiriladi, biroq, albatta reproduktiv faoliyatda har doim samarali faoliyat elementlari mavjud bo'ladi.

Ikkinci, konstruktiv darajada o'quvchilar axborotni hayoliy ishlab chiqish usullarini mashq qiladilar, o'zgaruvchan vaziyatda bilimlarni qo'llash, mustaqil tahlil qilish, solishtirish, asosiysini ajratish, umumlashtirishni talab qiluvchi topshiriqlarni bajaradilar.

Tajriba ma'lumotlarining ko'rsatishicha, rivojanmagan yoki shakllanmagan ijodiy fikrlash faoliyatining ba'zi usullari oddiy topshiriqlarni bajarishda ham, butun pedagogik ishlarning muvaffaqiyatlari bo'lishiga to'sqinlik qiladi. Shuning uchun tayanch bilimlar va uslublar ma'lum tajribasiga ega bo'lmay, bilimning **oliy darjasasi – ijodiy darajasini o'zlashtirishga kirishish mum-**

¹ N.A.Menchinskaya ob'ektni boshlang'ich, sintezlangan anglash bosqichini birlamchi sintez (s1) deb ataydi, ya'ni qo'pol, global. Materialni anglab yetish esa ikkilamchi, ancha chuqur, parchalangan siztez (s2) va umumlashtirish bilan yakunlanadi.

kin emas. Ushbu bosqichda fikrlash faoliyatining butun ketma-ketligi muammoni hal qilish, tadqiqotni bajarish uchun yo'naltiriladi.

O'qituvchilar ijodiy tafakkur faoliyati va bilimlar o'zlashtirilishi darajalarining qonuniyatları bir-biriga bog'liqligini tushunishi kerak: rejalashtirilgan bilimlar darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, tafakkur faoliyatining dastlabki, taktik usullari ketma-ketligi shunchalik puxta ishlab chiqilgan bo'lishi kerak.

Reproduktiv darajasida asosiysini ajratishni bilish mumkin va umumlashtirishni bilmaslik, tahsil qilishni yaxshi bilish va sintez qilishda qynalish mumkin va shu kabilar.

Ijodiy faoliyat butun operatsion apparatning mukammalligini talab qiladi.

Kundalik muloqot darajasida ikkinchi tilni bilish – bu ushbu tilda nutq faoliyatining barcha sohalarini (tinglash, gapirish, o'qish, yozish), og'zaki va yozma nutqning turli darajalarida muloqot faoliyatini to'laqonli shakllantirish uchun zarur bo'lgan dastlabki pog'onadir.

Boshqa tilni erkin bilish esa ushbu tilni bir umrga o'ziga xizmat qilishini, o'rganilayotgan til tizimi bilimlarini har qanday hayotiy vaziyatda, har qanday fikrni ifoda etishda til materialidan (leksik-grammatik) foydalanish usullari bilan o'zini qurollantirishni anglatadi.

Bilim, ko'nikma va malakalarning bunday jamg'armasi yosh mutaxassislarning keyingi mustaqil bilim olishlari uchun, til, nutq, umummadaniy va kasbiy rivojlanishlari hamda takomillashishlari uchun poydevor bo'lib qolishi mumkin.

Boshqacha qilib aytganda, kommunikativ salohiyatga ega bo'lish – retseptiv va produktiv shaklda boshqa tilda muloqot qilish vositalari va usullarini ijodiy egallashning asosiy mezonidir.

Shaxsga yo'naltirilgan ta'lif-tarbiyada hisobga olinadigan jahon umumiyligi o'rta ta'lif tizimining asosiy yo'nalishlaridan biri – o'quvchilarga topshiriqlar, vazifalar (va ortiqcha yuklamalar) berish emas, balki ularni rivojlantirish hisoblanadi.

O'quv rejalar, dasturlari va darsliklarni murakkablashtirish va boyitish, ta'lifni jadallashtirish ham (ta'lif sur'ati) emas, balki ta'lif mazmuni nuqtai nazaridan an'anaviy tizimlarni qayta

qurish (tayanch, asosiy, fundamental bilimlarni tanlab olish va birlashtirilgan yondashuvlarni hisobga olib ulardan foydalanish usullari), o'quv materialini (axborot-kompyuterli texnologiyalar) hamda metodlarni (birinchi navbatda, interfaol, rivojlantiruvchi) o'zlashtirishni tashkil qilish o'quvchilarning umuman kognitiv sohasini va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam berishi isbotlangan.

Shuning uchun ham rivojlantiruvchi, shaxsga yo'naltirilgan ta'lif mazmuni va hajmini cheksiz kengaytirish emas, balki turli xildagi nostandard, muammoli-tadqiqotchilik, loyihalashtirish masalalarini hal qilishga bolaning intellekti va ma'naviy imkoniyatlarini tayyorlash vositasi sifatida qarashni taklif qiladi.

Mana shu sababli boshlang'ich ta'lif – uzlusiz ta'lif tizimida o'z qimmatiga ega va mustaqil bo'g'in – bolaning ruhiy xususiyatlarini maksimal darajada hisobga olingan holdagina bola shaxsini rivojlantirishga, uning qobiliyatlarini ochishga yo'naltirilgan bo'lishi mumkin. Maktab ta'limi boshlang'ich bosqichini jadal o'tish yo'nalishi esa, albatta, bolaning shaxsiy rivojlanishida o'rnnini to'ldirish qiyin bo'ladigan yo'qotishlarga olib kelishi mumkin. Bola rivojlanishining har bir bosqichi nodir, takrorlanmaydigan qimmatli, ushbu rivojlanish alohida bosqichlaridan jadal, shoshilinch «sakrab» o'tishni ma'qul hisoblamaydi, chunki har bir yosh alohida, o'zining ruhiy sifatlarini rivojlantirish uchun qulay hisoblanadi.

Shunday qilib, bolalar psixologiyasini bilish zamonaviy pedagog bilimlari tizimida muhim bo'lib qoladi.

1.3. Inson shaxsiy hamda dizaynerlik tafakkurining bir-birini to'ldirishi

«Dizaynerlik tafakkuri» tafakkurning alohida turi sifatida: bu ongi, baholash mulohazalari va faoliyat usullarining alohida ko'rsatmasidan tashkil topgan kompleks; ma'naviy hayotning tabiat bilan va «buyumlar dunyosi» bilan bog'liqligi; texnik estetika (dizayn) sohasida uyg'unlashgan predmetli muhitni ishlab chiqish; uyg'unlashgan predmetli muhitni tashkil qilishga yo'nalgan emotSIONAL-BAHOLASH VA ijodiy-yaratuvchilik faoliyatiga qodir insonni tarbiyalash muammlari, ya'n o'quvchilarning

dizaynerlik ta'limlari muammolari; ta'lim muassasasining yo'nalishiga qarab dizaynerlik ta'limini olib borish (misol uchun, kiyim, sartaroshlik, maishiy asboblar, jihozlar dizayni bo'yicha dasturlar).

Dizayn yakuniy mahsulotiga talablar.

Faraz: *ijtimoiy tashkil qilingan mashg'ulotlar jarayonida 5-9-sinflar o'quvchilarida ma'lum shartlarga amal qilinganida uyg'unlikka ega jihoz, buyum asosiy mezonlarini tushunadigan, uslub hissiga ega, buyumlar dunyosiga estetik munosabat xos bo'lgan fikrlashning alohida uslubini (ya'ni dizaynerlik tafakkurini) shakllantirish mumkin:*

* ijodiy tafakkurni rivojlantirishning pedagogik-estetik shartlari to'plami amalga oshirilsa (o'quv-dizaynerlik, ijtimoiy-emotsional, evristik-didaktik, individual-ijodiy);

* ta'lim jarayonida emotsiyal, intellektual-baholash va loyihalash-amaliy faoliyatları yaxlitligi;

* maxsus bilimlar asosida dizaynerlik muammoli vaziyatlari qo'yilsa va ta'lim jarayonida buyumlarning dizaynerlik sifatlari orqali ularning ma'naviy-mazmunli asoslari ochib berilsa;

* o'quvchilar tabiatni, atrof-muhitni faol mustaqil kuzatishga jalb qilinsa.

Dunyoda barcha ta'lim tizimlarining paydo bo'lishi har doim jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy buyurtmalari bilan belgilangan va ularga asoslangan.

Ushbu tizimlarning asosiy vazifalari – jamiyatga insonni yetkazib berishdan iborat. Lekin qanday insonni? Har bir davr, zamonning o'z ko'satkichlari va mezonlari mavjud bo'lgan.

XXI asr, bozor munosabatlari va keskin raqobatbardoshlik asrida rivojlanish, birinchi navbatda, iqtisodiy rivojlanishning muhim omillari sifatida faqat moddiy boyliklar hamda xizmatlarni to'plash va qayta ishlab chiqarishni emas, balki bilim, tajriba, malakalarni to'plash, salomatlik, jismoniy va ijodiy rivojlanish darajasini ilgari surdi.

Bugungi kunda shaxsning kasbiy ahamiyatli sifatlari faqatgina aniq bilimlari hajmi va to'laligiga emas, balki ularni mustaqil ravishda to'ldirib borish, kasbiy masalalarni qo'yish va hal qilish qobiliyatlariga asoslanadi.

Bozor munosabatlariiga asoslangan jamiyat uchun quyidagilarga qodir yosh avlod kerak:

- o'zgaruvchan hayotiy sharoitlarda tezda moslashadigan, mustaqil ravishda bilimlarni egallaydigan va amaliyotda, shu jumladan, o'zgargan sharoitlarda qo'llay oladigan;

- mustaqil tanqidiy fikrlovchi, yangi g'oyalarni mustaqil ishlab chiqqa oladigan, ijodiy tafakkurga qodir;

- axborotlar bilan to'g'ri ishslashni biladigan (izlash, tahlil qilish, tizimlashtirish, umumlashtirish, xulosalar chiqarish va amaliy takliflar bera olish);

- kirishuvchan bo'lish, turli ijtimoiy guruqlar bilan muloqotga kirisha olish, turli sohalarda, turli vaziyatlarda, har qanday nizoli vaziyatlarning oldini olib yoki mohirona chiqib keta bilish hamda hamkorlikda ishslashni bilishi;

- o'z ma'naviyati, intellekti, madaniy darajasini rivojlan-tirish ustida mustaqil ishlay bilishi.

Ta'limumning yangi tizimini qurish uchun paradigmuning o'zini axborot paradigmidan mazmunlisiga almashtirish zarrur. Faqat shundagina ta'lim, pedagogik jarayonning barcha ishtirokchilari shaxsini rivojlantirishni o'zining markaziy vazifasi qilib qo'yishi mumkin. Bunday ta'lim jarayonining asosiy maqsadi – har bir o'quvchining ijodiy qobiliyatları va imkoniyatlarining o'sishini ta'minlash hisoblanadi. Buning uchun pedagogning o'zi ijodiy tajriba, mualliflik maktabi tajribasiga ega bo'lishi kerak.

Yanada mukammal ta'lim texnologiyalarini izlash va ishlab chiqishda, birinchi navbatda, bolalarning individual qobiliyatlarini hisobga olish, o'quvchilarning hamda o'qituvchilarning intellektual va ijodiy qibiliyatlarini rivojlantirish mazmunida ularning imkoniyatlariga e'tibor berish kerak.

Ta'lim-tarbiyada yanada mukammal yondashuvlarni izlashda ta'lim jarayonida birorta ham ijodiy shaxs e'tibordan chetda qolib ketmasligi, har bir insонning ijodiy qibiliyatları to'liq darajada amalga oshirilishi zaruriyati jiddiy masala bo'lib qoladi.

Yuqorida aytganimizdek, XXI asr – intellektual barkamol avlod asridir. Bilim, ta'lim, axborot va intellektual ko'nikmalar – bu xalqaro tijoratda yangi va qimmatli tovardir va bugungi kunda ushbu tovar dunyoda katta tezlikda tarqalmoqda.

Kirib kelgan axborotlar asrida sifatli ta'lim, birinchi navbatda, intellektual ta'lim – bu qimmatini yo'qotmaydigan, muvaffaqiyatni kafolatlovchi investitsiya hisoblanadi.

Aytib o'tilganlar asosida *tafakkur*, *intellekt*, *intellektual faoliyot* tushunchalari mohiyatini ochib beramiz.

Mavzu bo'yicha adabiyotlarni o'rganish va tahlil qilishga asoslanib (L.S.Vigotskiy, S.L.Rubinshteyn, A.N.Leontev, E.I.Boyko, D.B.Bogoyavlenskaya, V.F.Palamarchuk, V.V.Davidov, D.B.Elkonin, P.P.Blonskiy, A.V.Petrovskiy, N.V.Dudareva va boshqalar), quyidagilarni qayd etish mumkin.

Tafakkur – bu bilmaslikdan yangi bilim kelib chiqadigan murakkab, kompleks psixologik jarayondir. *Tafakkur* – faol jarayon hisoblanib uning yakuniy natijalari fikrning yo'nalganligi va taassurotlar hamda xotira, ong, intuitsiya, hayolning o'zaro aloqlari xususiyati bilan belgilanadi.

Tafakkurda fikrlash faoliyatining ikki o'zaro bog'liq bo'lган томонларини ко'rsatish mumkin: reproduktiv va produktiv-ijodiy.

Yuqorida aytib o'tganimizdek, *intellekt*: 1) aql, idrok; 2) fahm; 3) inson fikrlash qobiliyati; 4) keng ma'noda – bu individning barcha idrok etish funksiyalari to'plami: his qilish va idrok etishdan tortib fikrlash va o'ylashi, tasavvurigacha; tor ma'noda – bu *tafakkur*. Psixologiyada *intellekt* borliqni anglashning asosiy shakli kabi tan olinadi.

Aytiganidek, tadqiqotchi-olimlar *intellekt* funksiyasini tushunishning uch turini ko'rsatadilar: 1) bilim olishga qodirlik, 2) simvollardan foydalanish, 3) atrof-muhit qonuniyatlarini faol egallashga qodirlik. Agar *tafakkur* bu masalani hal qilish jarayoni bo'lsa (so'zning keng ma'nosida), unda *intellektual faoliyot* – bu fikrlashni davom ettirishni tashqaridan rag'batlan-tirish emasdir. *Intellektual faoliyot* – idrok etish va motivatsion omillarning shaxsiy xususiyatlari birligidir.

Intellektual faoliyotning uchta sifat darajasi mavjudligini yuqorida aytgan edik:

- 1) *rag'batlan-tirish-produktiv yoki passiv;*
- 2) *evristik;*
- 3) *kreativ.*

Aqliy (intellektual) rivojlanishning asosiy ko'rsatkichlari – bu boy bilim zahiralari, bilimlari tizimliligi darajasi, aqliy faoliyat maqbul usullari egallanganligi. Ta'lim olishni bilimlar to'plash va

bir vaqtida ularni qo'llash usullarini egallash kabi tushunish ta'limgoshish va ijodiy rivojlanish jarayonlari o'rtasidagi qaramaqshilikni yo'qotadi.

Shuning uchun faqatgina alohida ijodiy fikr lash jarayonlarini emas, balki umuman ijodiy shaxsni tarbiyalash, intellektual tarbiya vazifasi o'qituvchi uchun juda muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

Endi *dizaynerlik tafakkuri* xususiyatlari va uning umuman inson tafakkuri bilan ichki bog'liqligiga e'tiborimizni qaratamiz. Zamonaviy insonning ma'naviy hayoti tabiat bilan va u o'zi uchun yaratgan «buyumlar dunyosi» bilan uzviy bog'liqligini ta'kidlab o'tamiz.

Predmetli muhitning ma'naviy-estetik ahamiyati zamonaviy sharoitlarda sezilarli oshmoqda va *badiiy-baholash ongi* va *umuman insonning dunyoqarashini shakllantirishga* katta ta'sir ko'rsatmoqda. Bu zamonaviy bolaning tabiatni, hayotining qo'p qismida birga bo'lgan *buyumlardan ko'ra ancha kechroq* estetik anglay boshlashi bilan tushuntiriladi.

Inson va atrof-muhit dialektik yaxlitlikda amal qiladi, bular bir butun yaxlidir, bu holat insonda vaziyatning rivojlanishi, doimiy o'zgarishlariga javob berishi va ko'plab muammolarni hal qilishi malakasini ishlab chiqish zaruriyatini keltirib chiqaradi.

Mana shu sababli zamonaviy mакtab o'quvchisi (talaba) uchun ijodiy va nostandart, tanqidiy va konstruktiv tafakkurni bilishi juda zarurdir. Bunday tafakkur uchun shart-sharoitlarni yaratish – XXI asrda ta'lim-tarbiyasining asosiy masalalaridan biridir.

Dalillarni qayd etish madaniyatidan konstruktiv yechimlar madaniyatiga o'tish sharoitlarida ta'limganing axborot-reproduktiv xususiyati yyetakchi o'ren egallashini tan olmaslik mumkin emas – bu barcha omillar **dizaynni** madaniyat va umumta'lim fani hodisasi sifatida ifoda etish uchun asos bo'la oladi.

Yuqorida aytib o'tilganlar umumiy o'rta va oliy ta'limgoshish tizimida badiiy-pedagogik tayyorgarlik sifatini oshirish umumiy muammosining muhim bir tashkil etuvchisi sifatida dizaynerlik tafakkurini rivojlantirish samarali vositalarini izlash masalasi dolzarbligini asoslab beradi.

Zamonaviy rivojlanish sharoitida o'quvchilarga inson faoliyati sohasiga taalluqli bo'lgan texnik estetika, ya'niz dizayn

sohasida uyg'unlashgan predmetli muhitni ishlab chiqish bo'yicha ma'lum tayyorgarlikni berish kerak.

Dizayn ta'limi muammosi bo'yicha manbalarni tahlil qilish (muammoning dolzarbligini asoslash – A.V.Boychuk, V.N.Vetrova, T.V.Kostenko; muammoni falsafiy anglab yetish – L.N.Bezmozdin, N.P.Valkova, M.S.Kagan va boshqalar; psixologik anglab yetish – L.S.Vigotskiy, G.A.Ermash, A.M.Matyushkin va boshqalar; dizaynni o'qitishda to'plangan tajribalarni umumlashtirish – A.I.Kovoshnikov, V.S.Shklyarov va boshqalar) dizaynni faol ijodkorlik shakli sifatida qaralishiga, dizayn asoslarini o'rganish natijasiga esa yangi ijtimoiy-muhit dunyoqarashi deb hisoblanishiga asos bo'ladi.

Shaxsning ijodiy rivojlanishi, o'tmishda yaqin o'xshashlari bo'limgan masalalarni mustaqil qo'yish va hal qilish uchun zarur bo'lgan yangi bilim, ko'nikma va malakalarni uzuksiz ravishda tinmay o'zlashtirish qobiliyatini shakllantirish asosiy masala hisoblanadi.

Dizaynerlik tafakkurini shakllantirish – bu uyg'unlashgan predmetli muhitni yaratishga yo'naltirilgan emotsional-baholash va ijodiy yaratuvchilik faoliyatiga qodir insonni tarbiyalash muammosi, ya'ni o'quvchilarning dizaynerlik ta'limi muammosidir.

Dizaynerlik tafakkuri ongning o'ziga xos ko'rsatmasini, baholash mulohazalari va ijodiy faoliyat usullarini o'z ichiga oluvchi kompleks sifatida qaraladi, inson ularga amal qilib o'zida buyumlar dunyosiga va uni o'rab turgan muhitga taalluqli estetik munosabatni shakllantirishi mumkin.

Ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar va mehnat bozori talab-ehtiyojlari kasbiy ta'limni takomillashtirish zarurligini talab etadi. Bugungi kunda dizaynerlik kasbi mehnat bozorida talabga ega va dizaynerlar iqtisodiyotning jadal rivojlanayotgan sohalarida faol mehnat qilmoqdalar.

Dizayn moddiy ishlab chiqarishning barcha sohalarini qamrab oladi va ilmiy-texnik va gumanitar madaniyatni birlash-tirgan, yangi turdagи zamonaviy moddiy madaniyat – *loyihalashtirish madaniyatining* asosiy badiiy loyihalashtirish metodi hisoblanadi.

Plastik san'at vakillariga xos bo'lgan *badiiy tafakkur* va muhandis hamda konstruktur mutaxassislariga xos bo'lgan ratsional tafakkurni o'z ichiga oluvchi *loyihalash* tafakkurining

mahsuldorligi ikki turda gavdalananadi: ideal turda – bu loyihalashtirish g'oyasi, maqsadi va moddiy ko'rinishdagi g'oyani materialda haqiqiy gavdalantirishdan iborat.

Loyihalash tafakkurining *reproduktiv tomoni* ilgari o'zlash-tirgan bilim, malaka, egallagan tajribasi, eruditsiyaga tayanadi.

Loyihalash tafakkurining *mahsuldor-ijodiy* tashkil etuvchilarning ishlashi uchun qiziquvchanlik va kuzatuvchanlik asosida rivojlanuvchi tahlil qilish va intuitsiya, ijodiy hayol birligi bo'lishi kerak.

Loyihalash tafakkurini shakllantirish uchun ta'lif jara-yonida o'quv loyihalari metodi samarali bo'ladi, ularni bajarish jarayonida kasbiy loyihalash tafakkuri shakllantiriladi, ijodiy izlanish algoritmi mustahkamlanadi.

Shunday qilib, **dizaynerlik tafakkuri** – bu tafakkurning o'ziga xos turi. Bu ongning alohida tuzilishi, baholash mulohazalari va ijodiy faoliyat usullaridan tashkil topuvchi majmuadir.

Umuman olganda, dizaynerlik tafakkurini tafakkur kabi ifoda etish mumkin:

- ijodiyligi, o'zgaruvchanligi, o'ziga xosligi, mustaqilligi, emotsiyonalligi, izchilligi bilan ifodalanadi;
- loyihalashtirish, bashorat qilishga, ko'zlangan natijani xayoliy tasavvur qilishga qodirlikni belgilaydi;
- fazoviy-obrazli.

Yuqorida aytiganlar insонning tafakkur va dizaynerlik tafakkuri bir-birini to'ldirishi, birgalikda har tomonlama barkamol rivojlangan shaxsni, barkamol avlodni shakllantirish uchun asos yaratishini ko'rsatib turibdi.

5-9-sinf o'quvchilarining dizaynerlik tafakkurlarini samarali rivojlantirishning asosiy psixologik-pedagogik shartlari sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

- o'quvchilarni maxsus tashkil qilingan o'quv dizayn-faoliyatiga jalb qilish;
- o'quvchilarda ta'lif olishga nisbatan barqaror motivatsiyaning mavjudligi;
- ijodiy xayol, obrazli xotira, tasavvurni kompleks rivojlantirish.

1.4. Mehnat – barchasining otasi (maktabgacha va boshlang'ich maktab ta'limdi mehnat operatsiyalarini bajarishda ijodiy va dizaynerlik tafakkur elementlarini shakllantirish to'g'risida)

O'zbek xalq maqolida «Mehnat - barchasining otasi» – deb aytildi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari muntazam salomatligi va yoshiba mos ijtimoiy foydali mehnatga jalb qilinadilar. Xususan, ular qo'l mehnatiga va hovli, maktab bog'i, polizlarda kuchlariga yarasha ishlarni bajarishga jalb qilinadilar, bu predmetni, predmetlar harakatlarini, belgilarni, predmetlar va hodisalarning bog'liqligi hamda munosabatlarini ifoda etuvchi ko'plab so'z, iboralarни tabiiy (tarjimasiz) o'zlashtirish uchun tabiiy sharoitlar yaratadi, «chunki so'z nutq faoliyatining birligi hisoblanib, til sohibi faoliyatining maqsadini mazmun bilan bog'laydi» [7].

Qo'g'irchoqlar, o'yinchoq idish-tovoqlar, jihozlar, qo'g'irchoq kiyimlari va ayniqsa boshlang'ich sinf o'quvchilarning o'zlari tayyorlaydigan plastilin, qog'oz, tabiiy materiallardan tayyorlanadigan turli buyumlar yasash kabilardan ko'rgazmali qo'llanmalar sifatida foydalanish ham mashg'ulotlar samaradorligini ancha oshiradi [8].

Bu yerda, I.M.Sechenov, B.G.Ananyev, A.V.Zaporojets, L.F.Fominalarning tadqiqotlaridan kelib chiquvchi qiziqarli qonuniyatlardan biri namoyon bo'ladi, jumladan: ishning boshlang'ich bosqichida inson organizmi zaxiralardan, xususan, sezish, taktil his qilish imkoniyatlaridan yanada faol foydalanishning maqsadga muvofiqligi.

Qo'lni tegizish va ushslash (birinchi navbatda, qo'l barmoqlari uchlari) *bosh miyaning nafaqat harakatlanish, balki nutq harakatlanish markazlari* ishini ham yaxshilaydi. Shuning uchun boshlang'ich sinflarda o'zbek, rus tili darslarida taktil his qilishga faol tayanish o'quvchilarning nutqlarini rivojlantirishga (boshqa omillar bilan bir qatorda) yordam berishi mumkin.

Harakatlanuvchi deb ataluvchi qo'llanmalar mana shunday ijobiy rol o'ynaydi (bolalarning turli tasavvurlari to'plami harakati hisobiga), ko'pchilik o'qituvchilar ularni tayyorlash bo'yicha usta hisoblanadilar.

Tabiiy materiallardan nimalarni yasash mumkinligi, shu bilan birga dizaynerlik tafakkurini rivojlantirish bo'yicha boshlang'ich sinf o'qituvchilarning ish tajribalariga asoslanib bir qator tavsiyalarni taklif etamiz.

Eslatib o'tamiz, *dizaynerlik* tafakkuri – bu tafakkurning o'ziga xos turi. Bu ongning o'ziga xos tuzilishi, baholash mulohazalari va ijodiy faoliyat usullaridan tashkil topuvchi majmuadir.

Insonning tafakkur va dizaynerlik tafakkuri bir-birini to'ldirishi, birgalikda har tomonlama barkamol rivojlangan shaxsni, barkamol avlodni shakllantirish uchun asos yaratadi.

Shunday qilib, tabiiy materialdan nimalarni yasash mumkin?

Bolalar yasagan o'yinchoqlar Samolyot (Vertolyot)

a) *yasash uchun asosiy materiallar*: daraxt barglari, probka, zarang (klyon) daraxti qanotli urug'lari, plastilin.

b) *ishni bajarish metodikasi*. Samolyot kabinasini yasash uchun silindrik shakldagi probkadan foydalaniladi. Unda bigiz bilan ikki teshik ochiladi (bittasi yuqori qism o'rtasida, ikkinchisi – probka uchining yon tomonida).

Shundan so'ng tekis kichik novda (2-2,5 sm) yoki bir tomoni o'tkirlangan gugurt cho'pi olinadi va sekin bosib probkaning yuqoridagi teshigiga o'rnatiladi. Shu novdaning boshqa uchiga esa plastilindan kichik sharcha mahkamlanadi. Unga 4 ta zarang daraxti qanotli urug'lari tiqiladi, parraklari bilan propeller hosil bo'ladi.

Shundan so'ng samolyotning dumi yasaladi: qalinroq novda olinadi, bir uchini o'tkirlab uni probka orqa uchidagi teshikka o'rnatiladi, keyin plastilin sharchasi yordamida unga zarang daraxti qanotli urug'lari mahkamlanadi. Samolyot hosil bo'llishi uchun, qanotli urug'larni plastilin bilan yon tomoniga mahkamlanadi. G'ildiraklari uchun cho'chqayong'oq (jyolud) kosachalaridan foydalanish mumkin.

v) *nutqni faollashtirish uchun til materiali*: so'zlar sharik, samolyot, o'yinchoq; savollar, bu nima? – *Bu sharik. Plastilin qani?* – *Mana plastilin. Sen nima qilayapsan?* – *Men samolyot yasayapman. Qanday samolyot?* – *Kichik samolyot.*

Kuchukcha

a) *yasash uchun asosiy materiallar*: ikkita yeryong'oq, daraxt novdalari, penoplast, kley, bo'yoqlar, plastilin, qora qalam, kistochka.

b) *ishni bajarish metodikasi*. Ushbu o'yinchoqni yasash uchun yeryong'oq olinadi, unda oldi va orqa oyoqlari, bo'yni va dumি uchun oltita teshik yasaladi. Ikkinci yong'oqning uchli qismi kesib olinadi va kesilgan tomonida gavda bilan birlashtirish uchun teshik teshiladi.

Ikki tomoni o'tkirlangan novda yordamida kuchukchaning «boshi» va «gavdasi» birlashtiriladi, buning uchun teshiklar plastilin bilan to'ldirilib unga novda o'rnatiladi.

Keyin to'rtta kichik novdalar tanlab olinadi, bir tomoni uchli qilinib u gavdaga mahkamlanadi – bular oyoqlari. Kuchukchaning quloqlarini yasash uchun yong'oq po'stlog'ining bir qismi olinib, do'ng tomoni qoladigan qilib uni ikki bo'lakka kesib olinadi. Ularni boshiga kley yoki plastilin yordamida mahkamlab yopishtiriladi.

Ko'zlar va burnini qora qalam yoki bo'yoq bilan chizish kerak. Ularni plastilindan yasash ham mumkin. Dumi uchun egilgan novda tanlab olinadi, bir uchi o'tkirlanib gavdadagi teshikka mahkamlanadi.

Tayyor o'yinchoqlarni taxta yoki penoplast taglikka mahkamlab qo'ysa yaxshi bo'ladi. Buning uchun oyoqlari holatiga moslab taglikda bigiz bilan chuqurchalar yasash, ularga kley quyib kuchukchaning oyoqlarini mahkam o'rnatish kerak.

v) *nutqni faollashtirish uchun til materiali*: so'zlar – *kuchukcha, boshi, kichik, qalam, plastilin, joyiga qo'yinglar...*; savollar – *Qanday kuchukcha? Kichik kuchukcha. Senda nima bor? – menda qalam bor, plastilin... Bu boshimi? – Ha, bu boshi.*

Bizning tajribalarimiz bolalarning ijodkorliklari ularda katta qiziqish uyg'otishini ko'rsatdi, ushbu jarayon ularning emot-sional-baholash mulohazalarini faollashtiradi; ularni shartli ravishda o'yinchoqni tashkil qiluvchi ranglar tuslari, qismlarining kattaliklari mosligi (proportsiyallik), o'yinchoqni yasashga

o'zgacha yondashuv, materialdan o'ziga xos foydalanish, «buyumning» estetikasi va ixchamligi kabi ko'rsatkichlari bo'yicha turlarga ajratish mumkin.

«Kimning o'yinchog'i yaxshi?» tanlovini o'tkazish jarayonida – maktab (rayon, shahar) ko'rgazmasi uchun eng yaxshi namunalar tanlab olinadi.

Zamonaviy maktabda dastlabki ta'lif jarayonini ifoda etuvchi eng asosiy yo'nalish, butun ta'lif jarayonining *bolalarga faqat bilim berish va ko'nikma hamda malakalarni hosil qilish emas, balki, birinchi navbatda, o'quvchilar shaxsini rivojlantirishga yo'nalgan bo'lishi kerak*.

Shu sababli kichik maktab yoshidagi bolalarning psixik xususiyatlarini hisobga olish katta ahamiyatga ega bo'lishi tushunarli: axir aynan boshlang'ich sinflarda yangi insonni shakllantirishga poydevor yasaladi, bilim olishi va ko'nikmalarni egallashi uchun asos yaratiladi.

Boshlang'ich sinf mehnat ta'limi darslarida barcha o'quvchilarining tegishli intellektual rivojlanishlarini ta'minlashi, fan asoslарining elementar bilimlarni olishga imkoniyat yaratishi, ularda dastlabki o'quv va umummehnat ko'nikma va malakalarini shakllantirishi, badiiy va texnik ijodkorlikka qiziqishni uyg'otishi kerak.

Boshlang'ich sinflarda dasturiy materiallarni muvaffaqiyatli o'zlashtirish uchun o'quvchi nisbatan yuqori darajali kuzatuvchanlikka, ixtiyoriy eslab qolish, uyushgan, tartibli diqqatga ega bo'lishi kerak; tahlil qilish, umumlashtirish, mulohaza qilishni bilishi kerak.

7-9 yoshli bolalar bilan maxsus o'tkazilgan tadqiqotlar ularda buning uchun imkoniyatlar mavjudligini ko'rsatmoqda.

Respublikamiz turli mintaqalari maktablarida o'quv jarayonini kuzatishlar aynan *rivojlantiruvchi ta'lif* (an'anaviy ta'limdan farqli ravishda) bola shaxsida yangi xususiyatlarning hosil bo'lishiga, xususan bolalarning *muammoli savollar* berish ehtiyojlarida ifodalanuvchi «qo'shimcha» rivojlanishga olib kelishini isbotlaydi.

Mana shu ehtiyojni bizning tajribali pedagoglarimiz albatta qo'llab-quvvatlash va chuqurlashtirishlari kerak, aks holda

S.Ya.Marshak achchiq va ibratli dono so'zları bilan ta'riflagan vaziyat yuzaga kelishi mumkin, deb hisoblaydilar:

Он взрослых изводил вопросом «почему?»,
Его прозвали «маленький философ»,
Но только он подрос, как начали ему
Преподносить **ответы без вопросов**.
И с этих пор он больше никого
Не досаждал вопросом «почему?».

Bugungi kunda biz bu kabi «kichik faylasufning» birutasini ham yo'qotmasligimiz kerak, chunki aynan matabda bunday «faylasuflardan» kelajakda mashhur olimlar, allomalar, shoirlar – xalqimiz va davlatimiz faxrli insonlari yetishib chiqishi mumkin.

Ular bugungi kundayoq Fond Forum, «Yangi avlod» bolalar tashkiloti doirasida – turli faoliyat sohalarida haqiqiy iste'dodlar sifatida – faqat O'zbekiston aholisini emas, balki ko'plab mamlikatlarda odamlar, olimlarning e'tiborlarini qozonmoqdalar.

Bolalarning intellektual iste'dodlariga kelsak, ularni rivojlantirish uchun – tadqiqot tajribalari natijallari bo'yicha – axborotni qayta ishlashda aqliy faoliyat xususiyatlari va usullari juda muhim ahamiyatga ega.

Bular idrok etish, xotira, divergent produktiv tafakkur (o'ziga xos g'oyalarni keltirib chiqarish va o'zini ifoda etish vositasi), baholash kabi jarayonlardir. Bunday o'quvchilar murakkab topshiriqlarni qynalmasdan bajaradilar, ular yangi talablar, yangi vaziyatlarga tez moslasha oladilar, o'zları muammoni hal qilishning yangi yo'llarini taklif qildilar.

Ular obrazli tafakkur sohasidagi topqirliklari, tasavvur, qobiliyatları, oson va uzlusiz birlashtirish, o'zgartirish, tizimlashtirish va rekonstruktsiyalash, o'quv mehnat topshiriqlarini motivatsiyalash va bajarish qobiliyati hamda diqqatni muhimiga jamlash qobiliyati, uzoq vaqt davomida ishlarni bajarishga qodirliklari bilan ajralib turadilar.

Shuning uchun ham bugungi kunda O'zbekiston ommaviy matab amaliyotida mos didaktik ta'lim vositalari to'plami mavjud bo'lgan sinf ishlarining uchta asosiy: frontal, guruqli, individual shakllarini hisobga olib o'quv topshiriqlarini sinfda

individuallashtirish muammosi muhim ahamiyatga ega. Bu barcha o'quvchilarning («kuchli», «o'rta», «bo'sh») qobiliyatlarini bir tekis rivojlantirish imkonini beradi.

O'quvchilarning tanlovlari bo'yicha uy vazifalari uchun ham darajalashtirilgan topshiriqlar belgilanadi. Bu bilan barcha o'quvchilarda mакtabda fan asoslarini o'rganishga qiziqishni rag'batlantirish uchun shart-sharoitlar yaratiladi.

Bunday sharoitlarda o'qituvchi uchun shunchaki ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish emas, balki umuman ijodiy shaxsn tarbiyalash juda muhim ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlab o'tamiz, biroq har qanday holatda ham ijodiy shaxs deganda intellektual faoliyning yuqori darajasi nazarda tutiladi.

Shu o'rinda o'quvchilarga A.X.Akilovaning dekorativ-amaliy san'at va lak bilan ishlangan miniatyura materiallari haqidagi dissertatsiya ishida (Toshkent, 2008) o'z aksini topgan o'zbek xalq ijodi asosida maktabgacha katta yoshdagi bolalarda estetik hissiyotlarni shakllantirishga oid o'ziga xos tajribasini hamda pedagogika fanlari nomzodi N.Sh.Nurmuxamedovaning (Toshkent, 2002) shu kabi muhim ahamiyatga ega tajribasini o'rganishni taklif etamiz.

1.5. O'quvchilarning dizaynerlik tafakkurini rivojlantirishda loyihibar metodidan foydalanish

Ma'lumki loyihibar metodi XX asrning 20-yillarida AQSHda yuzaga kelgan. Hozirda u yangi integratsiyalangan «Texnologiya» kursini o'zlashtirishning didaktik asosini tashkil qiladi. Metod deganda qo'yilgan o'quv-o'rganish vazifasiga erishishning ma'lum usuli, uslublar tizimi, idrok etish faoliyati ma'lum texnologiyasining umumlashtirilgan modeli tushuniladi.

Faoliyat natijasi sifatidagi «loyiha» va bilish metodi sifatidagi «loyiha» tushunchalarini aralashtirib yubormaslik kerak. Loyerihalar metodi individual hamda guruhli shaklda izlanish tadqiqotini talab qiluvchi muammo mavjudligini ko'zda tutadi. Undan bir darsda ham va darslar seriyasida ham foydalanish mumkin.

Loyerihalar metodi o'quvchilarning idrok etish ko'nikmalarini, o'z bilimlarini mustaqil yaratish malakasini, olgan axborotlarini tahlil

qilish, farazlarni ilgari surishni va tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga erishish usullarini bilishni rivojlantirishni nazarda tutadi.

O'qituvchi tomonidan loyihalar metodining qo'llanilishi o'quv jarayonini ijodiy, jamlangan, maqsadga yo'naltirilgan boy jarayonga, o'quvchini esa – mas'uliyatli va maqsadga intiluvchi o'quvchiga aylantiradi. O'qituvchining vazifasi – barcha o'quvchilarning har birining kuchi yetadigan, ammo albatta faol idrok etish faoliyatiga tayyorlashdan iborat.

Motivatsiyali o'quv-o'rghanish faoliyati (O'O'F) mazmunini ko'rsatib o'tamiz.

Faoliyat komponentlari	Pedagogning ko'rsatma va harakatlari
Maqsad	bo'lajak faoliyat maqsadini anglab etish va qabul qilish hamda o'quv vazifalarini qo'yish bo'yicha o'quvchilar bilan hamkorlikdagi harakatlari
Motiv	ichki motivlarga tayanish
Vositalar	o'quvchilar bilan birgalikda maqsadga mos vositalarni, shu jumladan, dizaynerlik tafakkurini rivojlantirishga yordam beruvchi vositalarni tanlash ²
Harakatlar	harakatlarning variativligi, o'quvchining imkoniyatlariga mos harakatlarni tanlash
Natija	o'quvchilarning shaxsiy ahamiyatli natijaga erishishlari; o'qituvchining diqqat markazida – o'quvchining shaxsidagi ichki ijobji o'zgarishlar
Baho	erishilgan natijaga o'zi baho berishi imkoniyatini ta'minlash

Loyihalar metodining ustunliklari quyidagi omillardan iborat:

I. **Boshqa fanlar bo'yicha bilimlarni tizimli mustahkamlash** (loyihalar qo'shimcha imkoniyatlar beradi). Kimyo va fizika darslarida olingan bilimlar o'quvchi tomonidan tayyorlanishi rejalashtirilgan buyumning mos shaklini, harakatlarini tanlab olish bo'yicha to'g'ri qaror qabul qilishda foydalaniishi mumkin.

² Ongning o'ziga xos tuzilishi, baholash mulohazalari va ijodiy faoliyat usullarini o'z ichiga olgan majmua nazarda tutilyapti, ularga amal qilib inson (o'quvchi) uni o'rab turgan muhitga mos munosabatni (ob'yeqt qismlarining shakli, elementlarni yaxlit bir butun bog'liqligi, rangli foni, uyg'unligi, mutanosibligi) shakllantirishi mumkin.

O'quvchilar tayyorlashning ergonomik omillarini o'ylab chiqayotganlarida biologiya bo'yicha bilimlardan foydalaniadi. Matematik va fazoviy bilim va malakalari o'z g'oyalarini rejalashtirish va baholashda, materiallar og'irligini aniqlash va o'Ichash hollarida, modellarni ishlab chiqishda, misol uchun, tekstil va boshqa loyihalarda yoki yog'och, yoki metall bilan ishlashda chizmalarini tayyorlashda rivojlanadi. O'quvchilar mahsulotning tashqi ko'rinishi, rangi va tuzilishi bo'yicha qaror qabul qilishlarida estetik qobiliyatları rivojlanadi.

Loyihalar metodi boshqa fanlar bo'yicha olgan bilim va malakalarini mustahkamlashga yordam beribgina qolmay, balki ushbu bilimlar qo'llanilishi mumkin bo'lgan tegishli vaziyatlarni ta'minlaydi. Ko'pincha o'quvchilarga loyiha ustida ishlash uchun zarur bo'lgan bilimlar boshqa fanlarga qiziqishni rivojlantirishni kuchaytiradi. Barcha fanlar texnologiyalarini o'rganishda turli fanlarni birlashtirishdan ancha foya topadilar.

II. Kognitiv malakalarini rivojlantirish.

Loyihalar orqali texnologiyalarni o'qitish kognitiv ko'nikma va malakalarini rivojlantiradi, bu o'quvchilar qaysi faoliyat turi bilan shug'ullanishlaridan qat'iy nazar ular uchun juda muhim.

O'quvchilar rejalashtirish, taddiqotchilik, tahlil qilish va olingan natijalarni tartibga keltirish ko'nikma va malakalarini egallaydilar. Ularda ijodiy faoliyat uchun juda muhim hisoblangan divergent (turlicha, variativ) fikrlash ko'nikmalari hamda qaror qabul qilish uchun zarur bo'lgan konvergent (tub ma'noda bu «o'xshatish», «yaqinlashtirish») tafakkuri rivojlanadi. Ushbu ko'nikmalar takomillashtirilib borilgan sari o'quvchilarda aniq bir masalani hal qilish uchun to'g'ri strategiyani tanlash malakasi rivojlanadi.

III. Ijtimoiy va jismoniy malakalarini rivojlantirish.

O'quvchilar asbob, uskuna va boshqa texnikalar bilan ishlaganlarida o'zlarining jismoniy malakalarini rivojlantiradilar. Ular ehtiyojlarni (ehtimol, iste'mol bozorini oddiy o'rganish orqali) o'rganganlarida, o'zlarining mahsulotlarini sinovdan o'tkazganlarida va ularni boshqalar baholashlarini taklif etganlarida ularda «ijtimoiy» malakalar rivojlanadi. Ularda tanqidga qulog solish va tanqidiy tafakkur malakasi rivojlanadi.

Bundan tashqari, guruhli ishlarda jamoada ishlash «ijtimoiy» malakalari rivojlanadi.

IV. O'z kuchiga ishonchini rivojlantirish.

O'quvchilar atrof-muhitga ijodiy yondashishga o'rganadilar, natijada ularda o'zlarining hayotlarini va boshqa insonlarning hayotlarini yaxshilashlari mumkinligiga ishonch shakllanadi. Ular o'zlarini oddiy tayyor bilimlarni oluvchi emas, balki faol hamda ijodiy shaxs sifatida tushunishga o'rganadilar.

Bularning barchasi məktəb ta'limalida qanday yordam beradi? Eng bo'sh hamda eng kuchli o'quvchilar ham o'qishga yetarlicha motivatsiyani uyg'otuvchi texnologiyani qiziqarli fan sifatida qabul qildilar. Barcha fanlar bo'yicha bilimlarga intilish oshadi, o'quvchilar mumkin bo'lgan kasblari o'zgarishiga yaxshi tayyorlanadilar, bu holat XXI asrda sodir bo'lishi mumkin bo'lgan holatdir.

Mehnat ta'limi darslarida loyihalar metodi quyidagi asosiy holatlarga asoslanadi:

- ma'lum bir iste'molchining haqiqiy ehtiyojiga javob beruvchi mahsulotni loyihalash va tayyorlash;
- ushbu ehtiyojni qondirish mumkinligi;
- maxsus tadqiqot o'tkazish;
- tayyorlov bosqichigacha g'oyalarni ishlab chiqish;
- mahsulotni tayyorlash (ushbu bosqichni dastlabki rejalashtirish);
- mahsulotni haqiqiy hayotda sinovdan o'tkazish va uning ko'rsatkichlari bo'yicha ma'lum ehtiyojni qondirishini baholash.

Mana shu barcha komponentlar loyiha ichida yaxlit jarayon sifatida birlashtirilgan.

5-7-sinf mehnat darsarida Yog'och o'yinchoq tayyorlash bo'yicha loyihalar metodini amalga oshirishga misol keltiramiz. Asosiy harakatlar ketma-ketligini ta'riflab beramiz. O'qituvchi o'quvchilardan sinfga 2-4 yoshli bolalar o'ynaydigan yog'och o'yinchoqlarni keltirishni so'raydi.

Birinchi darsda o'quvchilar guruhlarda ishlab o'yinchoqni tahlil qiladilar va shu bilan dizaynerlik tafakkurlarini rivojlantiradilar. Ular shakli va vazifalarini, material tanlanishini, tashqi ko'rinishi va bezatilishini, materiallar hamda ishlab chiqarish metodlariga taalluqli ishlab chiqarish metodlari va ekologik omillarni muhokama

qiladilar, o'yinchoqning yaxshi bo'lishiga sabab bo'luvchi mezonlarni aniqlashga harakat qiladilar.

Bu kabi faoliyat davomida materiallar hamda ishlab chiqarish texnologiyalari haqida ma'lum nazariy bilimlar o'zlashtiriladi.

* Shundan so'ng har bir o'quvchi natijalari to'g'risida qisqacha sharhlar bilan kichik chizmalarni bajaradilar. O'qituvchi ushbu loyiha bo'yicha vazifalarni ifoda etib beradi: «Mavjud materiallardan foydalanib 2-4 yoshli bola uchun kichik yog'och o'yinchoqni loyihalashtirish va tayyorlash. Loyiha ustida ishni yakunlagandan so'ng uni shu yoshdagagi bola bilan sinab ko'rish va unga baho berish».

* Uyga vazifa sifatida o'quvchilar ushbu yoshdagagi bolaning o'ynashini kuzatishlari yoki iste'molchi (ya'ni bola) nuqtai nazaridan yaxshi o'yinchoq nima ekanligini aniqlash uchun onasi bilan intervyu o'tkazishlari kerak.

* Ikkinci darsda sinda ushbu ishning natijalari muhokama qilinadi. Ushbu muhokamadan kelib chiqib o'qituvchi doskada loyiha bo'yicha mahsulot mezonlari (mahsulotga talablar) ro'yxatini tuzadi.

* Shundan keyin o'qituvchi o'quvchilarni o'lchamlar olish, belgilash, arralash, randalash va shu kabilarni bajarish bo'yicha asosiy ko'nikma va malakalariga o'rgatishi zarur. Bu ishni bevosita darsda yoki loyiha ustida ishlashni boshlashdan avval mashq qilish orqali bajarish mumkin.

* Uyga vazifa sifatida o'quvchilarga ular qanday o'yinchoqlarni yasay olishlari bo'yicha uchta va undan ortiq g'oyalar bo'yicha qisqacha ta'riflar bilan oddiy rasmlarni tayyorlashlari taklif etiladi. Shu bilan birga mahsulotlar dizayni, estetikasini yoddan chiqarmaslik kerak (mos o'lchamlari, proporsionalligi, detallari, rang tuslari, element shakllarining o'zaro mosliklari).

* Agar zarur bo'lsa mashqlar keyingi darsda davom ettiriladi.

* O'quvchilar o'z g'oyalarini guruhlarda muhokama qilib ularni baholaydilar. Har bir o'quvchi o'z g'oyasini guruhga taqdim etadi va guruh uning (o'yinchoq) 2-4 yoshli bolaga mos kelishi, uni yasash osonligi, xavfsizlik talablariga qanday amal

qilish, ekologikligi va ilgari muhokama qilingan boshqa mezonlari nuqtai nazaridan ushbu g'oyaga baho beradi. Shundan so'ng har bir o'quvchi o'z g'oyasini yanada puxta ishlab chiqadi.

* Ishning ushbu bosqichida o'qituvchi individual maslahatlar beradi. G'oyaning to'g'riliгини tekshirib ko'rish uchun bo'lajak mahsulotning maketi, material bilan dastlabki tajribani o'tkazish kerak bo'lishi mumkin.

* O'quvchilar o'yinchoqni yasashga kirishadilar. Har bir o'quvchi tayyorlash bosqichlari rejasini tuzadi va uni o'qituvchi bilan maslahatlashadi. Ko'nikma va malakalarni egallahsha sinfda umumiy ta'llim hamda individual maslahatlar o'tkazishni tavsiya etamiz. O'qituvchi o'quvchilarning o'zaro yordam ko'r-satishlarini rag'batlanadir, chunki bu bilimlarni mustahkam-lashga yordam beradi va o'qituvchi ishini yengillashtiradi.

* O'yinchoqni tayyorlash jarayonida o'qituvchi o'z yechimlari, rejadagi o'zgartirishlarni va ularning sabablarini yozib borishda davom etadi. O'qituvchi har bir o'quvchi ishini diqqat bilen kuzatib boradi va o'z vaqtida bajarishga ulgurishlari uchun zarur bo'lgan hollarda loyihalarini soddalashtirishlarini taklif etadi.

Ish yakunida o'quvchilar sinf oldida o'z loyihalari taqdimotini o'tkazadilar. O'qituvchi har bir o'quvchi bilan haqiqiy hayotiy sharoitlarda o'z mahsulotini qanday bajarishi va baholashini muhokama qiladi. O'quvchilar 2-4 yoshli bolalar uchun o'yinchoqlar yassayotganlari sababli ular o'zlarining mahsulotlarini shu yoshdagi bolaga berishlari va uni o'ynayotgan paytida kuzatishlari kerak.

Bolaning ota-onalaridan biri bilan intervyu o'tkazishi va barcha mezonlar bo'yicha bajarilgan o'yinchoq haqidagi uning fikrlarini yozib olishlari mumkin. O'z mahsulotini sinovdan o'tkazgandan so'ng o'quvchilar ishlariga ob'yektiv baho beradilar.

O'quvchilarning ta'llim loyihasi ustidagi ish jarayonidagi faoliyatlarini quyidagi tarzda taqdim etish mumkin:

Bos-qich-lar	Vazifalari	O'quvchilar faoliyat	Pedagog faoliyati
1. Boshlash	Mavzuni aniqlash, maqsadlarni, dastlabki holatni aniqlashtirish. Ishchi guruhni tanlash.	1. Axborotlarni aniqlashtiradilar 2. Topshiriqni muhokama qildilar	1. O'quvchilarda motiv hosil qiladi. 2. Loyiha maqsadlarini tushuntiradi. 3. Ularning harakatlarini kuzatadi.
2. Rejalashtirish	Muammoni tahlil qilish. Axborot manbalarini aniqlash. Vazifani qo'yish va natijani baholash yo'llarini tanlash. Jamoada rollarni taqsimlash	1. Vazifani shakllantiradilar. 2. Axborotni aniqlashtiradilar (manbalar). 3. O'z muvaffaqiyatlilik mezonlarini tanlaydilar va asoslab beradilar.	1. Materiallarni tahlil va sintez qilishda o'quvchilarga yordam beradi (zarur bo'lgan hollarda). 2. Ularning harakatlarini kuzatadi.
3. Qaror qabul qilish	Axborotlarni to'plash va aniqlashtirish. Muqobilarni muhokama qilish (aqliy hujum). Qulay variantini tanlash. Faoliyat rejalarini aniqlashtirish.	1. Axborot bilan ishlaydilar. 2. G'oyalarni sintez va tahlil qildilar. 3. Tadqiqot o'tkazadilar.	1. Kuzatadi. 2. Maslahat beradi.
4. Bajarish	Loyihani bajarish.	1. Tadqiqotni bajadarilar va loyiha ustida ishlaydilar. 2. Loyihani tayyorlaydilar.	1. Kuzatadi. 2. Maslahatlar beradi (o'quvchilarning iltimoslari bo'yicha).
5. Natijalami baholash	Bajarish, erishilgan natijalarini (muvaffaqiyat va muvaffaqiyatsizlik) va buning sabablarini tahlil qilish. Qo'yilgan vazifaga erishishni tahlil qilish.	Loyihani jamoali tahlil qilish va ishlaring natijalarini o'zlarini baholashda ishtirot etadilar.	1. Kuzatadi 2. Tahlil qilish jarayonini yo'naltirib boradi (agar zarur bo'lsa).
6. Loyihani himoya qilish	Hisobolni tayyorlash; loyihalashtirish jarayonini asoslab berish, olingan natija-larni tushuntirish. Loyihalarini jamoali himoya qilish, baholash	1. Loyihani himoya qildilar. 2. Loyiha natijalarini jamoali baholashda ishtirot etadilar	O'quvchilarning erishilgan natijalarini jamoali baholash jarayonlarini tashkil qiladi

Har qanday bajarilgan loyihani baholash kerak va o'quvchilarni ham ushu malakaga o'rgatish kerak. O'quvchilarga yordam berish uchun loyihani baholash va uni guruhda himoya qilish jadvalini ishlab chiqish mumkin.

Ushbu loyihadan 5-7-sinflarda muvaffaqiyatli foydalanish mumkin. O'quvchilarning loyihalar ustida ishslash malakalari rivojlanib borishi bilan 8-sinfda ushbu siklga yanada ko'proq topshirilqilar, tavsiflar kiritiladi.

O'quvchilar o'zları mehnat ta'limi darslarida loyihalashtiradigan mahsulotlarni ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lgan sanoat va tijoratda turli kasblar va amaliy faoliyatlar to'g'risida bilib oladilar.

Ishni baholash	Himoyani baholash
O'quvchi familiya, ismi	
Takif elligan yechimlar dolzarbligi va yangilgi, mavzuning murakkabligi	Ishanmalar hajmi va takif elligan yechimlar majmuasi
Mustaqillik darajasi	Tayyorlanayotgan surʼat, plakat va boshqalarning sifati
Ma'ruzaning sifati	Yorilayotgan mavzu bo'yicha bilimlar chuqurligining namoyon bo'lishi
Mazkur fan bo'yicha bilimlar chuqurligining namoyon bo'lishi	O'qituvchi bilimlar savollariiga javoblar
O'qituvchi savollariga javoblar	Ma'ruzachining ijodiy qobiliyyatlarini baholash
Ma'ruzachining ishlamarmonlik sifatlarni baholash	Yakuniy baholash (ball): a'lo - ... ball; yaxshi - ... ball; qoniqarli - ... ball; qoniqarsiz - ... dan kam ball)

O'quvchilarda asta-sekin ma'lum mahsulotlarni tayyorlash uchun zarur bo'lgan yanada yuqori darajali malakalar rivojlanadi (ayniqsa, tadqiqot, rejalashtirish va qaror qabul qilish bo'yicha).

1.6. Umumiy o'rta ta'lif maktabi o'quvchilarida dizayn ijodkorligi xususiyatlarini namoyon etish va o'zlarini rivojlantirish qobiliyatlarini rivojlantirishning innovatsion texnologiyalari (loyihalar metodi materiallari asosida)

O'quvchi ijodiy shaxsi, uning ijtimoiy faolligini rivojlantirishga, hamkorlik va sheriklik pedagogikasiga yo'naltirilgan zamona viy bosqichda O'zbekiston Respublikasi maktabalarini tubdan isloh qilishning muhim tamoyillaridan biri – har bir o'quvchining intellektual, emotsional-irodaviy va amaliy sohalari, jismoniy va ruhiy rivojlanish xususiyatlaridagi farqlarni hisobga oluvchi individuallashtirish tamoyili hisoblanadi.

Ushbu tamoyil albatta har bir o'quvchining qobiliyatlarini har tomonlama rag'batlantirish, har bir shaxsni, uning manfaatlarini, motivlari, qadriyatlari yo'nalishlarini hisobga olib rivojlantirishga yo'naltirilgan tabaqa lashtirish tamoyilli bilan birlgilikda amal qiladi.

Yangicha pedagogik tafakkur bir tomondan ijodiy shaxsni shakllantirishga yo'naltirilgan, boshqa tomondan – har bir o'quvchining individualligi, e'ziga xosligiga, uning shaxsiy istagi va hayotiy intilishlarini hisobga olishga yo'naltirilgan ta'lifning tashkil qilinishini talab etadi.

Bola maktab hayoti, o'quv-tarbiya jarayoni, barcha faoliyat turlarining (o'quv, mehnat, badiiy, sport, jamoat-tashkilotchilik va shu kabilalar) erkin sub'yekti bo'lishi kerak. Bunday yondashuv hamkorlik va sheriklik pedagogikasining asosi hisoblanadi.

O'quvchilarda ijodkorlikka, shu jumladan, dizayn ijodkorligiga intilishni uyg'otish uchun turli ta'lif metodlaridan foydalanish zarur. Shu mazmunda o'quvchilarga g'oyadan tortib, to modelda, mahsulotda (mehnat mahsulida) amalga oshirishgacha bo'lgan butun loyihalashtirish-texnologik ketma-ketlik bo'yicha amaliy faoliyatni tashkil qilishni tizimli o'zlashtirib olishlariga imkon beradigan loyihalar metodi alohida ahamiyatga ega.

Mazkur yondashuvning asosiy xususiyati – ta'limga tadqiq-qotchilik, ijodiy tus berib faollashtirish va shu tariqa o'quvchiga o'z idrok etish faoliyatlarini tashkil etish tashabbusini berishdan iborat.

Loyihalar metodi haqida gapirganda o'qituvchiga ma'lum ta'lif masalalarini hal qilishga imkon beruvchi pedagogik vositani nazarda tutamiz. Har qanday pedagogik faoliyatning natijasi – bu umumiyl o'rta ta'lif masalalarini hal qilish ekanligi barchaga ma'lum.

Har qanday pedagogik faoliyat o'quvchi shaxsini ijobiy o'zgartirishga, aniqrog'i – bilim berish, ko'nikma va malakalarni egallahsga; shaxsiy sifatlari rivojlanishi darajasini o'zgartirishga yo'naltirilgan.

Loyihalar metodiga kelsak, mazkur so'z birligida loyihalashtirishning pedagogik yo'nalganligi mavjud.

O'quv loyihalashtirish metodi loyihalash faoliyatining pedagogik xususiyatiga urg'u beradi, kuchaytiradi. Ammo shu bilan bir vaqtida bu o'ziga xos axborotning birmuncha ortiqligi sanaladi.

O'quvchilar tomonidan o'quv loyihalarining bajarilishi haqida gap borganda esa, unda ushbu so'z birikmasining ishlatalishi nafaqat o'rinni, balki zarur hamdir.

Ushbu metodning maqsadi kasbga yo'naltirish ma'nosidagi loyihalashtirishni o'rgatish emas, balki har qanday faoliyatda loyihalash yondashuvini shakllantirish ekanligini yoddan chiqarmaslik kerak.

O'quvchilarning loyihalash faoliyatlarining maqsadi ma'lum ma'noda loyihalash faoliyatining o'zi hisoblanadi, ushbu jarayonida shaxsnинг tegishli sifati shakllanadi. O'quv jarayonida ijodiy loyihalar haqida gapirishdan avval *sub'yektiv ijodkorlik* va *ob'yektiv ijodkorlik* tushunchasiga aniqlik kiritib olamiz.

Har qanday loyihalash faoliyati ijodiy komponentga ega, u qandaydir yangilikka, o'ziga xosga erishishga yo'naltirilgan. Loyihalash faoliyati asosida tadqiqotchilik yotadi, bu esa har doim ijodkorlikdir.

Loyihalash metodi o'quvchilarning mustaqil idrok etishlarini faollashtirishga, ularning ijodiy imkoniyatlarini, shu jumladan, dizaynerlik tafakkurlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan.

Dizaynerlik tafakkurni shakllantirish – bu uyg'unlashtirilgan predmetli muhitni tashkil qilishga qaratilgan emotsiyalbaholash va ijodiy yaratuvchilik faoliyatiga qodir insonni

tarbiyalash muammosi, ya'ni o'quvchilarning dizaynerlik ta'limi muammosidir.

Dizaynerlik tafakkuri ongning o'ziga xos tuzilishi, baholash mezonlari va ijodiy faoliyat usullarini o'z ichiga olgan majmua sifatida qaralib, inson ularga amal qilib buyumlar dunyosiga va uni o'rab turgan muhitga mos estetik munosabatni shakllantiradi. Bunda o'quvchi o'zining tadqiqot ishida insoniyat allaqachon bosib o'tgan yo'lidan qaytadan o'tishi mumkin.

Ammo insoniyatning bu tajribasi o'quvchi tomonidan kashfiyot darajasida norasmiy o'zlashtiriladi, uning uchun shaxsiy ahamiyatga ega bo'ladi. Bu sub'yektiv ijodkorlik demakdir, usiz loyihibar metodining o'zini ham tasavvur qilib bo'lmaydi.

Ijodiy loyiha ob'yektiv ijodkorlikni, ya'ni jamiyat madaniyatiga avvallari bo'limgan qandaydir yangi narsani qo'shishni kiritishni ko'zda tutadi. Amaliyot o'quvchilarning mehnat darslarida bajaradigan ba'zi o'quv loyihibarini ijodiy turlarga to'la kiritish mumkinligini ko'rsatadi.

Umuman olganda, o'quvchilar loyihalash tajribasini egallash bilan ijodiy izlanish tajribasini ham o'zlashtirdilar, shu jumladan, dizaynerlik faoliyatida ham, bu ta'limning tarkibiy tuzilishining ajralmas elementini tashkil qiladi.

Shu bilan birga o'qituvchining yordami har bir loyihalash bosqichida o'ziga xos xususiyatga ega bo'ladi. Texnologiyaga o'qitishni har bir yil bo'yicha loyihalash topshiriqlari namunaviy mavzularini ishlab chiqishdan boshlash kerak. U yetarlicha keng bo'lishi, o'quvchilar hamda o'qituvchining qiziqishlari va imkoniyatlarini, uning ixtiyoridagi mavjud moddiy-texnik bazani hisobga olib doimiy boyitib borilishi kerak.


O'quvchilar olgan bilim, ko'nikma va malakalar qanchalik to'la talabga ega bo'lsa, loyiha o'zining vazifasiga shunchalik yuqori darajada javob beradi. Agar loyihaning ishlab chiqilishi bir necha o'quvchilar ishtirot etishlarini talab qilsa, unda ulardan har birining haqiqiy hissalarini to'liq aniqlash kerak bo'ladi.

Loyihani bajarish ketma-ketligi:

1. Yuzaga kelgan muammoni va ehtiyojni asoslاب bering.
2. Modelini (modellarni) tanlang. Modelning (model-larning) tashqi ko'rinishi ta'rifini bering, misol uchun: o'quvchining fartugi, uy fartugi, duradgor uchun fartuk va boshqalar.

3. Materialni tanlang.
4. Kerakli asbob, moslama va uskunalarini tanlang.
5. Mahsulotni loyihalashtirishni va modellashtirishni bajaring.
6. Tarixiy ma'lumotnoma tayyorlang.
7. Mahsulotni tayyorlash texnologik ketma-ketligini tuzing.
8. Reklama tayyorlang.
9. Mahsulotning tannarxonini hisoblab chiqing.
10. Bajarilgan ishlarni baholang.
11. Loyihani himoya qiling.

Ijodiy loyihani bajarish biror-bir masalasini yoddan chiqarmaslik uchun sxema tuzish taklif etiladi, unda loyihani bajarishning asosiy masalalari aks ettiriladi.



Loyihalar mavzularida xalq ustalari ijodi bilan bog'liq bo'lgan mintaqaviy va mahalliy xususiyatlarni aks ettirishga alohida e'tibor berish kerak. Loyihalar bajarish ustida ishlashda o'qituvchi o'quvchilarga mashg'ulotlar davomida hamda maslahatlar ko'rinishida yordam ko'rsatadi.

«Muammoni hal qilish» – ushbu holatda hayotning turli sohalarida kerakli bilim, ko'nikma va malakalarni qo'llash, haqiqiy va sezilarli natijaga erishish demakdir.

O'qituvchilar pedagogik faoliyatlari davomida mehnat ta'limi darslarida quyidagi muammolarga duch keladilar:

– faoliyatga ichki motivatsiya bo'lmaydi.yoki o'quvchi namuna bo'yicha ishlaydi (ishni baho uchun bajaradi, o'zini anglashga, takomillashishga, dizaynerlik tafakkurini rivojlantirishga intilish yo'q);

– o'quvchi nazariyani amaliyotda qo'llay olmaydi;

– amaliy faoliyatdan qo'rqadi (ishlashdan bosh tortadi, misol uchun tikuv mashinasida).

Loyihalar metodiga o'quvchilarning yakuniy mustaqil ishlari kabi emas, balki shaxsnинг individual, kelajakda esa, jamiyatning ham ehtiyojlarini qondiruvchi mahsulotlarni loyihalashtirish va tayyorlash ko'nikmalarini egallahsga imkon beruvchi usul sifatida qaraladi.

Boshqacha aytganda, «Men o'z dunyoyimni foydali, chiroyli va o'zim hamda boshqalar uchun qulay qilaman». Mehnat ta'limga ehtiyoj va zaruriyat har doim bo'lgan. Mahorat avloddan-avlodga «men kabi takrorla» metodi bilan o'tib kelgan.

Darslarda loyihalar metodidan foydalanish ijodiy faoliyatga motivatsiyani oshiradi. O'quvchilar loyihalash jarayonini amalga oshirar ekanlar, samarali o'quv natijalariga erishadilar. Inson o'z tabiati bo'yicha – rassomdir. Unga tashqi dunyonи obrazlarda eslab qolib, idrok etish xosdir.

Shahar va bog'lar, turar-joy, ma'muriy binolar, sanoat inshootlari, reklama, mebellar o'zining go'zallik qonunlari bo'yicha yaratiladi. Barcha yaratuvchilar, o'z ishining ustalari o'zlarining yakuniy maqsadlarida to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita birdirlar. Ular o'z ijodlarida mukammallikka intiladilar va shu bilan bir-birlari bilan bog'liqdirlar.

Har bir ishda yuqori malakali ustalar ishlashlari kerak. Hech kim bir xildagi shahar, uylarda yashashni va bir xilda o'laydigan hamda bir xilda kiyungan jamiyatda bo'lishni istamaydi.

Bugungi kunda tashabbuskor, tadbirkor, malakali mutaxassislarga ehtiyoj oshdi. Bularning barchasi oddiy

bo'limgan, ijodiy shaxslarga haqiqiy ehtiyoj oshishi bilan kuchaymoqda.

Shuning uchun birinchi navbatda:

- o'quvchilarning qiziqishlarini rivojlantirish, «tasavvurlarini uyg'otish» va idrok etish faoliyatlarini faollashtirish;
- ularni maxsus mashqlar yordamida g'oyalarni ishlab chiqishga va mahsulotlarni tayyorlashga yoki inson ehtiyojini qondirish bo'yicha xizmatlar ko'rsatishga o'rgatish;
- shaxsnинг kommunikativ va estetik sifatlarini tarbiyalash kerak.

Loyihalash faoliyati o'z xususiyatlari va quyidagi komponentlarga ega:

1. Ehtiyojni aniqlash va masalani qisqacha ifoda etish

Eng boshidan ushbu mahsulot kim uchun ishlab chiqilishi va tayyorlanishi hamda bu insonga aynan nima uchun kerakligini aniqlab olish kerak. Loyihalash insonlar hayoti sifatini yaxshilashga yo'naltirilgan, shu sababli inson loyihalash jarayonining markazida bo'lishi kerak. O'quvchi vazifani aniq ifoda etishi lozim – mahsulotni yoki g'oyasini ishlab chiqadigan va tayyorlaydigan topshiriqni yozib olishi kerak.

Vazifa quyidagilarda ifodalanadi:

- loyihaning nomi;
- loyihaning funktsiyalari;
- «mahsulotdan» kim foydalananadi (foydalanuvchilar toifasi).

Mazkur bosqichda fan dasturiga binoan loyihaning mavzusi ham tanlanadi. Agar dars mavzusi o'quvchilar uchun ma'lum bosqichda qiziqarli bo'lmasa, unda loyiha uzoq «yashamaydi», chunki u o'quvchilar tomonidan tushunilmaydi.

O'quv yili boshida eng birinchi darsda o'quvchilarni kursning barcha asosiy mavzulari bilan mantiqiy ketma-ketlikda tanishtirib chiqish mumkin. O'qituvchining vazifasi, ular o'quvchilarning har biri uchun qanchalik foydali va amaliy ahamiyatli ekanligini ko'rsatib berishdan iborat.

Vazifani qisqacha ifoda etish va qisqacha mezonlar ro'yxatini tuzish bo'yicha mashqlarni bajarish tavsiya etiladi:

- mahsulot qanday vazifalarni bajarishi kerak;
- mahsulot qanday ko'rinishga ega bo'lishi kerak;
- o'lcham kattaliklari to'g'risida ma'lumotlar;

– qanday materiallardan va ishlov berishdan foydalaniladi. Vazifani aniqlash bosqichida insonlar ehtiyojlarini aniqlashga yo'naltirilgan maxsus mashqlar o'tkaziladi.

Loyiha masalalari:

Qanday foydali buyumlar to'qimachilik chiqindilari sonini kamaytirishi mumkin?

To'qimachilik tolalari xususiyatlarini hisobga olib qaysi foydali buyumlarni ikkilamchi xom ashyodan tayyorlash mumkin?

Eski buyumlardan qanday foydalanish mumkin?

O'quvchilarning ijodiy imkoniyatlarini faollashtirish uchun g'oyalarni ishlab chiqishga yo'naltirilgan maxsus pedagogik uslublardan foydalanish mumkin:

– **«G'oyalalar banki» uslubi.** O'quvchilar g'oyalarni o'ylab topar ekanlar, o'zlarini *erkin namoyon etadilar*. Ushbu jarayon davomida tezlikda xomaki chizmalar yoki g'oyalalar ta'riflarini yozib borish lozim bo'ladi.

– **«Bu nimaga o'xshaydi?» uslubi.** Bu uslub fazoviy xayoli, noan'anaviy fikrlash, sanoat mahsulotini yaratish uchun o'quvchilarning tabiiy shakklardan foydalanish (misol uchun, daraxtlar novdalari va ildizlaridan va shu kabilar) malakalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan.

– **«Qiziqarli axborot» uslubi.** O'quvchilarga bo'sh vaqtlarida loyiha mavzusi bo'yicha qo'shimcha axborot manbalaridan foydalanish tavsiya etiladi. O'quvchi axborot manbalarini bilib olgach ulardan faol foydalana boshlaydi, bu holat esa uning qiziquvchanligini rag'batlantiradi. Bir yoki bir necha g'oyalarni o'rganib, ishlab chiqish imkoniga ega bo'ladi.

G'oyalalar qanchalik ko'p bo'lsa, natija shunchalik yaxshi. Noto'g'ri harakatlар va xatolarning oldini olish uchun individual, mustaqil dizayn-tahlil o'tkazish zarur, u esa ishlab chiqilgan g'oya bo'yicha tajribani boyitish va mustahkamlashga yordam beradi.

2. Mahsulotni tayyorlash

O'quvchilar o'zlarini fikrlagan, o'ylagan, loyihalagan narsalarni o'zlarini yasaydilar. Ushbu bosqichda ular ish davomida qiyinchilikka duch kelsalar loyiha o'zgartirish kiritishlari mumkin: grafik qobiliyatları bo'limganda applikatsiyalardan

foydalanish, qimmat turadigan mahsulotlarini arzonlari bilan almashtirish va hokazo.

Loyihani amalga oshirish jarayonida o'quvchilar ma'lum bilim, ko'nikma va malakalarni mustahkamlashga yordam beradigan mashqlarni bajaradilar:

- kommunikativ;
- materiallarga ishlov berish bo'yicha ko'nikmalar;
- axborot bilan ishlash ko'nikmalari.

Ushbu mashqlar texnologik kartalarda, darsliklarda va o'quv qo'llanmalarida, ishchi daftarlarda berib boriladi.

3. Sinovdan o'tkazish va baholash

Mahsulot ma'lum bir kishi yoki insonlar guruhi ehtiyojlarini qondirish uchun loyihalangan yoki tayyorlangan. Shuning uchun mahsulot darsda yoki uy sharoitlarida haqiqiy vaziyatda sinovdan o'tkazilishi kerak: ko'p vaqt talab qiladigan amaliy ishning bir qismini o'quvchilar uy sharoitlarida bajaradilar. Bu bolalarga ota-onalar bilan munosabatda bo'lishlariga yordam beradi.

Kundalik va hamkorlikdagi ishlarda bir-birini tushunish, hurmat, ishonch, sheriklik va mas'uliyat hissi shakllanadi. Mehnat natijalari yanada yorqin bo'ladi, mahsulotni takomillashtirish ehtiyoji yuzaga keladi.

Mehnat ta'limi fani bo'yicha loyihalar metodini kiritish bilan o'quvchilarda muammoni o'rganish, o'ylab topish, yangicha hal qilish, mahsulotni yaratish, haqiqiy sharoitlarda foydalanish va baholash qo'shimcha imkoniyatlari paydo bo'ladi. Loyihalarga qiziqish o'quvchilarning mustaqilliklari darajasiga bog'liq bo'ladi.

Milliy va xorijiy tadqiqotchilarning ma'lumotlariga qaraganda, barcha yoshdagи o'quvchilarning 62 foizi loyiha rahbarining faqat ozgina yordami bilan, aynan mustaqil bajarilganligi sababli, qiziqarli bo'lganligini ta'kidlaydilar.

Mazkur tayyorgarlik darajasini hisobga olib, o'quvchilar o'zlarining imkoniyatlari darajasiga mos topshiriqlar oladilar va topshiriqlar asta-sekin murakkablashtirib boriladi.

Har bir sinfda turlicha qobiliyatli o'quvchilar bor. Ancha kuchli o'quvchilar ko'proq tadqiqotlar o'tkazishlari, ko'proq

turlicha g'oyalarni taklif etishlari va yanada murakkabroq mahsulotni tayyorlashlari mumkin.

Qobiliyati kuchli bo'limgan o'quvchilarga yordam ko'rsatish talab etiladi. Yordamchi sifatida ancha kuchli o'quvchi tayinlanadi, u boshqalarga yordam ko'rsatish bilan bir vaqtida o'zi takomillashishda davom etadi.

O'quvchilarda loyihalar metodi yordamida faqat mehnat ta'limi darsida emas, balki boshqa darslarda ham ijodiy faoliiklari ancha oshadi. Maktab psixologiy bilan birgalikda har yili o'quvchilarning ijodiy imkoniyatlarini aniqlash bo'yicha tashxis va anketa so'rovlar o'tkaziladi.

Natijalar loyihalar metodi fiziologik, emotsiyal, intellektual, ijtimoiy ehtiyojlarini hal qilish uchun bilim, ko'nikma, malakalarini rivojlantirishga, darsda va darsdan tashqari vaqtida ijodiy faoliyatga motivni shakllantirishga yordam berishini ko'rsatdi.

Amalga oshirilgan loyihani baholash quyidagi mezonlar asosida amalga oshiriladi:

- loyiha mavzusini tanlash motivlari;
- hisobot mazmunining amalga oshirilgan loyiha ishiga mosligi;
- loyiha mahsulotining sifati;
- loyiha mahsulotidan amaliy foydalanish;
- ko'rgazmali materiallar sifati (bayon etish mantiqi, to'g'riligi);
- boshqa fanlar va o'quv fanlari bilimlaridan foydalanish;
- savollarga javoblar;
- texnologiya bo'yicha to'liq bilimga ega bo'lish;
- loyiha yechimining o'ziga xosligi;
- nutq madaniyati.

Jadvalga o'n ballik shkala bo'yicha baholar qo'yiladi («Loyihada bu aks ettilmagan» ga 1 balldan «Mezon to'liq ochib berilgan»ga 10 ballgacha).

0 dan 44 ballgacha – «2» baho qo'yiladi;

45 dan 69 ballgacha – «3» baho;

70 dan 84 ballgacha – «4» baho;

85 dan 100 ballgacha – «5» baho qo'yiladi.

Loyihani baholashda mahsulotni bajarish murakkabligi va sifati, tushuntirish xatining to'liqligi, grafik elementlarining – ~~ss~~hemalar, chizmalarining tartibli bajarilishi, mustaqillik darajasi, himoya paytida materiallarni o'zlashtirganlik darajasi hisobga olindi.

Loyihalar metodi o'quvchilarning dizaynerlik tafakkurlarini rivojlenitirishga, ularning materiallar bilan ishlash bo'yicha turli bilim va ko'nikmalarni egallashlariga yordam beradi, uydagi texnika va madaniyatni o'rganish, kasbiy rejalarни aniqlashtirishga imkon yaratadi.

Mehnat ta'lilda loyhalar metodi ta'lilda shaxs va jamiyat manfaatlарини mos birlashtirishga, o'quvchilarda texnologik ta'limga qiziqishni shakllantirishga yordam beradi, bilim va malakalari sohasini kengaytiradi, bu o'quvchilarning bo'lajak mutaxassis hamda o'z vatani fuqarosi sifatida tashkil topishlariga yordam beradi.

O'quv-pedagogik jarayonni maqsadga muvofiq kuzatib borish, ilg'or o'qituvchilarning tajribalarini o'rganish va tahlil qilish, 2009-2012 yillarda o'tkazilgan pedagogik tajribalarning dastlabki natijalaridan o'quvchilarda o'zini ifoda etish va o'zini amalga oshirish qobiliyatini shakllantirish quyidagi imkoniyatlarini beradi deyishga asos bo'ladi:

- har bir o'quvchini faol idrok etish jarayoniga jalb qilish, ularning faqat olgan bilimlarini amalda qo'llashlari emas, balki ushbu bilimlar qaerda, qanday tarzda va qanday maqsadlarda qo'llanilishi mumkinligini aniq anglab etishlari;
- turli muammolarni hal qilishda ma'lum kommunikativ malakalarini ko'rsatib hamkorlikda, birgalikda ishlash; o'z mintaqasi boshqa ta'lim muassasalari, mamlakatimiz boshqa mintaqalari va hatto jahoning boshqa mamlakatlari ta'lim muassasalaridan tengdoshlari bilan keng muloqotda bo'lish imkoniyati;
- u yoki bu muammo bo'yicha shaxsiy mustaqil, ~~asoslangan~~ fikrini shakllantirish, uni har tomonlama o'rganish ~~maqpadi~~da kerakli axboratlardan erkin foydalanish (kutubxonalar, OAV, Internet, axborot resurs markazlari va boshqalar).

Shu bilan birga o'quv-tarbiyaviy jarayoniga bunday yondashuv o'sib kelayotgan avlod ma'naviy hayotini rivojlantiradi, o'zini ijodiy amalga oshirishiga, shaxsning tashkil topishiga yordam beradi; o'quvchining individual rivojlanishiga yordam beradi, uning o'zini rivojlantirishini, mustaqil bilim olishini, o'zini tarbiyalashini, o'zini ifoda etishini rag'batlantiradi; shaxsning sub'yektli xususiyatlarini (mustaqillik va boshqalar) chiqurlashtiradi.

O'quvchilarni o'zini namayon etish va o'zini amalga oshirishga qobiliyatlarini maksimal hamda maqsadga muvofiq rivojlantirishga yo'naltirish:

- o'quvchilarning topshiriq turi, uni bajarish shakli jamoali va individual tanlashlari rag'batlantiradi;
- o'quvchilarni o'z fikri, g'oyasini to'laqonli asoslashga o'rgatadi, ularni mumkin bo'lgan e'tirozlar va o'zaro tanqidga tayyorlaydi;
- o'quvchilarda faoliik, tashabbuskorlikni tarbiyalaydi;
- dialog, tortishuvlar olib borish malakasini shakllantiradi (albatta, qarama-qarshi nuqtai nazardan iborat bo'lgan materialda).

So'zimiz yakunida innovatsion jarayonlar yakunlanmaydi va yakunlanishi mumkin emasligini ta'kidlab o'tamiz. Har bir yangi kun shaxs va bo'lajak mutaxassis modeliga yangi talablar qo'yadi.

Shuning uchun bizning vazifamiz – pedagogika fanini rivojlantirish avvalgi tajribalariga tayanib o'quvchilarga ta'lim berish va tarbiyalash yangi texnologiyalarini ilmiy asoslab va tatbiq etib hamda ta'lim jarayonining barcha sub'yektlariga, ularning ijodiy innovatsion imkoniyatlarining o'sishini ta'minlab, doimiy ravishda ilgari harakatlantirishdan iboratdir.

II bo'lim.

TA'LIM VA TARBIYA JARAYONIDA O'QUVCHILARDA DIZAYN IJODKORLIGI XUSUSIYATLARINI RIVOJLANTIRISHNING DIDAKTIK IMKONIYATLARI

Har tomonlama yetuk barkamol avlodni tarbiyalash jamiyatimizning muhim vazifalaridan hisoblanadi. Bugungi kunda mazkur jarayon fan, texnika va san'at sohalarining birlashuvini taqozo etmoqda. Ushbu birlashish (integratsiya jarayoni) dizayn sohasida yaqqol namoyon bo'lmoqda. Dizaynerlik mehnati metodlari, kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarning turlari, tafakkurning o'ziga xos apparati hamda uslublari o'zining ko'rsatkichlari bo'yicha har qanday kasbiy faoliyat turidan ustun turadi va bir kasb doirasidan chiqadi. Dizayn metodlarini qo'llash yo'llari jamiyat ma'nnaviy-amaliy hayotining deyarli barcha sohalariga kirib bormoqda.

Qayd qilinganidek «dizayn» atamasi (termini) nisbatan yaqinda paydo bo'lgan. Shu davrgacha buyumlarni loyihalash-tirish «badiiy loyihalashtirish», buyumlarni yaratish nazariyasi esa «texnik estetika» deb atalgan. «Dizayn» tushunchasi inglizcha so'z bo'lib, «rasm chizish» degan ma'noni anglatadi. Bu so'z negizida turli hosila tushunchalar: «dizayner», rassom-konstruktur, «dizayn-shakl» – predmetning tashqi shakli va boshqalar yuzaga kelgan.

Olimlar dizaynga ommaviy sanoat mahsulotini loyihalash va shuning asosida predmetli muhitni yaratish sohasida rassom-konstruktur faoliyati sifatida qaraydilar.

Har bir buyumning qimmati ikki asos – foydaliligi va go'zalligi (ko'rilmiligi) bo'yicha baholanadi. Har bir predmetning asosi doimiy o'zgaruvchan va tarixiy rivojlanishdagi texnik hamda estetik xususiyatlarga ega bo'ladi. Buyumning amaliy foydasini tushuntirish talab etilmaydi, biroq ba'zi estetik hissiyotlar ham foydali bo'lishi mumkin.

Dizaynerlik faoliyatining mazmuni sanoat mahsulotining yaratilishi, uning iste'mol qilinishi kabi asosiy jarayonlarini aks ettiradi; dizaynerlik faoliyati turli fanlar asoslarini bilishga asoslanadi. O'quvchilar badiiy-konstrukturlik tayyorgarliklarining

qimmati, uning umumiyligi politexnik ta'llimining bir qismi sifatida namayon bo'lishidadir.

Uzoq davrlar mobaynida madaniy va ishlab chiqarish sohalarining rivojlanishi parallel, umumiyligi bog'liqlikka ega bo'limgan holda rivojlandi. Maktab ta'llimi tizimida bu holat o'quvchilarning gumanitar va texnik tayyorgarliklari o'rtasidagi uzilishda o'z ifodasini topdi. Texnik hamda badiiy ijodkorlikka xos bo'lgan ijodkorlik elementlari fanda alohida o'rganilmagan.

Sanoat ishlab chiqarishi sohasida mehnat qilishga yo'naltirilgan har bir o'quvchi ham bo'lajak mahsulot ishlab chiqaruvchisi, ham iste'molchisi hisoblanadi. Shu sababli ham ishlab chiqarish hamda iste'mol uchun umumiyligi bo'lgan mehnat ob'yektlari sifatini baholash tizimini ishlab chiqish zaruriyatini yuzaga keldi.

2.1. Mehnat ta'llimi darslarida badiiy konstrukturlik faoliyatini tashkil qilishning nazariy va metodik masalalari

Mehnat ta'llimi darslarida badiiy-konstrukturlik faoliyatini tashkil qilish.

Badiiy konstrukturlik badiiy ijodning turlaridan biri hisoblanib, ijodiy qobiliyatlarni shakllantirishga imkon beradi, shaxsning estetik madaniyatini tarbiyalashga yordam beradi va shu bilan bir vaqtida bolalarning mehnat darslarida olgan bilim, ko'nikma, malakalarini mustahkamlash va chuqurlashtirishga imkon yaratadi. Bundan tashqari shaxsning ijodiy imkoniyatlarini hamda badiiy mehnat faoliyati sohasidagi bilim, ko'nikma, malakalarini shakllantirib, badiiy did, yaratilayotgan obrazni ifoda etish uchun mos vositalarni tanlash, topish qobiliyatini rivojlanтиради. Ammo shu bilan birga barcha mahsulor faoliyat turlari kabi badiiy loyihalash faoliyati davomida bolalar o'zaro munosabatlarning xilma-xil turlarini modellashtirishning yaxshi imkoniyatlarini yaratadi, bu esa burch hissi, mas'uliyat, guruuh talablariga itoat etishni bilish va jamoada ijodiy ishlash, o'zaro yordam ko'rsatish, jamoat xulqi qoidalarini o'zlashtirishni tarbiyalaydi.

Izlanishlarimiz jarayonida sohaga oid pedagogik, psixologik adabiyotlarni o'rganish va tahlil qilishda o'quvchilar

ijodkorlik faoliyatini faollashtirish muammosiga tadqiqotchilar qiziqishining ortib borayotganligini ko'rdik. Bundan tashqari, ijodkorlik qobiliyatlarini maqsadli shakllantirish uchun ushbu tushuncha qanday ahamiyatga ega ekanligini aniqlash talab etiladi.

O'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirishda uzviylikni taminlash, mehnat jarayonlari, ularning mazmuni, umumiyligi va xususiyatliligini inobatga olishni taqozo qiladi. Jumladan, boshlang'ich ta'limda olgan bilimlari umumiyligi o'rta ta'limda bilim va ko'nikmalarni shakllantirishga, bu esa o'z navbatida, keyingi kasb-hunar kollejlarida olgan bilimlari olyi ta'limni rivojlantirishga asos vazifasini o'taydi.

Pedagog olimlar P.T.Magzumov, P.N.Andrianov, K.D.Davlatov, Yu.S.Stolyarova, O'.Q.Tolipov, P.R.Atutov, R.A.Mavlonova, I.Choriev, N.Shodiev, U.N.Nishonaliev, B.S.Gafforov, V.P.Budarkevichlarning ishlanishlarida o'quvchilarni mehnat faoliyatiga tayyorlashda ularning texnik ijodkorligini rivojlantirish mexanizmlari ko'rsatib berilgan bo'lsa, S.R.Rajabov, A.K.Munavvarov, V.A.Suxomlinskiy va boshqalarning ishlarida yoshlarni umumiyligi o'rta ta'lim maktablarida ijodkorlik faoliyatiga tayyorlashning didaktik asoslari yoritilgan.

Bundan tashqari, o'quvchilarni mehnat faoliyatiga tayyorlashda texnik ijodkorlikni rivojlantirishning alohida shakllari va usullari V.D.Putilina, A.V.Bochkina, D.P.Elkova, V.M.Ardina V.I.Kachneva, Yu.S.Stolyarovlarning ilmiy tadqiqotlarida ko'rsatib berilgan.

Ijodkor shaxsni rivojlantirishning psixologik va pedagogik jihatlari V.T.Anan'eva, D.B.Bogoyavlenskiy, L.S.Vo`gotskiy, G.M.Gajiev, S.M.Vasileyskiy, O'.Q.Tolipov, E.Roziqov, M.G.Davletshin, N.S.Leytes, P.M.Yakobson, M.S.Barshteyn, K.K.Platonov va boshqalarning ishlarida bayon qilingan.

V.M.Ardina, I.I.Baki, A.K.Beshenkova, A.N.Gomozov, V.E.Alekseev, P.N.Andrianov, D.P.Elnikov, J.Ramizov, E.F.Zeer, V.I.Kachnev, O'.Q.Tolipov, N.A.Muslimov, V.D.Putilin va boshqalarning tadqiqotlarida umumiyligi o'rta ta'lim maktablari o'quv ustaxonalari mashg'ulotlarida o'quvchilarni mehnatga tayyorlashda texnik ijodkorlikni shakllantirish va rivojlantirishning didaktik jihatlari tadqiq qilingan.

O'quvchilarning sinfdan tashqari va mактабдан ташқари ишларда техник ijodkorligini rivojlantirish muammolari ham qator izlanishlarda o'z aksini topgan, bular V.G.Razumovskiy, V.A.Gorskiy, Yu.S.Stolyarov va boshqalar.

Shuningdek, bo'lajak mehnat ta'limi o'qituvchilarini bolalar texnik ijodkorligiga rahbarlik qilishga tayyorlash bo'yicha D.I.Penner, A.D.Ivanev, D.M.Komenskiy, V.V.Portnoy, V.V.Kolotilova, V.G.Getta, A.M.Plutok, G.E.Zelenko, M.V.Zelenko kabilarning tadqiqotlari mavjud bo'lib, ularda umumiyo'rta ta'lim maktablarida o'quvchilar ijodkorlik faoliyatini takomillashtirish muhim ahamiyatga ega ekanligi asoslangan.

Tadqiqotchi Sh.Sharipovning ishida bo'lajak mehnat ta'limi o'qituvchilarini ixtirochilik faoliyatiga tayyorlash bo'yicha tavsiyalar berilgan bo'lsa, T.J.Ismoilovning nomzodlik dissertasiyada pedagogika institutlarida mehnat ta'limi o'qituvchilarini qishloq maktablari o'quvchilarining texnik ijodkorligini rivojlantirishga rahbarlik qilishga tayyorlash muammolari o'rganilgan.

O'quvchilarni ijodkorlik faoliyatiga maqsadli tayyorlash muammosi murakkab va ko'p qirrali hamda u ijodkorlikning turli jihatlari bilan bog'liqdir.

Loyihalash jarayonida o'quvchilarda fazoviy tasavvurlari jadal rivojlanadi, u o'z ishini oldindan o'ylab olib boradi, unda rejalashtirib fikrlashdan harakatlarga tezda o'tish qobiliyati ishlab chiqiladi, harakatlarining chaqqonligi, aniqligi shakllanadi hamda rivojlanadi va boshqalar.

Badiiy loyihalash tarixi haqida qisqacha ma'lumot.

Badiiy loyihalash (dizayn) XX asr 30-yillardan faol rivojana boshladi. G'arbda yangi, dizaynerlik kasbi paydo bo'ldi, ularning vazifalari mahsulotning yangi, yanada sifatli, qulay, chiroyli va boshqa firmalar tomonidan ishlab chiqariladigan shu kabi mahsulotlarga qaraganda yanada arzon konstruktsiyalarini yaratishdan iborat bo'lgan.

Ilmiy adabiyotlarda loyihalashning ikki turi ko'rsatiladi: texnik va badiiy.

Texnik loyihalash - predmetni uning moddiy va funktsional asosida yaratadi.

Badiiy loyihalash - predmetni ijtimoiy mazmun, qulaylik, uyg'unlik, go'zallik bilan boyitadi.

Entsiklopedik, izohli va maxsus lug'atlar hamda o'quv-metodik adabiyotlarda «dizayn» tushunchasining sharhi bilan tanishish asosida, o'rganilayotgan muammoga eng yaxshi, mos keladigan («dizayn» tushunchasining) ishchi ta'rifini ifoda etishimizga imkon tug'ildi.

Dizayn – bu mos uyg'unlikka ega predmetli muhit va uning elementlarini shakllantirishga qaratilgan badiiy-loyihalash faoliyatidir.

Dizayn o'zida 2 jihatni birlashtiradi:

- utilitar, texnik mukammallik, texnologik maqsadga muvofiqlik, iqtisodiy va ergonomik samaralilikni nazarda tutuvchi amaliy hayotiy talablarni qondiruvchi;
- estetik, ijobjiy emotsiyalarning estetik ifodalanganligi, badiiy obrazlilik, mazmundorlikni ifoda etuvchi go'zal, uyg'unlikka ega, badiiy mazmuni muhit ehtiyojini aks ettiruvchi.

Amaliyotda o'quvchilarni oddiy konstruktorlik masalalarini hal qilish jarayoniga jaib qilish, ularda grafik savodxonlik va texnik tasavvurlarni shakllantirish, mahsuldor ijodiy faoliyatlarini tashkil qilish orqali konstruktorlik fikrlashlari rivojlantiriladi.

Mehnat darslarida atrofimizdag'i barcha predmetlarni yaratishda badiiy asosning mavjudligi hamda har bir inson chiroyli buyumlarni yaratishni bilishi kerakligini ko'rsatish va uqtirish zarur.

Ushbu maqsadda badiiy loyihalash elementlaridan foydalish mumkin, ular predmetda quyidagilarni nazarda tutadi:

- rangi va shaklining yaxlitligi;
- materiali va shaklining birligi;
- shaklining vazifasiga mosligi;
- kompozitsiyada turli shakllarning muvofiqligi.

Ushbu bilimlar to'plamini badiiy-konstruktorlik yoki dizaynerlik bilimlari deb ataymiz. O'quvchilarni estetik tarbiyalash bilan bog'liq bo'lgan bilimlardan mehnat ta'limi darslarida foydalananish imkoniyatlarini ko'rib chiqamiz.

Estetik tarbiya – hayotda va san'atda go'zallikni ko'rish, his qilish, tushunish qobiliyatini shakllantirish, badiiy-ijodiy faoliyatga jaib qilish yo'li bilan atrof-muhitni go'zallik qonunlari bo'yicha o'zgartirishda ishtirok etishdir.

Mutaxassislar o'quvchilarni tabiat orqali, turmush estetikasi, ijtimoiy va mehnat munosabatlari ta'siri orqali estetik tarbiyalashga katta ahamiyat bermoqdalar.

Predmetli muhitning (narsalar olami) bolalarga ta'siri faoliyat jarayonida sodir bo'ladi. Kichik maktab yoshidagi bolalar, aytaylik, xona tuzilishi va sharoitini emotsional qabul qiladilar, undagi o'zgarishlarni yetarlichcha to'g'ri tushunadilar. Bundan tashqari ular predmetli muhitni (narsalar olamini) badiiy-obrazli tashkil qilishni yoqtiradilar, o'ziga xos tuzilishi, g'aroyib rangi, bezatilishi, predmetlarning harakatlanishi ularni qiziqtiradi.

Narsalar olamining predmetli muhitini shakllantirish qonuniyatlarini o'rganuvchi o'quvchi texnik estetika loyihibachilaridan qulay, foydali va chiroqli buyumlarni yaratishni talab qiladi. Shu bilan birga barcha buyumlarga funksionallik, ergonomik hamda iqtisodiy talablar bilan birga rangi va shakli, shakli va materiali, shakli va vazifasi mosligi kabi talablar ham qo'yiladi. Shu talablar qatorida estetik talablarni ham ko'rsatib o'tish zarur, chunki ularning birligi buyumning go'zalligi haqida fikr yuritishga imkon beradi. Bolaning sezgi organlariga ta'sir ko'rsatib, buyum o'ziga nisbatan ma'lum munosabatni yuzaga keltiradi. Chiroqli buyumlar bilan doimiy birga bo'lish estetik didni, estetik madaniyatni shakllantirishga yordam beradi.

Kichik maktab yoshidagi bolalar deyarli hech qachon ishlab chiqarish muhiti bilan aloqada bo'lmasliklari sababli, ko'rib chiqilayotgan, o'rganilayotgan buyumlar doirasini faqat bolalar turmushidagi buyumlar bilan chegaralandik va o'rganish uchun ko'cha, uy, o'yin maydonlari, shahar transporti, kiyimlar, o'yinchoqlar kabi ob'yektlardan foydalandik.

Bolani shakllantirish jarayonida bilim, ko'nikma va malakalarining o'zgarishi bilan birga shaxsning umumiy xususiyatlarining rivojlanishi ham sodir bo'ladi.

Ta'lim va tarbiya jarayonida bolalarning psixik faoliyatlarining turli tomonlari o'zgaradi, ular borgan sari turli xildagi harakatlarni bajarish usullari, malakalarini to'playdilar va bilim va tasavvurlari o'zgaradi, yangi motivlar va qiziqishlari shakllanadi. Mana shu turli xildagi o'zgarishlar orasidan psixologlar eng umumiy va belgilovchi xususiyatlarini ajratib ko'rsatadilar:

1. Shaxsiy yo'nalghanlik.

2. Faoliyatning psixologik tuzilishi.

3. Fikrlash mexanizmlarining rivojlanganligi darajasi.

Aytib o'tilgan xususiyatlardan tashqari bolalarda ko'rish xotirasi, «ko'rish tajribasi», ko'rganlaridan taassurotlarini baholashlarini rivojlantirish zarur.

Shunday qilib, maktabgacha tarbiya muassalaridan boshlab bolalarda quyidagi shaxsiy xususiyatlarni rivojlantirib borish zarur:

1. Ijodiy tasavvur.

2. Ko'rib idrok etish va ko'rish xotirasi.

3. Harakatlarining maqsadga yo'nalghanligi, maqsad o'zgarishiga qarab ularni o'zgartirishni bilishi.

4. Abstrakt va aniq bilimlarni bog'lash, sintez qilishni bilishi.

Bolalar atrof-olam, predmetli muhit ta'siri ostida va maxsus ta'lif natijasida egallab oladigan badiiy-konstrukturlik bilim hamda malakalari shaxs xususiyatlarini shakllantirishga yordam berishi mumkin.

Bolalar oldida aqliy tafakkurni talab qiluvchi texnik masalalar yuzaga keladi. O'quvchilarning konstrukturlik qobiliyatlarini rivojlantirish ularni hal qilish asosi bo'lib xizmat qiladi. O'qituvchilar kichik muktab yoshidagi bolalarda shakllantirilishi kerak bo'lgan konstruktiv-texnik bilimlar va malakalarni aniqlaydilar:

- asboblardan foydalanish, materialga ishlov berish bo'yicha bilim va malakalari;
- material xususiyatlarini va oddiy texnologiyani bilishi;
- mehnat topshiriqlarini tahlil qilish, rejalashtirish va bilimlardan amaliyotda foydalanishni bilishi.

Atrofdagi predmetlarning turli shakllari nisbatlari, ranglar uyg'unligini ko'rib hamda bolalar tarbiya muassasasidagi mashg'ulotlarda va maktabda darslarda tegishli bilimlarni olib, bolalar turli kombinatsiyalar, badiiy loyihalashda ifodalilik vositalari to'g'risida ma'lum bilimlar tizimini o'zlashtiradilar.

Ushbu bilimlar bolalarda fazoviy tasavvurlar, ranglar xususiyatlari, konstrukturlik bilimlari va kompozitsiyasi haqidagi

ko'nikmalarini shakllantirishga yordam beradi. Shunday qilib, badiiy-konstrukturlik bilimlarini kichik yoshdan shakllantirish zarur, chunki ular atrof-muhit go'zalligini ko'rishga va fazoviy tasavvurlarini rivojlantirishga yordam beradi.

Bolalar uchun yangi bo'lgan buyumlar konstruktsiyalarini yaratish bo'yicha o'quvchilarning ishlarini tashkil qilishning eng keng tarqalgan shakllarini ko'rib chiqamiz.

1. O'qituvchi ko'rsatmasi ostida loyihalash.

O'qituvchi navbat bilan detallar konstruktsiyalarini ko'rsatadi, ularning tayyorlanishi va birlashtirilishi uslublarini, mahsulotga ishlov berish tartibini, vazifasi bo'yicha foydalanishni namoyish etadi. O'quvchilar reproduktiv faoliyat bilan shug'ullanadilar, o'qituvchining harakatlarini takrorlaydilar, taqlid qiladilar.

2. O'xhashi bo'yicha loyihalash.

O'quvchilar o'qituvchi rahbarligi ostida mahsulotni tayyorlaganlardan so'ng ularga konstruktsiya bo'yicha shunga o'xhash mustaqil loyihalashni yoki yanada murakkabroq, ammo ushbu konstruktsiyaga o'xhash mahsulotni loyihalash taklif etiladi.

3. Namuna bo'yicha loyihalash.

O'quvchilar namuna konstruktsiyasini tahlil qiladilar, u qanday detallardan tashkil topganini aniqlaydilar, alohida operatsiyalarni bajarish, mahsulotni yig'ish va ishlov berish tartibi hamda usullarini aniqlaydilar. Loyihalashga o'rgatishning ushbu shaklida, asosan, bolalarga tayyor bilimlarni to'g'ridan-to'g'ri berish ta'minlanadi. Bu zarur bosqich hisoblanib, unda bolalar materialning xususiyatlari to'g'risida bilib oladilar, loyihalash texnikasini o'zlashtiradilar. Taqlid qilish faoliyatidan iborat bo'lgan namuna bo'yicha loyihalash mustaqil izlanish faoliyatiga yondashuvni ta'minlovchi muhim tayyorgarlik bosqichi hisoblanadi.

4. O'z fikri bo'yicha loyihalash.

Bu o'quvchilarga mallum bo'lgan materiallar, asboblar va ilgari o'zlashtirgan mehnat uslublarini qo'llashlarini talab qiluvchi mahsulotni loyihalashning topshiriqni mustaqil o'rganib chiqish asosidagi loyihalash turi.

5. Tayyor mahsulotga umumiy texnik talablarni o'z ichiga oluvchi mahsulotning yozma yoki grafik ta'rifi bo'yicha loyihalash (uning vazifasi, foydalanish sharoitlari, materiali, loyihalashga umumiy talablar va boshqalar).

6. Shartlar bo'yicha loyihalash.

Namuna va tayyorlash usullarini bermasdan bolalarga faqat kompozitsiya mos bo'lishi va odatda uning amaliy vazifasini ifoda etuvchi shartlargina beriladi.

7. Konstruktsiyani yaratish va uni materialda amalga oshirish, harakatda sinovdan o'tkazish bo'yicha vazifalarni taqsimlab 2-4 kishidan iborat jamoada loyihalash.

Tadqiqotimizda qog'oz materialidan foydalanib o'z fikrimiz, shartlar hamda yozma va grafik ta'riflar bo'yicha loyihalash usulidan foydalanamiz.

Qog'ozdan loyihalashga o'rgatishda quyidagi umumiy masalalar hal qilinadi:

- namunani tahlil qilishga o'rgatish: yasalgan buyum varag'i shakli, qog'ozdan yasash usullari, qismlari, detallarini ajratishni bilish;

- bolalarda qog'oz bilan ishlashning umumlashtirilgan usullarini shakllantirish;

- buyum yasash jarayonini rejalashtirish, tahlil qilish asosida o'z faoliyatini nazorat qilishga o'rgatish;

- bolalarda loyihalashga ijodiy munosabatlarni rivojlan-
tirish: buyum yasash va uni bezatish uchun katta ifodalilik talabiga javob beruvchi qog'oz rangini tanlash, qog'ozdan narsa yasash, o'zlashtirilgan usulini yangi mazmunga ko'chirish, yasalgan buyumning ifodaliligiga erishish uchun qog'oz shaklini o'zgartirish usullaridan foydalanish.

Loyihalash faoliyati *xususiyatlarga* to'xtalib o'tamiz.

Bolaning badiiy didini namoyon etishi juda muhim: rang, ohanglar, shakli va kompozitsiyalarni ajratish hissi, o'zining yasagan buyumiga ifodalilik berishi.

Loyihalashning mazmuni ushbu umumiy konstruktiv bog'liqlikning turli kotinishlarida bilimlar tizimi sekin-asta murakkablashib boruvchi konstruktiv-texnik malakalar sifatida taqdim etilishi kerak.

Bunday mazmunni loyihalash o'qitishning mos metodlari va uslublarini tanlab olishni talab qiladi. Xususan, bolalardan o'zları uchun yangi harakatlarni topishi, ya'ni muammoli xususiyatdagi muammolarni talab qiluvchi masalalarni loyihalashdan foydalanishi o'qitishda yuqori samara berishi aniqlangan.

Bolalar oldiga bunday masalalarni qo'yish ularning izlanish faoliyatini faollashtirishga yordam beradi. Ushbu faoliyatda hal qilishning turli usullaridan foydalanishga amaliy urinishlar eng samarali yechim usullarini topish va ularni amaliy sinovdan o'tkazish maqsadida qo'llaniladi.

Muammoli xususiyatdagi konstruktiv masalalarni muntazam ravishda yechib borish jarayonida bolalarda o'z xatolariga to'g'ri munosabat shakllanadi, tahlil qilish, umumlashtirish usullari shakllanadi, aqliy faoliyatlari ancha oshadi. Bola konstruktiv faoliyatining natijasi yakunlangan predmet ko'rinishidagi natija hisoblanadi. Bolaga inson tomonidan yaratilayotgan narsalarning barchasi o'z shakli, kompozitsiyasi, rangi, tuzilishiga ega ekanligi va shuning uchun ular tayyorlagan buyumlar chiroyli yoki xunuk, go'zal yoki ko'rimsiz bo'lishi mumkinligini isbotlab berish kerak. O'quvchi o'z faoliyatining natijasini namoyon etar ekan, uning nafaqat qulayligi, balki u qanday ko'rinishga ega ekanligi haqida ham o'ylashi kerak. Shuning uchun bolani nafaqat sidqidillik bilan ishslash ko'nikmalariga, balki shakl, ranglar hamohangligi, kompozitsiya, mutanosibiliq hissiga ham o'rgatish loyihalashni o'qitishning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Birinchi navbatda bolalar buyumdan foydalanishda uning qulayligida namoyon bo'ladiyan shakl tuzilishi maqsadga muvofiq bo'lishi, oqilona bo'lishi kerakligi haqida muhim fikrni anglab oladilar. Predmet shakli o'zining vazifasiga qanchalik to'liq mos tushsa, qanchalik maqsadga muvofiq yechimga ega bo'lsa, u shunchalik sodda bo'ladi. Shuning uchun sog'lom estetik did shaklning oddiyligini uning go'zalligi ifodasi sifatida baholaydi.

Konstruktiv faoliyat ikki bosqichdan tashkil topadi:

- g'oyaning paydo bo'lish (yaratish) jarayoni;
- uni amalga oshirish jarayoni.

G'oyaning paydo bo'lish jarayonida bo'lajak faoliyat tartibini o'ylab chiqish, yakuniy maqsad – konstruktsiyani tasavvur qilish, ushbu maqsadlarga erishish usullarini tanlash, amaliy ishlar ketma-ketligi, tartibini rejalashtirish lozim bo'ladi. Biroq, g'oyani amalga oshirishga yo'naltirilgan amaliy faoliyat oddiyigina bajarishdan iborat bo'lmay, tafakkur va amaliy harakatlar birilagini o'z ichiga oladi. Shu bilan birga izlanish xususiyatiga ega amaliy harakatlar alohida rol o'yinaydi, ular bolaning tafakkur, keyingi mulohazalari manbai hisoblanadi.

Konstruktiv faoliyat jarayonida bolalarda predmetlarning maqsadga muvofiqligini ko'rish, ularni tahlil qilish va shunday tahlil qilish asosida bir turdag'i predmetlarni solishtirish, ulardag'i umumiylig' va farqni ko'rish, umumlashtirish ko'nikma va malakalari shakllanadi.

Konstruktiv masalalarni hal qilib, bolalar ularning shartlarini tahlil qilishga va mustaqil yechimlarni topishga, konstruktsiyalar g'oyalarni yaratish va unga binoan o'z faoliyatlarini rejalashtirishga o'rganadilar. O'qitish mazmunini tizimlashtirish loyihalashtirilayotgan ob'yeqtzlarning amaliy vazifalariga moslig'i qoidasiga amal qilingan holda loyihalanishi asosida tashkil qilinishi kerak.

Loyihalashga o'rgatish (o'qitish) metodlari.

1. *Bir uslub bilan bajarilgan namunalar seriyasini tahlil qilish.*

Bir xil uslubda bajarilgan perdmelarning taqdim etilishi, ularning umumlashtirilgan tayyorash uslubini aniqlab olishga imkon beradi.

Namunalar seriyasini tahlil qilish bolalarning diqqatini o'quv masalasiga jamlashga ham yordam beradi. O'qituvchi bolalarni xulosa chiqarishga o'rgatishi lozim, ya'ni: asosiysi – «chizmani o'qishga», «chiziqlarni tinglashga» tayyorlashi, o'rgatishi kerak, agarda bu ishlar to'g'ri yo'lga qo'yilsa, unda chizmalar nima qilishni «gapiruvchi»lariga aylanadi, ya'ni kesish, egish va boshqalarni predmetning o'zi o'rgatib boradi.

Namunalar seriyasini tahlil qilib, bolalar oldiga aniq bir buyumni tanlash vaziyati qo'yiladi. Tanlov vaziyati mazmunining yechimini kattalar bolalarga aytmasliklari kerak.

«Uychalar» seriyasida qog'oz varag'ini ikki bo'lakka bo'lish. asosida buyum yasashda bolalarga quyidagi variantlarni taklif etish mumkin:

- bir kattalikdagi (balandligi, kengligi) har bir tomondan bittadan derazalari bilan, ammo turli ranglardagi (bolalar qog'oz rangini tanlashlari kerak bo'ladi) uychalarni tanlash;
- turli rangdagi va turli balandilikdagi uychalarni (bolalar rang va to'g'ri to'rtburchak uzunligini tanlaydilar) tanlash;
- turli balandlikdagi, rangli va kenglikdagi uychalarni (bolalar barcha uch xususiyatlarini hisobga olishga yo'naltiriladilar) tanlash.

Bolalarda turli usullar yordamida buyumlar yaratish tajribasi to'planganida ularga namunalarni yasalishi nuqtai nazaridan ~~tahtil qilish~~ imkonini berish kerak. Masalan, o'qituvchi kub, brus, konus, ikkiga bo'lingan to'g'ri to'rtburchak asosida qog'ozdan hajmli hayvonlar shakllarini yasashni taklif etadi. Bola ishni bajarish uchun u yoki bu usulini tanlaydi. Konstruktsiya asosini yaratishi, umumiylis lubini topishni bilishi, bolaning o'zi o'ylagan aniq bir buyumi uchun rang, kattalik, mumkin bo'lgan detallar, bezaklarni tanlashni bilishi uning mustaqilligini rivojlantiradi. Natijada esa, har bir bolaning ishi individual, takrorlanmas bo'ladi.

Badiiy ijodkorlik mehnatida natija sifati bola uchun befarq emas. Yomon bajarilgan ish uni qoniqtirmaydi.

Ratsional harakatlarni shakllantirishning asosiy metodlari quyidagilar hisoblanadi:

- ko'rsatish;
- tushuntirish.

Ko'rsatish va tushuntirish samarali bo'llishi uchun o'qituvchi:

- ratsional harakatlar algoritmini o'zi aniq tasavvur qilishi;
- harakatlarini anglab yetgan holda va uni mustaqil qo'llash yo'nalishida takomillashtirishni ta'minlashi;
- o'zlashtirgan harakatlarini materialning xususiyatlarini hisobga olib aniq bir buyumdan boshqasiga «ko'chirishga» yordam berishi kerak;
- ko'rsatish va tushuntirish, aniq bir uslublarini tanlashda, harakatlarni o'zlashtirishda bola duch keladigan qiyinchiliklarni

hisobga olishi kerak. Chunki ishni bajarishda bolaning diqqati odatda, uni bajarishga emas, balki harakat natijasiga qaratilgan bo'ladi, harakatlarni ko'rsatishda bolaning e'tiborini natijadan harakatlar usuliga qaratish va qo'l hamda asbob bilan kerakli harakatlarni bajarishga o'rgatish kerak.

Bolalar ko'pincha duch keladigan qiyinchilik – ko'rish nazorati yo'qligi yoki yetarli emasligidan iborat. Bundan tashqari harakatlar sifatini baholashda, ularning xususiyatlarini solishtirishda qiynaladilar, to'g'ri harakatni noto'g'ri harakatdan ajrata olmaydilar.

Ushbu qiyinchiliklarni yengish uchun harakatlar xususiyatlari va ushbu harakatdan olinadigan natija o'tasida o'z vaqtida bo'shlqnani aniqlash hamda harakatlarini o'zi nazorat qilib borishga ko'rsatmalar berish kerak.

2. Oraliq natijalarni tahlil qilish va o'zini nazorat qilishga yo'naltirish.

Oraliq natijalarni tahlil qilish bolaning harakatlar ketma-ketligi tartibiga amal qilish zarurligiga ishonch hosil qilishiga yordam beradi. Oraliq natijalardan o'qituvchi o'quvchilarni o'zini nazorat qilishlariga o'rgatishida foydalanishi mumkin. Bolalar hatto ish bajarish ketma-ketligini aniqlashda ishtirot etgan bo'lsalarda, har doim ham xotiralarida saqlab qola olmaydilar. Taqqoslash harakatlariga o'rgatish zarur: bolaga solishtirib, birinchisidan boshlab o'z faoliyatining har bir oraliq natijalarini taqdim etish taklif etiladi. Bola oraliq natijaga yetib kelganida o'qituvchi keyingisiga e'tiborni qaratadi va unga erishish uchun nima qilish kerakligini belgilaydi.

Asta-sekinlik bilan bevosita kattalar rahbarligi ostida oraliq natijalarni taqqoslash zarurati yo'qoladi, bolalarning o'zları bu ishni mustaqil bajara boshlaylilar.

3. Mukammal bo'Imagan buyumni tahlil qilish.

Unda bolalar yo'l qo'yishlari mumkin bo'lgan xatolar yaqqol ko'rsatilgan. Har bir ishda bolalar yo'l qo'yishlari mumkin bo'lgan xatolarni oldindan bilish va mukammal bo'Imagan buyumni tahlil qilish yordamida o'zini nazorat qilishga ko'rsatma berish imkoniyati mavjud. Bolalarni bir-birlarini nazorat qilishga ham chorlash kerak. Ular o'zlaridagiga qaraganda boshqalarning xatolarini tezroq ko'radilar.

4. Pedagogik baholash yoki faoliyat natijalarini tahlil qilish.

Bolalar yasagan buyumlar albatta badiiy-konstrukturlik yechim nuqtai nazaridan baholanishi, ularning ifodaliligi, o'ziga xosligi qayd etilishi kerak. Baholashda quyidagi talablarga amal qilish juda muhim:

- faqat bolaning o'z harakatlari bilan erishgan natijasi baholanadi;
- bolaning rivojlanib borishi bilan baho yanada aniqlashib, differensiallashib boradi;
- faoliyat natijalarini boshqa bolalar yutuqlari bilan solishtirish mumkin emas, bolaning o'zining natijalarini baholash kerak;
- baholashda bolalarning maksimal darajada faolliklariga erishish lozim.

5. O'yin usullari.

Konstruktiv masalalarni hal qilishda o'yin usullaridan bolalarni mashq qildirish uchun foydalilanladi. Yakuniy natijada xatolar iloji boricha kam bo'lishi uchun mashg'ulotlarda ish bajarish davomida ishtirot etayotgan personajlar bolalarni e'tiborsiz qoldirmaydilar va o'z takliflarini kiritadilar, o'z harakatlarini nazorat qilish va ishni tuzatib borishga yordam beruvchi savollar beradilar, g'oyani aniqlashtiradilar, boyitadilar.

Bolalar ertak qahramoni fikrlarini pedagog mulohazalariga qaraganda oson va to'g'ri qabul qiladilar. Agar ish bajarish davomida bolalar o'z xatolarini tuzatsalar yakuniy natija ancha yuqori bo'ladi va bu ularni quvontiradi, o'z imkoniyatlariga ishonch uyg'otadi.

Mahsulotni tayyorlash bosqichlariga to'xtalib o'tamiz.

Buyumni (mahsulotni) tayyorlash jarayonini 4 bosqichga ajratish maqsadga muvofiq:

1. Mehnatni rejalashtirish. Bunday rejalashtirishda 3 ta vaziyat ko'rsatiladi:

- namunani tahlil qilish;
- operatsiyalar ketma-ketligini aniqlash;
- muammoni hal qilish variantlarini izlash.

Namunani tahlil qilishda batafsil to'xtalib o'tamiz.

Har bir mehnat ob'yekti ikki qismda tahlil qilib chiqilishi kerak:

- ob'yektni mustaqil idrok etish va afzalliklarini aniqlash;

- idrok etish jarayoniga pedagogik rahbarlik qilish.

Bolalarning ob'yeckni mustaqil idrok etishlari vaqtida o'qituvchi tomonidan savollar berilmaydi, bolalar o'z taassurotlarini aytib beradilar. Shundan so'ng o'qituvchi buyumni ko'zdan kechirib, maqsadli ko'rsatma beradi, savolga javob berishlarini so'raydi: «Predmet yoqdimi? Uning go'zalligi nimadan iborat?»

Buyum namunasini tahlil qilishda, uning estetik belgilarini aniqlash va idrok etish bo'yicha quyidagi yo'naltiruvchi savollar taklif etiladi:

- predmetning umumiyligi tuzilishi qaysi geometrik shaklni eslatadi?

- go'zallik nuqtai nazaridan shaklni qanday ta'riflash mumkin, u qanday va qanday xususiyatlarga ega?

- buyumni tayyorlashda qanday materialdan foydalanilgan? Nima uchun?

- u predmetning go'zalligini ifoda etishga yordam beradimi?

- material tuzilishi, ifodaliligi to'g'risida nima deyish mumkin?

- go'zallik nuqtai nazaridan rang tuslarini aniqlang. Predmet shakliga u qanday ta'sir ko'rsatadi? Shaki go'zalligini aniqlashga yordam beradimi?

- predmetning konstruktiv tuzilishini aniqlang. U qanday detallardan tashkil topgan? Konstruktsiyaning asosiy va ikkinchi darajali detallarini aytib bering. Detallar o'zaro mos bog'liqlikka egami?

- ushbu predmetda turli shakllarning yaxlitligi qanday hissiyot uyg'otadi?

Bolalarni ob'yeckni yaxlit va qismlari bo'yicha ko'rishga o'r-gatish kerak. Ushbu yoshdag'i bolalarning diqqatlari barqaror bo'lmay, ular bir necha predmetni yaxlitlikda ko'rishni bilmaydilar.

Ular ko'pincha bir predmetni qo'llariga oladilar va astasekin unga boshqalarini biriktiradilar. Shuning uchun ularni bir necha predmetlarni kompleks ko'rishga o'r-gatish, chiroyli birlikni, yaxlitlik zarurligini ko'rsatish juda muhim. Ushbu maqsadda, misol uchun, ranglar uyg'unligi yechimi ham va turli predmetlarning joylashishi nisbatlari ham hisobga olingan xona jihozlari tushirilgan suratdan foydalananish mumkin.

Shu turdag'i mashqlar bir necha predmetni yaxlitlikda ko'rish, ushbu go'zallikni yaxlit his qilishga o'rgatadi.

Faqat biror-bir buyumni tayyorlashni maqsad qilib qo'yish mumkin emas (odatda amaliyotda shunday bo'lib chiqadi), bolalar materiallar va ularning xususiyatlari, ranglari va shakli haqida bilim olishlari kerak, buyum esa bilimlarni mustah-kamplash uchun mashq bo'lishi kerak.

Bu *psixologlarning* quyidagi ta'limgotlari bilan tasdiqlanadi:

- ta'lim jarayonida kichik maktab yoshidagi bolalarni rivojlantirishni belgilovchi tomoni, ularning bilimlarini va faoliyat turlarini murakkablashtirib borishni taqozo qiladi;

- ta'lim va tarbiya davomida bolalarning borgan sari turli xildagi harakatlarni bajarish usullari, malakalari oshib boradi va o'zgarishlar sodir bo'ladi.

Ko'rsatib o'tilgan sharoitlar mehnat ta'limi darslarini tashkil etish va o'tkazishga pedagogik shartlarni ham qo'yadi:

- darslarga muntazam ravishda badiiy loyihalash elementlarini kiritish;

- dars jarayonida muammoli vaziyatlarni yaratish;

- ijodkorlik elementlarini kiritish.

Bolalarning mehnat harakatlarini rejalashtirish muhim rol o'ynaydi, chunki rejalashtirish jarayonining o'zi estetik ifodali, u o'z mehnat harakatlari, mehnatni tashkil qilishga qodir insonning ijodkorligini namoyon etishining yorqin ifodasi hisoblanadi. Bundan tashqari rejalashtirish bolalarning jamoali mehnatini tashkil qilish, individual mehnat harakatlarining go'zalligiga erishishlariga faol yordam beradi.

2. Chizmani tahlii qilish, belgilarni aniqlash.

Chizmada (bu haqida bolalarga eslatib o'tish kerak) predmet shakli va go'zalligi ifodalangan.

Chizma-belgilashni bajarishda asosiy vazifa sifatida bolalar oldiga chizmaning aniqligini ta'minlash masalasini qo'yish kerak, chunki predmetning asosiy go'zalligi, shaklining go'zalligida berilgan.

Chizmaning aniq bajarilishiga faqat tasvirni to'g'ri tushunish bilan emas, balki ishni tartib bilan bajarish, chizmachilik asboblaridan to'g'ri foydalanish bilan ham

erishiladi. Chizmani tahlil qilishda, bizning fikrimizcha, uchta holatga e'tibor qaratish lozim:

- buyumning asosiy detallariga;
- faoliyat (mehnat) operatsiyalariga;
- chizmani bajarish texnikasiga.

3. Materialga ishlov berish, montaj, yig'ish.

Xususiyatlarini bilmasdan turib materialga mohirona, nafis ishlov berishni ta'minlash mumkin emas. Shuning uchun materialning xususiyatlari bilan tanishtirish uchun keraklicha vaqt va joy ajratish kerak. Shundan so'ng kesish operatsiyalarini amalga oshirish malakalarini, egib ishlov berish, asta-sekin egish chiziqlari, tekis o'tish chiziqlariga ishlov berish ko'nikmalarini shakllantirish kerak. Bundan keyin, yig'ish paytida bolalarga buyum shakli xususiyatlarini his etish, estetik didni faol namoyon etishga o'rgatish zarur.

2.2. Texnik estetikasining nazariy qoidalari

Dizayn nazariyasini «texnik estetika» nomini olgan, u sanatni va iste'mol qilishni rivojlantirish ijtimoiy, iqtisodiy va ergonomik masalalari, buyumning shakl hosil qilishi qonuniyatlar; rassom-konstrukturlar ijodiy mehnatlari tamoyillari va metodlari bilan bog'liq bo'lgan muammolar keng doirasini qamrab oladi.

Estetik ifodalilikka atayin emas, balki konstrukturlik g'oya-sini izchillik bilan amalga oshirish natijasi sifatida erishish kerak; uni amalga oshirar ekan loyihami predmet shakli maqsadga muvofiqligiga: tartiblilik, proporsionallik, chiziqlar, hajmi va rang elementlarining uyg'unligi va shu kabilar orqali erishadi.

Buyumning estetik mukammalligi, uning shakl mazmun-dorligini talab qiladi. Buyumning shakliga qarab, uning konstrukturlik asosini aniqlash mumkin. Buyumning mazmunli ifodalani-shini, uning tayyorlangan materialining texnologik va dekorativ xususiyatlari orqali bilib olish mumkin. Yuzasi, tuzilishi xususiyatlari, konfiguratsiyasi, rangi, mahkamlash usuli buyumning afzalliklarini ko'rsatib turishi kerak.

Buyumning shakli, uning mazmuniga mosligiga unga mos keluvchi kompozitsiya tanlash orqali erishish mumkin. Kompozitsiya buyumning shakli va mazmuni elementlarining

tashkiliy bog'liqligini aks ettiruvchi, asosiy elementlari, qismlarining ma'lum tartibda va ketma-ketlikda joylashvuini ko'rsatuvchi estetik ifodasi hisoblanadi.

Shunday qilib, shaklning badiiy yechimi badiiy loyihalashning asosiy vazifasi hisoblanadi. Dizaynda shakl buyumning tashqi mazmuni va vazifasidan kelib chiqqan holda uning tashqi ko'rinishi (stayling) ifodasi sifatida tushunilishi mumkin.

Shakl – moddiy tushuncha. Materiya qator xususiyatlari bilan xarakterlanadi: hajmliligi, fazoda joylashishi va harakatlanishi xususiyatlari, geometrik tuzilishi, og'irligi, zichligi, mustahkamligi...

Materiyaning xususiyatlardan kelib chiqib buyum o'zining tuzilishi va shaklda kompozitsion qonuniyatlarga ega bo'ladi.

Kompozitsiya – barcha elementlarning o'zaro bog'liqligida va mos yaxlitlikda bo'lgan yaxlit asarni yaratishdir.

Kompozitsyaning muhim shakl hosil qiluvchi kategoriylari (vositalari) quyidagilar hisoblanadi:

- hajmli fazoviy tuzilishi va tektonikasi;
- mashtabi;
- nisbatlari;
- ritmi va metri;
- kontrast va nyuansi;
- simmetriya va asimetriyasi;
- koloriti.

Hajmli-fazoviy tuzilish – o'zining ichki tuzilishi va tashqi joylashishi bilan predmet shaklining estetik mazmunli o'zaro bog'liqligi.

Tektonika – moddiy shaklning keskinlik darajasining badiiy-mazmunli ifodasi.

Metr – bir tekis harakatlar, bir xildagi elementlarning navbat bilan joylashuvi natijasi hisoblanuvchi shakl tuzilishi.

Ritm – harakatning bir tekis tezlashishi yoki sekinlashishi, elementlarning navbatma-navbatliliginin hisoblanuvchi shakl tuzilishi. Ritm kompozitsyaning xususiyati sifatida psixologik idrok etish xususiyatlari bilan bog'liq.

Tanlangan ritmga binoan predmetdan yo'naltiruvchi harakat sifatida uning elementlari, hajmi, ranglar tuslarining to'g'ri tartibliligi to'g'risida ma'lum taassurot olish mumkin.

Kolorit – predmetning aks ettirilayotgan yoki o'rganilayotgan spektriga binoan uning u yoki bu ko'rish hissini keltirib chiqarish xususiyati.

Kontrast – yorqin ifodali qarama-qarshi qo'yilgan shakllar. Kontrast hosil qilish uchun ranglardan ayniqsa ko'p foydalaniladi. Nyuans kontrastning bir turi hisoblanadi. Bir xillikka yo'l qo'ymaslik uchun buyumni individuallashtirish maqsadida konstruktsiyaning alohida qismlarini (detallarini) ajratib ko'rsatish uchun ko'pincha nyuansdan foydalaniladi.

Nyuans – o'xshashligi bo'yicha bir-biriga yaqin shakllar elementlari nisbatlari.

Shunday qilib, uyg'unlik va yaxlitlikka shakli, rangi, tuzilishi, teksturasi, proporsionalligi, masshtablligi, nyuansi va kontrast vositasida erishiladi.

Kompozitsiyalar qurish tamoyillarida to'xtalib o'tamiz:

1. Kompozitsiyaning mos elementlarini tanlash:

- bir xildagi belgilari bo'yicha birlashtirish: shakli, rangi, teksturasi, tuzilishi;

- kompozitsiyada ko'rsatish kerak bo'lgan eng muhim bir xillikni aniqlash;

- kompozitsiyada keskinlikni yaratuvchi kontrastni unga kiritish.

2. Materiya, detallar, rangda, shaklda chegaralashlar qonuniga (elementlar uchtdan ko'p bo'lmasligi) amal qilish.

3. Jonli kompozitsiya asosi – teng tomonli bo'lмаган uchburchak. Statik kompozitsiya asosi - simmetriya.

4. Tanlangan material aralash to'plamga emas, balki 2-3 elementlarni birlashtirilganligini hisobga olib elementlarni guruhlarga ajratish.

5. Zich joylashganda kompozitsiyaning alohida qismlari go'zalligi yo'qolmasligi uchun guruhlar orasida erkin oraliqni ta'minlash.

6. Guruhlar o'rtasidagi bir-biriga bog'liqligini ta'kidlash.

7. Ritm, chiziqlar, plastika hamda elementlarning boshqa elementlarga va tomoshabinga nisbatan yarim burilishda joylashganida guruhlar o'rtasidagi va ularning ichida o'zaro bog'liqlik.

8. Hajmlilik, stereoskopiyalik, manzaralilikka – rang, kattaligi, shakllar dinamikasi yordamida erishiladi.

9. Katta, og'ir, qora shakllarni kichik, yengil, yorqin shakllarga nisbatan to'g'ri joylashtirish yo'li bilan optik muvozanatga amal qilish. Predmetlar tabiiy holati hamda bo'yli, harakati, rivojlanishiga amal qilish.

Tajriba – ijodkorlikda muvaffaqiyat garovi.

Uyg'unlikka ega shakl tavsiflarini ko'rib chiqamiz:

1. Tashqi tuzilishining tabiiyligi va yaxlitligi. Tabiiylik yaratilgan buyumning yagona yaxlit sifatida idrok etilishi, uning barcha qismlari esa ushbu yaxlitga tabiiy birlashishi mazmunida tushuniladi. Yaxlitlik, u tabiiy yaratilgan, idrok etilishi bilan, ya'ni qandaydir geometrik shaklni eslatishi bilan belgilanadi.

2. Proportsionallik va ritm. Badiiy loyihalashda proportsionallik – yaxlitning barcha qismlari va detallarini ma'lum proportsional tartibli tuzilishga keltirish. Ritm – ma'lum sonli elementlarning ketma-ketligi.

3. Masshtablilik. Ushbu xususiyat predmet o'lchami va bu o'lchamni bizning tasavvurimiz bilan solishtirishga asoslangan xususiyati. Qismning yaxlitga kontrast nisbati masshtablilik belgisi hisoblanadi. Bizning tasavvurimizga mos keladigan va predmetning inson bilan yoki uning atrofi bilan nisbatlarini buzmaydigan o'lchamni tanlash bilan to'g'ri masshtablilikka erishiladi.

4. Mutanosiblik (Plastiklik). Bu shaklning predmet tashqi qiyofasi haqida fikr yuritish mumkin bo'lgan xususiyati. Burchaksimon va yumaloq shakllari mavjud. Tekis shakllar bilan cheklangan hajm burchaksimon shaklni hosil qiladi. Agar hajm qiya yuzaliklar bilan chegaralangan bo'lsa, unda shakl dumaloq bo'ladi. Ko'pincha bir predmetda dumaloq va burchaksimon shakllar uchraydi.

5. Dinamiklik va statiklik. Agar shaklning tashqi tuzilishi harakatlanish hissini uyg'otsa dinamik va ko'rinishi tinch holat hissini uyg'otsa statik shakl hisoblanadi.

6. Yengillik va masshtablilik. Shaklning tashqi ko'rinishi yengillik, havo hissini uyg'otsa yengil va uning tashqi ko'rinishida og'irlilikni his qilsak, og'ir, katta hisoblanadi.

Kompozitsiyani yaratishda geometrik shakl xususiyatlarini ham hisobga olish kerak:

1. Simmetriklik va asimmetriklik. Agar tekislik to'g'ri chiziq yoki nuqtaga nisbatan xayolan egilganda shakllar qismlari mos kelsa shakl simmetrik hisoblanadi. Fazoda ham simmetriya mavjud. U yoki shaklning ikkala qismlari o'ttadan kesuvchi tekislikka nisbatan go'yo aksi holatida joylashgandek bo'lsa aksi; yoki aylanish perpendikulyar o'qi, kesuvchi tekislik chegarasida yotgan nuqtalar aylanish o'qidan teng masofada yotsa o'qli deb ataladi. Yuqorida ko'rsatilgan xususiyatlarga ega bo'limgan shakllar asimetrik shakllar deb ataladi.

2. Shakllarning nisbatlari. Har qanday predmet o'lchamga ega, unga qarab haqiqiy kattaligini tasavvur qilishimiz mumkin. Predmetning o'lchamlari ma'lum nisbatlarda o'zaro bog'liq bo'ladi. Ushbu nisbatlar insonda ijobiy yoki salbiy munosabat uyg'otishi mumkin.

3. Hajmli-fazoviy tuzilish. Har bir predmet fazoda uchta o'lchamga ega: uzunlik, kenglik, balandlik. Biz ularni his qilamiz: agar uzunligi va balandligi kengligidan ancha katta bo'lsa, unda bunday shakl tuzilishi frontal, shakllar esa – tekis deb ataladi. Agar predmetning barcha o'lchamlari teng bo'lsa, unda shaklning bunday tuzilishini fazoviy, shakllar – hajmli deb ataladi.

Tajriba faoliyatimizning asosiy maqsadi oddiy shakllar estetikasini kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning ijodiy fikrlashlariga muvofiqligini tahlil qilish bo'lganligi sababli, shakl va rangni idrok etishning fazoviy xususiyatlarini ko'rib chiqish zarur.

Predmet shaklini tahlil qilishda idrok etishga dastlabki jarayonlari amaliy va ijrochilik harakatlari bilan uzviy bog'liq bo'lgan yo'naltiruvchi harakatlar sifatida qaraladi. Keyinchalik, rivojlanish jarayonida ular ijrochilik faoliyatidan borgan sari ajralib boradi va nisbatan mustaqil yo'naltirilgan-tadqiqotchilik faoliyatiga aylanadi, uning yordamida tadqiqot ob'yekti bilan dastlabki tanishish amalga oshiriladi va u bilan amaliy harakatlarga tayyorgarlik ko'rildi.

Bola asosiy ranglarni va shakllarni ajratishga qodir.

Kichik maktab yoshidagi bola uchun rang, shakl, kattalik predmetlardan alohida mavjud bo'lmaydi.

Maktabgacha katta yoshdagи va kichik mакtab yoshidagi o'quvchilar predmetlarda rang, shaklni oson ajrata oladilar, «yoqadi - yoqmaydi» tamoyili bo'yicha turlarga ajratishga qodirlar.

Shunday qilib, bu yosh rang hissini tarbiyalash va rivojlantirish uchun senzitiv hisoblanadi.

Kompozitsiyani yaratishda rang muhim rol o'ynaydi.

Rang – ma'lum uzunlikdagi nur to'lqinlarini saralab qaytarish (o'tkazish) qobiliyati bilan bog'liq va ma'lum ko'rish hissi sifatida qabul qilinadigan ob'yeqtar materiallari xususiyatlarini ko'z bilan baholash. Rang – shaklning muhim sifati, uning emotsiunal-psixologik tili sanaladi.

Shaklning rang xususiyatidan foydalanishda, uning faqat ko'rinishli o'zgarishlari haqida bilish foydalidir. Masalan, sariq rang go'yo yuzani ko'targandek tuyuladi. U hatto narsalarni yanada kengroq ko'rsatadi. Oq va sariq ranglar ular bilan yaqin joylashgan to'q ranglarga tarqalish holatini yuzaga keltiradi va ushbu ranglarga bo'yalgan yuzalarni kichiklashtirib ko'rsatadi. Qizil rang kunduzgi yorug'likda bizga yaqinlashadi, oldinga chiqadi. Xira yoritilganda u fon bo'lib xizmat qiladi va chuqurlik hissini beradi. Havo rang go'yo bizdan uzoqlashadi. Xira yorug'likda aksincha, oldingi ko'rinishga chiqadi.

To'q ko'k, siyoh rang va qora ranglarga bo'yalgan tekisliklar ko'zga kichiklashib ko'rinati va pastga yo'naladi. Yashil rang barcha ranglar orasida eng tinch, sokin hisoblanadi.

Kalorimetriya va rangshunoslikda «kontrast» tushunchasi mavjud.

To'q va sovuq ranglar o'tasida kontrastlar keng tarqalgan.

Sariq, olov rang va qizil ranglarni barcha to'q rang kabi his qiladi. Siyoh rang, ko'k va yashil ranglar sovuq rang kabi his qilinadi. Sovuq ranglar qutbi ko'k yashil ranglar doirasida, to'q ranglar qutbi esa – olov ranglar doirasida joylashgan.

Iliq va sovuq ranglarning kontrastligi nisbiy hisoblanadi. Qizg'ish-ko'k rang yashil-ko'k rangga nisbatan iliqroq tuyuladi. Yashil rang ko'k-siyoh rangga nisbatan iliq ko'rinishi va qizil rangga nisbatan sovuq tuyulishi mumkin.

Shaklni takomillashtirish va kayfiyatni o'zgartirish uchun foydalanishi mumkin bo'lgan ranglar boshqa juftliklari ham mavjud. «Baland-tinch». Yorqin ifodali to'q ranglar «baland»

taassurotini uyg'otadi, «quruq-nam» tinch, xotirjam, yumshatuvchi kabi tuyuladi. Barcha to'q tuslar quruq tuyuladi. Sariq rang oxra kuyganga o'xshaydi. Ko'k-yashil rang eriyotgan muz kabi namlik taassurotini uyg'otadi.

«Tarqaluvchi-jamlanuvchi» Iliq, ayniqsa, sariq ranglar nurlanuvchi, tarqaluvchi hisoblanadi. Ko'k aksincha zich, jamlangan tuyuladi. Biroq to'q-qizil va och-havo rang fonda rang nurlanuvchidek tuyuladi.

«Yengil-og'ir». Barcha och ranglar yengil, barcha to'q ranglar – og'ir tuyuladi. Bir xildagi yorqinlikdagi ranglar orasida qizg'ish rang ancha og'ir, ko'k rangga yaqinlari yengil tuyuladi. To'q to'yingan sariq rang go'yo ko'tarayotgandek bo'ladi, u yuqoriga intiladi; bu ayniqsa sariq fonda kuchli seziladi.

Havo rang ham yengil va parvoz qiluvchi, «statik-dinamik». Bir-birlarini to'la muvozanatlashtiruvchi ikki rang birligini statik deb atash mumkin (misol uchun, sariq va siyoh rang-ko'k). Yashil va to'q qizil ranglar birligi ayniqsa statik ko'rindi. Qizil va ko'k yoki olov rangning yashil bilan birligi dinamik bo'ladi.

«Qo'zg'atuvchi va tinchlantiruvchi». Yashildan sariqqa yoki qizildan sariqqa ranglar qatori tinchlantiruvchi hususiyatga ega. Sariqdan qizilga yoki sariqdan yashilga ranglar qatori qo'zg'atuvchi bo'ladi.

Kompozitsiyani yaratishda uning qonuniyatlarini hisobga olish kerak. Tadqiqotimizning nazariy qismida kompozitsiya, libos rangi yechimi haqidagi masalani ko'rib chiqish kerak, chunki amaliy qismida biz ushbu materialdan foydalanamiz.

2.3. Tashqi ko'rinish estetikasi

Kiyimlar «ansamblini» tashkil qilishi kerak, ansambl fransuz tilida uzviy bog'liqlik, ajralmaslik, butunlikni anglatadi. Kostyum ansambl uning elementlarining qattiq bir-biriga bo'y sunishi va predmetli muhit, inter'yer bilan uzviy bog'liqligi hisobiga hosil bo'ladi. Inson obrazini aks ettirish xususiyatiga ega.

Kostyum ansambl yagona badiiy g'oya asosida yaratiladi, unda barcha detallar o'zaro moslashtiriladi va yagona yaxlitga bo'y suntiladi. U aniq bir inson obrazini ochib beradi. Ansambl

yaratish asosini yaxlit predmetli muhit uchun xos bo'lgan kompozitsion vositalar biriligidagi uyg'unlikning ma'lum tamoyillari tashkil qiladi.

Kiyim ansamblini yaratishda shakl nuqtai nazaridan o'xshashlik va qarama-qarshilik tamoyillaridan foydalanish mumkin. Bu kiyimning har bir qismi bir geometrik shakl (o'xshashlik tamoyili) bilan ifoda etilishi yoki kiyim elementlarining bir-biriga qarama-qarshi qo'yilishi (kontrastlik tamoyili) mumkinligini anglatadi, ammo har qanday holatda ham ansamblning yaxlitligi taassuroti saqlab qolinishi kerak.

Odatda kostyuming ko'rinishi yoki psixologik roli ansamblning muhim qismi, asosi hisoblanadi.

Kostyum elementlarining o'zaro bog'liqligi, ularning uslubi, konstruktsiyasi, rang umumiyligi, funktsional vazifasi va ma'lum talablari bilan belgilanadi.

Ko'p qatlamlilik va ko'p qismlilik, o'zaro bog'liqlik mustah-kam tizim va uning barcha qismlarining bir vaqtda foydalanilishi majburiyigligi ansambl uchun xos xususiyat hisoblanadi.

Ansambl bosh kiyimi bilan yakunlanadi. U kostyuming boshqa qismlariga qaraganda insonning individualligini yaqqol namoyon etadi.

Bosh kiyim shakli kostyum tuzilishi bilan mos bo'lishi hamda yuz tuzilishi, og'iz, daxan, yonoqlar, yelka tuzilishiga mos kelishi kerak.

Agar bosh kiyim yonga, to'g'ri yoki orqaga kiyilsa, uning kattaligi va turishi kostyum bilan mosligi o'zgaradi.

Tsilindr ko'rinishidagi shlyapaning aniq vertikal va gorizontal chiziqlari tashqi ko'rinishga jiddiylik, tartiblilik beradi; shlyapa ko'tarib kiyilsa yoshartiradi, pastga tushirilsa sirlilik hissini beradi.

Biz tashqi ko'rinish estetikasi qonuniyatlariga – kostyum kompozitsiyasiga yetib keldik.

«Kompozitsiya» so'zi «mos ravishda birlashtirishni» anglatadi. Kostyumga nisbatan bu uyg'unlikdagi obrazni yaratish uchun barcha elementlarini yagona birlikka to'g'ri moslashtirishni bilishni anglatadi.

Ba'zi qonuniyatlariga muvofiq ravishda tanlangan yaxlit olingan shakl, material, rang kostyuming umumiy ko'rksamligi

bog'liq bo'ladijan elementlari bo'lib hisoblanadi. Kiyim qulay, amaliy, chirolyi hamda u ikki vazifani bajarishi: estetik va amaliy bo'lishi kerak. Umumiy shakli va alohida qismlari xususiyatlari o'rtasidagi aniq o'zaro bog'liqlik kostyum kompozitsiyasining qonuniyatlaridan biri hisoblanadi. Kostyum shakli deganda, uning elementlari, inson tana tuzilishi va muhit o'rtasidagi ko'p pog'onali tuzilishga ega fazoviy-davrli dinamik modelni tushunish kerak.

Kostyum shaklining barcha elementlari umumiyl xususiyatlarga ega bo'lishi kerak: asosiy shakldagi chiziqlarni takrorlashi kerak. Shaklning tuzilishi aniq ko'ringanda, alohida qismlarining proporsional nisbatlari aniq, detallari tuzilishi ritmik, ranglar uyg'unligi bo'lganida u ifodali bo'ladi.

Siluet shaklni eng yaxshi ifoda etadi. Siluetlarning tanaga yopishib turishi darajasi bo'yicha (yopishib turuvchi, yarim yopishib turishi, erkin, kengaytirilgan yoki past qismi toraytirilgan) va geometrik ko'rinishi bo'yicha (to'g'ri, trapetsiya ko'rinishida, oval tuzilishida, x-ko'rinishdagi) farq qiladi.

Shakllarning barcha turli-tumanliklarini trapetsiya, to'g'ri burchak, ovaldan birgalikda foydalanib ifoda etish mumkin. Ansamblda odatda bir shakl ustunlik qiladi, kostyuminning barcha boshqa qismlari unga bo'ysunadi. Kostyuminning go'yo umumlashtirilgan geometrik ramzi ishlab chiqiladi. Shaklning barcha qismlari bir-biriga o'zaro bo'ysunadi. Shu bilan birga shakllarning ajralishi qismlar chegarasi hisoblanadi. Plastika (mutanosiblik) va ritmika shaklni tashkil qilishga yordam beradi.

Plastika – shaklning bir qismidan asta boshqa qismiga o'tish. Kostyum plastikasi mato yordamida aniqlanadi: taxi, burmalari yo'nalishi, konstruktiv va dekorativ chiziqlari shakl «harakatini» hosil qiladi.

Chiziqlar shaklni tashkil qilishda katta rol o'ynaydi. Har qanday kostyumni yaratishda rassom-loyihachi turli chiziqlardan foydalanadi.

Gorizontal chiziqlar mahsulot kengligi haqida tasavvur hosil qiladi, ular to'lalik, xotirjamlik, barqarorlik hissini uyg'otadi. Vertikal chiziqlar mahsulot uzunligi haqida tasavvur, mustahkamligi, puxtaligi taassurotini yaratadi. Bunday chiziqlar kishi bo'yini namoyon etadi, ulug'vorlik ko'rinishini beradi.

Qiya chiziqlar harakatga e'tiborni qaratadi. To'g'ri chiziqlar va doimiy egrilik radiusiga ega chiziqlar statiklik, xotirjamlik, vazminlik hissini uyg'otadi, o'zgaruvchan egrilik radiusiga ega chiziqlar o'zgaruvchanlik, dinamika, xavotirlik, bashanglik hissini uyg'otadi.

Har bir kostyum ritmik yechimga ham ega bo'ladi. Ritmnning eng oddiy ko'rinishi – teng oraliqlardan keyin bir elementning takrorlanishidan iborat. Ritm asosini proporsional nisbatlar tashkil qiladi, shuning uchun ritmdan me'yorida foydalanish kerak, aks holda bir xillilik va monotonlilik hissi paydo bo'ladi.

Kostumda turli elementlarni ritmik tashkil qilish yaxlit obrazni yaratish uchun muhim vosita hisoblanadi.

Ritm va plastika tamoyili bo'yicha kostum obrazini yaratish asosiy, proporsionallik qonuniyatiga bo'ysunadi. Kiyim shakliga umumiylar qaralganda uning bir qismi boshqalari bilan solishtiriladi. Solishtirish o'xshatish va proporsional bo'lishi mumkin. Ammo har qanday holda ham bir-biriga mosligi, muvofiqligi hissi bo'lishi kerak.

O'xshatib solishtirishda maydoni, chiziqlari, ranglari to'liq o'xshashligi sodir bo'ladi, shu bilan birga elementlarning ko'p martalab takrorlanishi toliqtiradi. Qarama-qarshi nisbatlari chiziqlari, maydonidagi kichik farqlarda namoyon bo'ladi.

Shakl simmetriya va asimmetriya tamoyili bo'yicha kompozitsion hal qilinishi mumkin.

Simmetriya xususiyatlarini aniqlashda kompozitsion markaz kiyimning yuqori qismida joylashishini yoddan chiqarmaslik kerak. Bashang kiyimni yaratishda asimmetriyadan foydalaniladi. Asimetrik yechim me'yor hissiga amal qilinib, vazminli bo'lishi kerak.

Mahsulot shakli xususiyati materialga, ushbu holatda – matoga bog'liq bo'ladi. U o'zining xususiyatlari hisobiga mahsulot yengilligini, yumshoqligi yoki qattiqligini, uning konstruktiv yechimini belgilab beradi.

Matoda materialning fakturasi, ya'ni uning yuzasi muhim rol o'ynaydi. Turli fakturali materiallardan foydalanilganda kiyimda bir xildagi ranglar ko'zga turlicha ko'rindi.

Faktura – material tuzilishini ifoda etuvchi xususiyati. Fakturani aniqlash yuzaning qanday yoritilganligiga bog'liq bo'ladi. Tukli material yuzasida rang ancha so'nadi va yaltiroq yuzalarda kuchayadi.

Tabiiy materiallarning har biri o'z tuzilishiga ega: jun – yumshoq, paxta – xiraligi, shoyi – yaltiroqlikka ega. Har bir fakturada ma'lum obraz belgilari ifodasi mavjud.

Chirolyi yaltiroq tekis materiallar ko'r kam ko'yaklar uchun foydalaniladi, guldor, rang-barang matolardan kundalik kiyim uchun foydalanish tavsiya etiladi. Bir xil mahsulotda turli fakturaga ega matolardan foydalanish yaxshi natija beradi: yengil va og'ir, tukli va tekis, xira va yaltiroq.

Material fakturasi shakl elementlari proporsional nisbatlariga ham ta'sir ko'rsatadi. Katta naqsh yuza kattaligini kichiklashtiradi, kichik gullar esa - kattalashtiradi.

Naqshlari bo'yicha murakkab yuzani tenglashtirish kerak: yorqin ifodalangan fakturali kichik bir qism tekis yuzali katta qismda yaxshi ko'rindi.

Materialni tanlashda uning og'irligini ham hisobga olish zarur. Masalan, og'ir, xira, tukli materiallar shakini kattalashtirib ko'rsatadi. Har bir mato mahsulot shakliga ta'sir ko'rsatuvchi tuzilishga ega. «Quruq» deb ataluvchi matolar aniq tuzilishli barqaror shakllarni, baxmal kabi yumshoq matolar bo'sh, sirpanuvchan shaklini yaratishi mumkin.

Yupqa, shaffof, ammo turli plastik xususiyatlarga ega matolar mavjud: kapron turtilib chiqqan, qattiq taxlar yaratadi, shifon – yumshoq, gavda harakatlanganda o'zgaruvchan bo'ladi. Rangli yechim ham kostyum kompozitsiyasida katta rol o'ynaydi.

O'zining rang tusida bitta umumiylasosiy rangga ega ranglar o'xshash hisoblanadi (qizil, sariq yoki ko'k). O'xshash ranglar xotirjamlik, qoniqish hissini yaratadi. Kontrast ranglar mavjudligi dinamikani ko'rsatadi.

Ranglar mos juftligi o'xshashlik tamoyili bo'yicha (o'xshash ranglar), yoki qarama-qarshilik tamoyili bo'yicha tanlab olinadi. Noto'g'ri tanlangan o'xshash va kontrast ranglar bir-birlarini «o'ldiradilar».

Qizil rangli ko'y lakdagi oq rangli detallar yashilroq tus oladi.

Yorqin fonda barcha ranglar xiralashishini, qorong'ida – yorqinlashishini yodda tutish kerak. Shu bilan birga detal maydoni qanchalik kichik bo'lsa, qo'shni rang unga shunchalik katta ta'sir ko'rsatadi. O'xshash ranglar birining fonida ikkinchisi xiralashadi.

To'g'ri tanlov kostyumning funktional vazifasiga ham bog'liq bo'ladi.

Rang shaklga ta'sir ko'rsatadi. Agar kostyum shakli lo'nda, aniq ifodali yuzalar yechimiga ega bo'lsa, unda kostyumda to'q-ko'k ranglardan foydalaniyganda qayg'uli, ma'yus tuyulmaydi.

Kostyum shaklida to'q-ko'k rangli matodan bir xildagi katta taxlar bo'lsa, u qora ko'rindi. Boshqa yorqin tuslarda shu shaklning o'zi boshqacha ko'rindi.

Yorqin, tiniq tuslar oddiy shaklga yaxshi mos keladi, murakkab shakllar uchun esa tekis, yumshoq ranglardan foydalangan yaxshi.

Rangning vazminligiga uch usul bilan erishish mumkin:

- asosiy ranglarning teng soni bilan;
- teng yorqinligi;
- teng to'yinganligi.

Rang yechimi emotsional kayfiyat beradi, bu predmetlarni idrok etishda juda kuchli omil. Kostyum rangi ma'lum kayfiyatni keltirib chiqarishga yordam berishi mumkin va quvonch, qayg'u, olivjanoblik, jiddiylik, yoshlik va shu kabi tushunchalar bilan bog'lanadi.

Rang insonda ma'lum his-tuyg'ular keltirib chiqaradi.

Mehnat ta'limi darslarida o'quvchilarni estetik tarbiyalashda ishtiroy etuvchi dizaynerlik bilimlaridan foydalaniлади.

2.4. O'quvchilarda dizayn ijodkorligi xususiyatini rivojlantirish muammosi

Dizayn – yigirmanchi asr hodisasiadir, uning amal qilish muhitini borgan sari kengayib bormoqda. Mashinasozlik, keng iste'mol mollarini ishlab chiqarish kabi dizaynning an'anaviy

sohalari ekologik dizayn, binolar supergrafikasi bilan to'lib bormoqda, bugungi kunda boshqa ob'yektlar ham uning faoliyat doirasiga kirib bormoqda.

Dizayn allaqachon amaliy muammolar doirasidan chiqqan, uning tamoyillari va metodlari ilmiy-texnik va badiiy ijodkorlikni uyg'unlashtirishni talab etuvchi ko'plab sohalarda qo'llanilmoqda. Ta'lif sohasida ham dizayn muhim rol o'ynaydi.

Zamonaviy sharoitlarda shaxsning har tomonlama barkamol shaxs sifatida rivojlanishi mantiqiy-matematik va badiiy-obrazli tafakkur turlarining o'zaro bog'liqligiga asoslangan chaqqon, ijodiy fikrlovchi inson obrazida namoyon bo'ladi. Dizayner faoliyati ilmiy-texnik va badiiy ijodkorlik bo'yicha barcha elementlarni to'la aks ettiradi, demak, shaxsni rivojlantirish yo'nalishlaridan biri sifatida xizmat qilishi mumkin.

Ta'lif va tarbiya jarayonlariga dizayn elementlarini kiritish tabiiy-matematik va gumanitar sikldagi fanlarning o'zaro bog'liqligini kuchaytirishga imkon beradi. Dizayn metodlarining o'zi esa ta'lif yangi metodlarini ishlab chiqishda foydali bo'lishi mumkin.

O'quvchilarni ko'pqirrali-politexnik tayyorlash mazmuni ishlab chiqarishning barcha sohalariga xos bo'lgan eng umumiy jarayonlarni aks ettirishi kerak. Dizayn bunday jarayonlardan biri sifatida umumiyl politexnik bilim, ko'nikma va malakalarning bir qismi bo'lib qolishi kerak.

O'quvchilarning badiiy-konstrukturlik tayyorgarliklari ijtimoiy-iqtisodiy vazifalardan biri sifatida dizaynerlik madaniyati, tilini, iste'molchilik va ishlab chiqarish sohasida munosabatlarining yagona tizimini yaratish vazifasini hal etadi. Dizaynerlik ishlari darajasi ko'p jihatdan iste'molchining mahsulot texnik-estetik xususiyatlarini baholash malakasi darajasiga bog'liq bo'ladi.

Zamonaviy ta'lif tizimining asosiy vazifalaridan biri – yuksak ijodiy imkoniyatlarga ega ijodiy fikrlovchi bolalarni tarbiyalash hisoblanadi. Ijodkorlikka bolalikdan o'rgatish mumkin va kerak.

Ijodkorlik madaniyat kabi butun inson hayoti va ta'lif tizimini qamrab olishi lozim.

Keyingi paytlarda ta'lim tizimida gumanitar-badiiy va ilmiy-texnik madaniyatlarni birlashtirgan va rivojlanishga zamonaviy turki bergen madaniyat paydo bo'ldi – bu dizayndir.

Dizayn asosida inson faoliyati yotadi, unga ta'lim ham kiradi. Umumiy o'rta ta'lim mакtablarida mehnat darslarida o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, ularning badiiy-texnik faoliyati doirasida ma'lum nutqini rivojlantirish bilan to'g'ridan-to'g'ri bog'liqdir.

Ushbu holatda dizaynerlik faoliyati qobiliyat, ko'nikma va malakalarini rivojlangtirish bilan bog'liq. Ta'lim jarayonida bolalarni ijodiy rivojlantirishning qulay yo'llarini izlash bugungi kunda pedagogika fanining va umuman jamiyatning ijtimoiy ahamiyatli muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

Mehnat ta'limi darslarida bolalarning ijodiy dizaynerlik qobiliyatlarini rivojlantrib, o'qituvchi o'quvchilarning qo'llari bilan yaratilgan har bir buyumning qimmati – *foydasi va go'zalliligi* haqida ma'lum tushuncha va tasavvurni shakllantiradi.

Mehnat ta'limi darslarida dizaynga buyum yaratilishining ijodiy jarayoni sifatida qaraladi, unda estetik mazmunini aniqlaydi, texnologiya esa predmetni yaratishning shaklini belgilaydi.

Estetik qadriyat - estetik idrok etish, emotsiyonal his qilish va ob'yektning sub'yeqt estetik idealiga mosligi darajasini baholash vaziyatida inson tomonidan aniqlanadigan ob'yektning alohida ahamiyatidan iborat.

Ushbu jarayonda o'quvchilarning ijodiy qibiliyatları to'liq rivojlanadi. Bolaning ijodiy qibiliyatlarini rivojlantirish – bu uning tasavvurini rivojlantirish demakdir. Ta'lim jarayoni o'quvchilarning turlicha intilishlari, idrok etish faoliyatları va mustaqilliklari bilan bog'liqlikda rivojlanib boradi. Bir holatlarda u taqlid qilish, boshqa hollarda – izlanish, ijodkorlik xususiyatiga ega bo'lishi mumkin. Aynan o'quv jarayonining xususiyati uning yakuniy natijasiga – o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalari darajasiga ta'sir ko'rsatadi.

Ta'lim nazariyasi va amaliyotida o'quvchilarning ijodiy qibiliyatlarini rivojlantirishga hozirda yetarlicha e'tibor qaratilmagan, lekin bir narsa aniq, o'quvchilar ijodiy qibiliyatlarini rivojlantirishning turli masalalarni qo'yish va hal etishsiz bu

masalani hal etib bo'lmaydi. Masala qo'yish – idrok etish, izlanish va ijodiy jarayonning asosi, boshlang'ich qismi hisoblanadi, aynan shunda birinchi fikrning paydo bo'lishida ijojdiy jarayon, ijodkorlik o'z ifodasini topadi. Biroq maktab ta'limi amaliyatida ko'pchilik hollarda o'quvchini aniq bir javobga yo'naltiruvchi, uning tafakkur faoliyatini faollashtirmaydigan reproduktiv masalalardan foydalaniлади.

Aynan mehnat ta'limi darslarida pedagog mazkur faoliyat turini muvaffaqiyatlari amalga oshirishi mumkin. O'quvchilarning ijodiy shaxs xususiyatlari hisoblanuvchi dizaynerlik qobiliyatlarini rivojlantiradi. Qobiliyat individda mavjud bilim, ko'nikma, malakalar bilan belgilanmaydi. Ular dizaynerlik faoliyati usullari va uslublarining chuqur va mustahkam egallanganligi, tezkorligi bilan belgilanadi va ularni o'zlashtirish imkoniyatini beruvchi ichki psixik reguliyativlar hisoblanadi.

Biroq ijodiy tafakkurni rivojlantirmasdan bolalarda dizaynerlik qibiliyatlarini rivojlantirish mumkin emas. Ta'lim jarayonida ijodiy tafakkurni rivojlantirish savollar yordamida bolalarning ijodiy faoliyklarini oshirishda o'z ifodasini topadi. Mana shunday ta'lim bolalarning tafakkur ijodkorligiga ta'sir ko'rsatadi. Idrok etish faoliyati izlanish faolligini rivojlantirishda katta ahamiyatga ega. Bu esa yangi axborotlarga, yangi taassurotlarga ehtiyoj demakdir, bular o'quvchining quvonch, qiziqish kabi ijobjiy hissiyotlaridir. Qiziqish o'quvchilarning mustaqil bilim olishlarida ijodkorlik va tashabbuskorlikning paydo bo'lishiga yordam beradi.

Umumiy o'rta ta'lim maktabida mehnat ta'limi darslarida hamda o'quvchilarning o'z qo'llari bilan yaratadigan predmetlari ijodkorlik yoki dizaynerlik qobiliyatini rivojlantiradi. O'quvchilarning diqqati, xotirasi, tasavvurlarining rivojlanganlik darjasini, ularning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda katta ahamiyatga ega. Psixologlarning ma'lumotlariga qaraganda, aynan mana shu sifatlar o'quvchilarning mahsuldar tafakkurini, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda asos hisoblanadi hamda mehnat jarayonida ijodiy izlanish faoliyklarini oshiradi.

O'qituvchi mehnat ta'limi darslari tuzilishiga o'quvchilarni o'zları bajara oladigan ijodiy faoliyatga jalb etishga imkon beruvchi topshiriqlarni kiritishi kerak, bu o'quvchilar tafakkurining

turli ijodiy sifatlarini shakllantirishning zarur sharti hisoblanadi. Har bir bola qobiliyat va iste'dodga ega. Bolalar tabiatan qiziquvchan va o'rganish istagiga to'la bo'ladilar. Ular o'z iste'dodlarini namoyon qila olishlari uchun to'g'ri rahbarlik qilish, o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishga sharoit yaratib berish lozim.

2.5. Sinfdan tashqari ishlarda o'quvchilarning dizayn ijodkorliklarini shakllantirishning innovatsion texnologiyalari

Respublikamiz umumiyligi o'rta ta'lim maktabalarida ta'lim-tarbiya jarayonlarini tashkil qilish va uning mazmunini isloq qilish jarayoni «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» talablari, fan, texnika, texnologiyalar yutuqlariga binoan, shuningdek, boy madaniy-tarixiy va ma'naviy-axloqiy an'analar asosida davom etib bormoqda.

Hozirgi kunda ta'lim jarayonida shaxsnı tarbiyalash va barkamol rivojlantirish vazifasiga katta e'tibor qaratilgan.

Milliy g'oyani amalga oshirishning asosiy maqsadi – barkamol avlodni tarbiyalashga (shakllantirishga) erishishni ta'minlovchi, milliy madaniy-tarixiy va ma'naviy an'analar, xalqlar urf-odatlari va umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning samarali tashkiliy va pedagogik shakllari, vositalari ishlab chiqilishi hamda tatbiq etilishidan iborat.

Bugungi kunda umumiyligi o'rta ta'lim maktabalarida ta'lim-tarbiyaviy jarayonda pedagogik va innovatsion texnologiyalarni izlash hamda faol qo'llash ishlari olib borilmoqda. Ta'limni insonparvarlashtirish o'quvchilarda boy dunyoqarashni, ijodiy tafakkurni, yuksak ma'naviy madaniyatini shakllantirishni, xalqining boy urf-odatlari va an'analarini bilishni ko'zda tutadi. Umumiy o'rta ta'lim maktabalarida madaniy-ma'rifatparvarlik ishlari bugungi kunda yanada yuqori darajaga ko'tarilishi, zamонавиylashtirilishi kerak.

O'quvchilarning dizaynerlik ijodkorligidan foydalanish bolalarning idrok etish va ijtimoiy faoliyklarini rivojlantirishga yordam beradi, bu esa barkamol avlodni tarbiyalab, voyaga yetkazish imkonini beradi.

Hozirgi kunda dizayn insonni o'rab turgan atrof-muhitining barcha jihatlarini qamrab olgan. Ta'lif-tarbiya jarayonida dizayn va uning imkoniyatlari haqidagi zamonaviy tasavvurlarga, shunchaki, sanoatni loyihalashtirishidan ko'ra, ancha keng qaraladi. Insonning yaratuvchilik faoliyatining har bir sohasida dizayn tushunchasiga duch kelamiz. Dizaynni ijodiy jarayon sifatida quyidagilarga ajratish mumkin:

- badiiy dizayn – faqat idrok etish nuqtai nazaridan moddiy dunyoni yaratish (shaklning tashqi namoyon bo'lishi);
- texnik estetikasi – texnik mahsulotni ishlab chiqarish, foydalanish, utilizatsiya qilish, qulayligi, barcha jihatlarini va bиринчи navbatda konstruktivligi (tashkil topishining dastlabki bosqichi), funktsionalligini (o'rta) hisobga oluvchi dizayn haqidagi fandir (zamonaviy tushuncha).

Dizayn utilitar tushuncha sifatida buyumlarni yaratish muhiti, holati va iste'mol qilish jarayoni bo'libgina qolmay, balki, bevosita buyumlar, tovushlar, bo'yoqlar, g'oyalar paydo bo'ladigan, yaratiladigan muhit hisoblanadi, unda yaratilgan narsa-buyumlar yangicha mazmun-mohiyat kasb etadi, shu tariqa dizayn uyushgan yagona yaxlitga birlashib qabul qilingan va tushunarli, ajratmaydigan tabiiylik mohiyatga ega bo'ladi.

O'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda mehnat ta'limi darslari va tasviriy san'atning katta ahamiyatini hisobga olib dizaynerlik ijodkorligidan foydalanish o'quvchi shaxsini shakllantirish va rivojlantirishda alohida ahamiyatga ega bo'ladi. Chunki *dizaynerlik ijodi* – faoliyat, qandaydir sifat jihatidan yangi, ilgari hech mavjud bo'lmagan yangilikni yaratishdir. Bu faqat ushbu inson emas, balki boshqalar uchun ham nimadir yangi, qimmatli bo'lgan narsani yaratishdir. Bu kabi sub'yektiv qadriyatlarni yaratish jarayonida sinfdan tashqari ishlarning imkoniyatlari juda katta.

Zamonaviy dunyoda sodir bo'layotgan jarayonlarning turli-tumanligi va murakkabligi o'sib kelayotgan shaxsnинг rivojlanishiga yangi talablar qo'ymoqda. Inson faoliyatining har qanday sohasida ijodkorlik masalalarni hal qilishda ratsional, nostandard yo'llarni izlash, jamiyatning har bir a'zosining intellektual imkoniyatlarini oshirish, insonning ijodiy

qobiliyatlarini imkon qadar rivojlantirish davrning qat'iy va dolzarb ehtiyoji bo'lib qolmoqda. Shuning uchun bolalar va o'smirlarning ijodiy rivojlanishlarining samarali yo'llarini izlash bugungi kunda pedagogika fani va umuman jamiyatning ijtimoiy ahamiyatli, ustuvor vazifalaridan hisoblanadi.

Ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish muammosi pedagogika va psixologiya fanlari chegarasida yotadi.

Ijodiy tasavvurni faollashtirish – badiiy-ijodiy tafakkur rag'batlantirishning muhim omili. To'garak ishi amaliyoti ijodiy tasavvurning samaradorligi bir qator sharoitlar xususiyatlariiga bog'liq bo'lishini ko'rsatadi:

I. O'quvchilarning ijodiy tasavvurlar nazariyasini bilishlari.

II. Badiiy-ijodiy yaratuvchilikning ijtimoiy ahamiyati, holatini o'quvchilarga tushuntirib berish.

III. O'quvchilarning ehtiyoj sifatidagi psixologik kayfiyatları.

IV. Olgan bilim, ko'nikma va malakalaridan o'z amaliyotlarida foydalanishga yo'naltirish hamda:

1) badiiy ijodkorlik ehtiyojlarining mavjudligi;

2) yangilikka intilishi;

3) o'zini ifoda etishga intilishi;

4) musobaqaqlashish holati;

5) bilimlari darajasi.

Qiziqishlari, layoqati.

O'quvchilarning tasviriy ijodkorlik layoqatlari, qobiliyatları (imkoniyatlari) barqaror kasbiy qiziqish, chuqur istak va yuqori motivatsiyalarni yuzaga keltiradi. O'quvchilarning badiiy faoliyatga layoqati, qobiliyati, istagi, qiziqishi bir vaqtda rivojlanadi. Ushbu xususiyatlarga ega o'quvchining tegishli tayyorganlik, bilim, ko'nikma va malakalar darajasiga ega bo'lishi, ularning badiiy-ijodiy mahsulotlar tayyorlashlarida yuqori natijalarga olib keladi.

Badiiy-tasviriy ijodga qiziqishni shakllantirishda qobiliyat ham ishtirok etadi. Insonning tabiiy xususiyatlari – iste'dodlari hayotiy tajriba orttirish jarayonida, tashqi sharoitlar ta'siri ostida – ta'lim olish va idrok etish «qobiliyatga aylanadi».

Shu kabi qiziqish, uning yanada rivojlanishi o'quvchilar ijodiy qobiliyatlarining rivojlanishi uchun zarur bo'lgan sharoit hisoblanadi.

Qobiliyatlar sifatini baholashda o'quvchi shaxsining qaysi individual-psixologik qobiliyatları ijodiy faoliyat jarayonida ishtirok etishini bilish zarur; o'quvchilarning badiiy-ijodiy faoliyatga qo'yiladigan talablarni qay darajada bajarishlari, bilim, ko'nikma va malakalarni qanchalik oson va tez egallab olishlari – bu badiiy-ijodiy qobiliyatlarining son ko'rsatkichlaridir. Sifat ko'rsatkichlari son ko'rsatkichlari bilan uzviy bog'liq.

Improvizatsiya, assotsiativ tafakkur, intuitsiyaga qobiliyatları to'plami, faol ijodiy tasavvur badiiy iste'dodni tashkil qiladi, shu bilan birga iste'dodga egalik o'quvchining ijodiy vazifani kam vaqt va kuch sarflab bajarishiga qarab aniqlanadi. Improvizatsiya qobiliyati «g'oya» va uni «amalga oshirish» o'rtaсидаги «vaqt oralig'ini yo'qotadi».

Idrok etish ehtiyojlarining emotsiyal namoyon bo'lismiga ijodiy faoliyatga motivatsiyaning muhim tomoni sifatida alohida e'tibor qaratamiz.

Agar o'quvchi ma'lum bir faoliyat turini boshqa turlaridan afzal ko'rib, u bilan doimiy shug'ullansa, idrok etishi, qiziqishi layoqat xususiyatiga ega bo'lishi mumkin. Idrok etishi, qiziqishlari, layoqatlari kasbiy qiziqish va mahoratga aylanishini ta'minlash zarur. Agar bu qiziqish va layoqatlar insonning hayotiy rejalari bilan bog'liq bo'lsa, ular kasbiy layoqatga aylanib boradi.

O'quvchilarning badiiy-konstrukturlik faoliyatlarining ijodiy xususiyati ularning ishlab chiqarish sohasiga umumiylashtiradi, bu esa kasb tanlashda o'ta muhim hisoblanadi.

Badiiy-ijodiy faoliyatning sub'yektiv xususiyati, o'ziga xosliklari – bu aniq bir badiiy-ijodiy faoliyat talablariga javob beruvchi insonning individual-psixologik xususiyatlari to'plamidir.

Individual-ijodiy qobiliyat – nafaqat badiiy-ijodiy faoliyati muvaffaqiyatliligi, balki rassomning o'ziga xosligi va qobiliyati shartidir.

Badiiy-ijodiy faoliyatning sub'yektiv xususiyati – bu mazkur faoliyatga ijobiy munosabat, qiziqish, qiziqishga aylanuvchi layoqat, bu tirishqoqlik, mehnatsevarlik, e'tiborlilik,

ushbu faoliyatdan qoniqish hissi, ijodkorlik quvonchi, bu badiiy-ijodiy qiziqishlari to'liq darajada qondirilishidir.

Kuzatuvchanlik – badiiy-ijodiy shaxsnинг muhim xususiyati sanaladi. Bu ob'yeke nting muhim o'ziga xos xususiyatlari ajratib ko'rsatishdir. «Agar hayotni kuzatish rassomning ustunlikka ega layoqati hisoblanmasa, undan hech narsani kutmasa ham bo'ladi», – deb ta'kidlagan edi Didro.

Kuzatuvchanlik solishtirish, umumlashtirish, tahlil qilish, sintez qilish kabi tafakkur operatsiyalarini talab qiladi.

Kuzatuvchanlikka quyidagilar orqali erishiladi: tahlil, sintez qilishga o'rgatish hamda hayotiy tajriba orttirib borgan sari kuzatish mashqlari yordamida idrok etish jarayonini tashkil qilish; shartlari: maqsadlari aniq, vazifalar tushunarli, tizimlilik, reja asosida bo'lsa (kuzatish rejasi zarur, unda to'g'ri tasvirlash nuqtai nazaridan har tomonlama o'rganish hisobga olinadi). Kuzatuvning faolligini ta'minlab, qo'llab-quvvatlab turish zarur. U fikrlashda (solishtirish, tahlil qilish, sintez); xulqi; munosabati, kuzatuvni anglab yetishi, ularning natijalarida namoyon bo'ladi. Bunda boy taassurotlar to'plash, kuzatuvalar turli-tumanligi muhim.

Birinchi navbatda, kuchli estetik ta'sir ko'rsatuvchi holatlar idrok etiladi va kuzatiladi. Bu dizaynerlik ijodi asosidir.

U yoki bu ob'yeke nti tasvirlashga ehtiyoj dizaynerlik ijodini rag'batlanadiradi. Ehtiyoj ongda paydo bo'ladi, ko'rganlarini – badiiy shaklda o'rganilganlarni ifoda etish istakka aylanadi, ya'ni istak ehtiyojning mazmuni sifatida ishtirot etadi. Istak – badiiy-ijodiy faoliyatga motivdir. U rag'batlaniruvchi sifatida ijodiy faoliyatda qanoatlantiriladi.

Bizning ko'p millatli mamlakatimizda dizayn, albatta, mahalliy an'analar tusini olgan.

O'zbekistonda dizaynerlik san'ati o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Respublikamizda yartilgan mahsulotda mahalliy madaniyat o'z aksini topgan, biz bu borada kutilmagan qiziq misollarga duch kelishimiz mumkin.

Milliy liboslar o'zida yuksak dizaynerlik qadriyatlarini namoyon qiladi. Zamona viy o'quvchining tarix, madaniyat, o'z xalqi odatlariiga, shu jumladan, Sharq madaniyatining ajralmas qismi hisoblangan, uzoq qadimiy davrdan mashhur bo'lgan

milliy libosga qiziqishlari ortib bormoqda. Zamonaviy mактаб-ning vazifasi madaniy merosimizga bo'lgan ushbu qiziqishni saqlab qolishdan iborat.

Milliy liboslar tarixini o'rganish bo'yicha sinfdan tashqari to'garak ishlari o'quvchilarning dizaynerlik ijodkorliklarini shakllantirishning innovatsion texnologiyasi hisoblanadi.

O'zbekiston maktablarida milliy liboslarni o'rganish to'garaklari kam uchraydigan holatdir. Biroq mактабда bunday to'garak bo'lismiga barcha asoslar bor. To'garak dasturini taklif etamiz. Moddiy madaniyatimizning badiiy elementi, xususan, milliy libos, ma'naviy madaniyat bilan ajralmas birlikda mavjud va o'zbek xalqining ushbu tarixini ochib berish to'garakning asosiy maqsadi hisoblanadi.

Dastur quyidagi bo'limlarni o'z ichiga olishi kerak:

1. Milliy libosning paydo bo'lishi.
2. Milliy kiyim – xalqning badiiy madaniyati ajralmas qismi.
3. Milliy libos boy tarixga ega, barqaror va shu bilan birga atrof-borliq bilan yaqin bog'liqlikda rivojlanuvchi murakkab hodisa.
4. Xalq madaniyatining ushbu elementi barqarorligiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar.
5. Milliy libos xalqning obrazli tafakkuri mahsuli sifatida, unda xalqning dunyoqarashi va psixologiyasi, idrok etishi, o'ziga xosliklari aks ettiriladi.
6. Milliy libos, uning xususiyatlari, o'ziga xosligi, milliy xarakteri, asrlar va ko'plab avlodlardan davom etib kelayotgan obrazi.
7. Milliy kiyimdagagi utilitar va estetik elementlari.
8. Milliy liboslar insonning an'anaviy badiiy faoliyati turi, xalqning etnik tarixini aks ettiruvchi moddiy va ma'naviy madaniyati to'plami bilan bog'liq bo'lgan hodisa sifatida.
9. Milliy-an'anaviy libos va uning elementlarining zamonaviy modadagi o'rni, roli va vazifalari.
10. Kiyim umumiy ko'rinishining chiroyli bo'lishida milliy elementlardan foydalanish xususiyatlari.
11. Liboslar milliy yo'nalishi ta'siri ostida kiyim modellarini yaratishda novatorlik.
12. Milliy yo'nalish bilan kiyimda individuallik.
13. Milliy yo'nalish bilan kiyimda individuallik.

14. Xalq kiyimlari milliy libos kiyimlarini modellashtirishda ijodiy manba sifatida.

15. Mening kiyinish uslubim, uni badiiy bezatishda milliy elementlar.

16. Bugungi kundagi moda va yo'nalishlar (zamonaviy kiyimlarda milliy libos elementlaridan foydalanish haqida).

Yuqorida ko'rsatilgan mavzular bilan birga to'garakda nazariy-amaliy va amaliy mashg'ulotlar taklif etiladi.

Ish olib borish metodikasi o'quvchilarni axloqiy-estetik tarbiyalashga yo'naltirilgan bo'lishi kerak. O'quvchilarga turli xildagi topshiriqlar beriladi: kiyim paydo bo'lishi tarixi masalalarini o'rganish. Kiyimning asosiy funktsiyalari, nominal kostyumlar shakllanishi tarixi, milliy liboslar xususiyatlarini o'rganish bo'yicha va boshqalar.

O'quvchilar tabiat, ijtimoiy-iqtisodiy omillar, mehnat faoliyati xususiyatlari ta'siri ostida, xalqning moddiy, ma'naviy madaniyati hamda etnik tarixi sababli milliy libosning kelib chiqishi haqida «tadqiqotlar» o'tkazishlari mumkin.

Milliy libosdagi barqaror an'analarga ta'sir ko'rsatuvchi sabablar haqida o'quvchilarga mustaqil xulosalar chiqarish taklif etiladi.

O'quvchilarga milliy liboslarning badiiy-obrazli mazmuni haqidagi fikrlar tushuntiriladi. Mamlakatimizda yashovchi xalqlar yoki dunyo xalqlari liboslarning o'ziga xosliklari va ajralib turishi, milliy va o'ziga xos xususiyatlarini solishtirib, taqqoslab «o'rganadilar». Dunyo xalqlari va mamlakatimiz xalqlarining turli liboslari fotosuratlarini hamda rasmlarini, chizmalari kollektivalarini to'plash taklif etiladi.

Milliy liboslar obrazini matolar va qog'ozdan applikatsiyalar yordamida yaratish, milliy liboslarning tekis shakllarini yasash taklif etiladi. Fotosuratlar, rasmlar, tekis shakllar ma'lum sxema bo'yicha turlarga ajratiladi (mamlakatlar; xalqlar va millatlar; O'zbekiston mintaqalari. Liboslarning o'ziga xosliklarini ta'riflash).

Topshiriqlar libosda utilitar-amaliylikni aniqlash, uni albatta asoslab berish va milliy libosning badiiy-estetik ahamiyatini aniqlashni ko'zda tutadi.

Zamonaviy milliy moda jurnallari o'rganiladi. Zamonaviy modada milliy elementlarning o'rni va roli aniqlanadi. Quyidagi mavzularda munozaralar taklif etiladi: «Milliy element kiyimning umumiy qiyofasiga nima beradi?», «Bizning milliy modamiz xorijiy modalardan nimasi bilan farq qiladi?» va boshqalar.

Tasviriy faoliyat mashg'ulotlarida milliy ko'rinish va yo'nalishdan foydalanib kiyimlarning modellarini yaratishga katta ahamiyat beriladi. Obrazlarni yaratishda milliylikdan foydalanib alohida modellarni loyihalashtirish bo'yicha topshiriqlar taklif etiladi (o'zi uchun va keng miqyosda).

Bugungi kun modasini kuzatib borish ko'zda tutilgan (yozib borish, chizmalar, albomlar tayyorlash). O'z uslubini ishlab chiqish uchun o'zining individualligiga e'tiborli munosabatda bo'lish talab qilinadi. Tor qiziqishlar bo'yicha guruhi tashkil qilinadi: o'zbek milliy liboslari tarixini aks ettiruvchi albomlar tayyorlash; «Bugungi kun modasi», «30-yillar modasi», «90-yillar modasi» ekranlari, stendlari tayyorlovchilar va boshqalar.

O'qituvchi rahbarligi va kuzatuvi ostida namoyon bo'lgan qobiliyatlarini takomillashtiruvchi «rassom-model'yerlar» guruhlari yaratiladi.

To'garakda o'quvchilarning kasbiy yo'nalishlari uchun barcha sharoitlar yaratiladi.

Modellar uyiga ekskursiyalar, mashhur rassom-modelyerlar, rassom-konstruktorlar bilan uchrashuvlar tashkillashtiriladi.

«Moda va uslub nima?», «Kostyum, uning asosiy vazifalari», «Milliy libos haqida», «Milliy o'zbek libosi qanday paydo bo'lgan?» mavzusida ma'ruzalar taklif etiladi, ular boshqa sinflarda ham tashkil qilinadi.

Milliy libos kiyimni ijodiy modellashtirish manbai sifatida o'rganiladi. Muzeylarimizda to'plangan milliy libos namunalari to'garak ishtirokchilari tomonidan albomlar va fotosuratlar yordamida o'rganiladi. Ularda ranglar boyliklari, shakllar uyg'unliklari, tuzilishi maqsadga muvofiqligi o'rganiladi. O'quvchilar xom-ashyo sifatida tabiiy materiallardan foydalaniqligini bilib oladilar: jun, zig'ir, shoyi keyinchalik esa sotib olinadigan – ip va matolar (shoyi va chitlar). O'quvchilar milliy liboslarning o'ziga xos xususiyatlarga egaligi va ular asosida bichimlari

shakllanganligini, milliy elementlar – bezaklari, naqshlari yaratilganligi, alohida qismlarning u yoki bu ansamblga birlashishini bilib oladilar.

Shuningdek, o'quvchilar kiyimlarni qay tartibda va qachon kiyish urf-odatlar va zamonga asoslanganligini tushunib yetadilar. Ular bevosita mehnat faoliyati bilan shug'ullangan insonning milliy libosi bichimi maqsadga muvofiqligi bilan ajralib turishini, ko'pchilik hollarda u oddiy va tejamkor bo'lganligini, chunki inson uchun qulay bo'lishi kerakligi bilan bog'liqligini bilib oladilar (mana shu sababli qulay va oddiy shaklga ega bo'lgan va matodan to'liq foydalanilgan). O'quvchilar mana shunday libosning harakatlanishni qiyinlashtirmasligi va og'ir dehqon mehnati hamda bayramlar uchun qulayligiga ishonch hosil qiladilar.

O'quvchilarga asosiy tamoyillarni o'rganib chiqish taklif etiladi: milliy libosning yaratilishi; insон tana tuzilishiga muvofiq konstruktsiyasi, buyumlarning turmushdagi vazifasi, konstruktiv tuzilishi va bezagi (kashta, tasma, jiyaklar va boshqalar) to'liq uyg'un taqsimlanishi, qadimdan xalq tomonidan chiroylı deb hisoblangan (qizil, ko'k, oq, yashil, sariq va boshqalar) rang tuslari ma'lum turlarini o'z ichiga oluvchi yorqin ranglar tuslari, keskin amaliy-dekorativligi, turli buyumlarning bir ansamblga birlashtirilishi an'anaviyligi, foydaliligi va go'zalligi, funktsionalligi va maqsadga muvofiqligi. To'garak ishtirokchilar buyumning barcha xususiyatlardan foydalanishni o'rganib olishlari kerak, chunki ular «rassom-model'yer»lik ishlari uchun katta ahamiyatga ega.

O'tgan asrning 20-30 yillari milliy modellashtirishning tashkil topishi, rassom-modelyerlar ijodi xususiyatlari o'rganiladi.

Shunday qilib, o'quvchilar maxsus bilim olish bilan birga o'zlarining estetik didlari hamda ijodiy qobiliyatlarini takomillashtirish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Ular liboslarni estetik sifat va badiiy bezatilganligi nuqtai nazaridan baholashga qodirlar; estetik didlarini kiyim xususiyatlari bilan, uning individual qo'llanilishi bilan mosligini aniqlaydilar.

O'quvchilarning estetik ideali takomillashadi. Didga oid tasavvurlar, ehtiyojlar jamlanadi. Kiyimdagи go'zallikni ko'rish qobiliyati shakllanadi. Asosiysi – o'quvchilar o'z modelini badiiy-obrazli shaklda ifoda etishda kuchlarini sinab ko'radir, bunda haqiqat va badiiy mukammallikning o'zaro bog'liqligi, novatorlik,

o'ziga xoslik, milliy libos uslubiga yangicha yo'nalish muhim shart hisoblanadi. Kiyimning individual uslubiga yondashuv jiddiy bo'la boshlaydi. To'garak ishtirokchilari uni o'z shaxslari, psixologiyalari, yoshlari bilan solishtira oladilar va ochiqchasiga, chin ko'ngildan ushbu sohadagi yutuqlaridan quvonadilar.

O'quvchilar tarixiy va nazariy ma'lumotlarni o'zlashtirish hamda kuchlari yetadigan milliy-estetik qadriyatlarni o'zlashtirish va yaratish amaliyoti jarayonida dizaynerlik, ijodiy, estetik ehtiyojlarini qanoatlantiradilar.

Shuningdek, ularning ijodkorlik, o'zining ijodi natijalaridan huzur olish ehtiyoji qondiriladi.

«Milliy liboslар tarixi» to'garagi o'quvchilarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda katta imkoniyatlarga ega. To'garak ishtirokchilari o'zbek xalqi madaniyati bilan tanishadilar, o'zbek xalqining ushbu ma'naviy-badiiy sohasini o'rjanadilar, ushbu sohaga oid ma'naviy tushuncha va tasavvurlarga olib keluvchi juda muhim masalalarga duch keladilar. Ular, birinchi navbatda, o'zbek xalqi badiiy madaniyatining rivojlanishi, o'zbek xalqi libosining milliy xususiyatlarining o'ziga xosligi va o'zgachaligi, o'zbeklar milliy kiyimlarini ushbu xalqning an'anaviy badiiy faoliyat turi sifatida o'zlashtiradilar.

Ushbu masalalarni o'rganib chiqish o'quvchilarda o'zbek xalqiga, jonajon diyorga, ona Vatan – O'zbekistonga muhabbat hissini shakllantiradi.

Mazkur masalalar (shu kabi savollar bilan birgalikda) mamlakatimizda yashab kelayotgan xalqlarning ma'naviy-badiiy madaniyatiga taalluqli (ularning milliy liboslari tarixi misolida).

To'garak ishtirokchilarida kuchli qiziqish uyg'otuvchi jahon xalqlari liboslari, ularning o'ziga xosliklari haqida suhbatlar o'tkazishdan ham amaliy foydalanilsa maqsadga muvofiq bo'ladi.

Shunday qilib, o'quvchilarning dizaynerlik ijodkorliklarini rivojlantirish ma'naviy, badiiy-estetik, vatanparvarlik tarbiyasi bilan yaqin bog'liqlikda amalga oshadi.

Turli xalqlar orasida madaniyat elementlarining bir-biriga ta'siri va bir-biriga bog'lanib borishi ham o'rganiladi. Shu tariqa, to'garak milliy va umuminsoniy qadriyatlarga to'g'ridan-to'g'ri yo'nalish oladi. Respublikamiz va butun dunyo xalqlari madaniyatiga katta qiziqishni uyg'otadi va rivojlantiradi.

O'quvchi shaxsini ma'naviy-estetik takomillashtirishga yo'naltirilgan to'garak ishtirokchilarini badiiy-estetik tarbiyalash tizimini aniqlash ustida ham ishlash zarur (albatta, mehnat ta'limi darslari bilan uzviy bog'liqlikda).

Bu masala hamda muammolar aniqlangan va yechimini topish bosqichida. Shunga qaramasdan, ba'zi xulosalar chiqarish imkoniga egamiz:

- o'quvchilarning kasb-hunar yo'nalishlari bo'yicha sinfdan tashqari ishlar, xususan, dizaynerlik bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantirish hamda o'quvchi shaxsini barkamol rivojlantirishda «Milliy libos tarixi» to'garagi ishlari juda samarali faoliyat shakli hisoblanadi;

- o'zbek xalqi milliy liboslarining yaratilishi tarixi, nazari-yasi va amaliyoti bo'yicha iloji boricha qiziqarli va ko'p turdag'i materiallardan foydalanish zarur, ayniqsa, milliy tarkibdagi maktablarda, bu kabi ishlar o'z xalqi, uning ma'naviy-badiiy madaniyatidan g'ururlanish hissini rivojlantiradi, o'z xalqi, jonajon o'lkasi, umuman, o'z Vatanining jonkuyarlarini tarbiyalaydi.

III bo'lim.

**MAKTABDAN TASHQARI TO'GARAK
MASHG'ULOTLARIDA O'QUVCHILARNING DIZAYNERLIK
QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISHNING DIDAKTIK
IMKONIYATLARI**

**3.1. Maktabdan tashqari ta'lim muassasalarida
o'quvchilarning dizayn ijodkorligini rivojlantirishning
nazariy asoslari**

O'zbekiston Respublikasining maktabdan tashqari ta'lim muassasalari uchun 2011-yildan buyon ta'lim va tarbiya ishlari yangilangan davlat talablari hamda o'quv dasturlari asosida amalga oshirilmoqda. Mamlakatimizdagi maktabdan tashqari ta'lim muassasalarining maqomi o'zgartirilib, ular «Barkamol avlod» bolalar ijodiyot markazlari hamda ularning filiallariga aylan-tirilishi munosabati bilan, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligining 2011-yil 31-martdagи «Maktabdan tash-qari ta'limga qo'yiladigan Davlat talablarini tasdiqlash to'g'risida»gi 69-sonli qaroriga binoan, amaldagi Davlat talablari, to'garak dasturlari qayta ishlandi hamda tavomillashtirildi. Maz-kur me'yoriy hujjatga binoan dizayn yo'nalishidagi maktabdan tashqari ta'lim asosan «Yosh dizayner», «Liboslar dizayni», «Foto dizayn», «Landshaft dizayni» to'garaklari misolida amalga oshirilmoqda. Ta'lim mazmuniga ko'ra «Yosh arxitektor» to'garagi mashg'ulotlari mazmunida ham dizaynerlikka oid topshiriqlar tizimi mavjud. Dizayn ijodkorlik sohasi sifatida yangi yo'nalish bo'lmasada, respublikamiz ta'lim muassasalarida o'quvchilarda dizaynerlik ijodkorligini rivojlantirish borasida tajribalar yetarli emas. Shu ma'noda dizayn sohasiga oid tarixiy-nazariy ma'lumotlar o'quvchilarda dizaynerlik ijodkorligini rivojlantirish tizimida muhim o'rinn tutadi.

Dizayn termini ilmiy iste'molga kiritilganligi haqidagi ma'lumotlarga aniqlik kiritish biroz mushkul masala. Biroq rasmiy hujjatlarga ko'ra 1969-yil sentabrda Dizayn bo'yicha Xalqaro tashkilot (ICSID – International Council of Industrial Design)ning Xalqaro kongressida Tomas Maldonado tomonidan taklif etilgan ta'rifga ko'ra **dizayn – ishlab chiqarilayotgan buyumlarning**

shakliy sifatlarini belgilashga (aniqlashga) yo'naltirilgan ijodiy faoliyat - tarzida qabul qilingan. «Design» tushunchasi XVI asrlarda Evropa mamlakatlarda keng tarqalgan bo'lib, o'sha davrdagi ta'riflar hozirgi kun talqiniga mos tushadi. Xususan, 1588 yildagi Oksford lug'atida dizaynga **amalga oshiriladigan (yaratiladigan)** ishning inson tomonidan o'ylangan rejasi, sxemasi tarzida talqin etilgan. Demak, dizaynga berilgan tarixiy ta'riflar, uning zamonaviy sharoitdagi funktsiyalaridan kelib chiqqan holda inson tomonidan yaratiladigan barcha mahsulotlarni badiiy loyihalashtirish, estetika va texnologiyalarning mantiqiy aloqadorligini ta'minlash san'ati tarzida ta'riflanishi mumkin.

Yuqorida ta'kidlab o'tilganlardan xulosa tariqasida e'tirof etish joizki, o'quvchi-yoshlarni dizaynerlik qobiliyatlarini rivojlan-tirishda bevosita sohaning to'g'ri talqini, funktsional yo'nalishlari haqida yetarli va kerakli ma'lumotlar berish talab etiladi.

Dizayn – bu hamma narsaning (texnik vositalar – avto-mobil, stanok, samolyot, dazmol, changyutgich va hokazo – texnik dizayn) estetik ko'rinishini ta'minlovchi san'at. Dizayn – bu fan sohasi. Alovida fan siftida fanlar klassifikatsiyasida qayd etilmagan bo'lsada, muayyan g'oya va prinsiplari jihatidan falsa-faga, turli vositalar bilan inson ruhiyatiga ta'sir etish xususiyatlari bilan psixologiyaga, amal qilinadigan kategoriyalari, qo'llaniladi-gan prinsiplariga ko'ra estetikaga, bajarilish qonuniyatları va texnikasiga ko'ra muhandislik grafikasi, tasviriylar san'atga yaqin fan sifatida talqin etiladi. Dizayn – bu insoniyat faoliyatida individual xarakter kasb etuvchi hunarmandlik yoki ommaviy ishlab chiqarishga tatbiq etilishiga ko'ra industriya hisoblanadi. Dizayn buyumlarni yaratish yo'lidagi ijodiy jarayon bo'lib, uning tashqi ko'rinishi estetikasi mohiyatni, texnologiyasi esa buyum-ning shaklini belgilab beradi. Dizayner esa insoniyatni qamrab olgan olamni, makro va mikromuhitni go'zallik qonuniyatları asosida tashkil etuvchi, badiiy loyihalovchi, dizaynning muayyan sohasida badiiy-konstruktiv mazmundagi faoliyat bilan shug'ullanuvchi mutaxassis. Uning faoliyatida buyumlarning iste'molchi va tayyorlovchilar uchun barcha parametrlariga ko'ra maksimal qulaylik yaratuvchi variantini ishlab chiqish bosh maqsad hisoblanadi.

XX asrning oxirlarida ishlab chiqarishning barcha sohalarida, ayniqsa, madaniyat va san'at sohasida keng iste'mol qilina boshlangan o'zlashtirma so'zlar ichida «dizayn» tushunchasi nisbatan ko'proq qo'llanila boshlandi desak mubolag'a bo'l-maydi. Aslini olganda ijodkorlikning bu sohasi o'ta qadimiy sohalardan biri hisoblanadi. Shu ma'noda o'quvchilarga dizayn san'atining nazariy asoslari haqida ma'lumot berishda uning tarixiga murojaat etish maqsadga muvofiq.

Shu o'rinda haqli savol tug'iladi. Nazariy asos o'zi nima? Uni o'quvchiga qanday yetkazish kerak, ya'ni uning hajmi, shakli, taqdim etish vositalari qanday bo'lmos'h lozim?

Dizayn san'ati o'zining spetsifik xususiyatlarga ko'ra eng yaqin soha bu tasviriy va amaliy san'atdir. Chunki uning nazariy asoslар sifatida amal qiladigan jihatlari tasviriy san'atning qonuniyatlariga tayanadi. Bu qonuniyatlarning asosiy komponentlari sifatida shakl, rang, fazo, makon, kompozitsiya, perspektiva, yorug' va soya, chiziq, dog' va hokazolarni keltirish mumkin. Bu masalaga kengroq tarzda yondashadigan bo'lsak, mazkur qonuniyatlarni nazariy asos sifatida dizayn san'atiga tatbiq etadigan bo'lsak, uning imkoniyatlarini sezilarli tarzda cheklagan bo'lamiz. Chunki insoniyat faoliyati bilan bog'liq bo'lgan ijodiyot hamda ishlab chiqarish sohasi necha xil bo'lsa, uning muayyan bosqichida ishtirok etadigan dizayn sohasi ham shuncha xil bo'ladi. Demak, birinchi nazariy asos sifatida tasviriy san'atning qonuniyatlarini e'tirof etgan holda (chunki dizayn mahsulotini yaratishda birinchi navbatda, uning ko'rinishi – shakli, ikkinchi navbatda, uning konstruktiv tuzilishi, uchinchi navbatda, uning rangi va hokazo ko'rsatkichlariga amal qilinadi) asosiy qonuniyati, ya'ni nazariy asosi soha xususiyatlaridan kelib chiqadi. Boshqacha so'z bilan aytganda, mashinasozlik dizayni, me'morchilik yoki libos dizayni bilan ma'lum darajada umumiylit xususiyatlarga ega bo'lsada, ulardan keskin farq qiladi. Bu qonuniyatdan kelib chiqadigan xulosa shuki, bolalarga dizayn san'atining nazariy asoslari haqida ma'lumot berishda tabaqalashgan va individual yondashuv qo'llanishi lozim bo'ladi.

Dizayn san'atining tarixi va zamona viy holatining qiyosiy tahlili shuni ko'rsatadiki, dizaynerlik sohasida respublikamizda libos dizayni jadal sur'atlarda rivojlanib bormoqda. Dunyoning

eng mashhur libos dizaynerlari erkak kishilar bo'lsada, O'zbekistonda libos dizayni ijodiy faoliyat borasida eng ommaviy soha sifatida, avvalo, qiz bolalar o'rtaida ommalashgan ijod sohasi hisoblanadi. Shunga mos tarzda respublikamizda libos dizayni bo'yicha ko'pdan-ko'p firmalar (birgina «Mashhura» firmasi va uning viloyatlardagi filiallari faoliyatini eslash kifoya), o'rta maxsus kasb-hunar kollejlari (poytaxtdagi Respublika rassomchilik kolleji, Xo'jaev nomidagi dizayn kolleji, viloyatlardagi san'at kollejlari), oliy ta'lim (Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomchilik va dizayn instituti, Toshkent To'qimachilik va yengil sanoat instituti) muassasalarida libos dizayni bo'yicha mutaxassislar tayyorlash yo'lga qo'yilgan.

Ayni paytda e'tirof etish joizki, maktabdan tashqari ta'lim muassasalarida o'quvchilarning dizaynerlik ijodkorligini rivojlan-tirishda nazariy xarakterdagи umumiy kompozitsion qonuniyat-larga amal qilinadi. Uning asosiy parametrlari sifatida o'quvchi-lar tomonidan quyidagi yo'nalishdagi bilimlarni egallashlari talab etiladi:

- kompozitsiya, uning markazi, muvozanati, shaklni, yu-zani (tasvir yuzasidagi kompozitsion yechim nazarda tutilayapti) tashkil etish borasidagi qonuniyatlar;

- badiiy loyihalash tarixi, uning jahon va milliy namuna-larining tahlili asosida zamonaviy sharoitda qo'llash yo'sinlari;

- o'zbek milliy san'ati, ayniqsa, xalq amaliy san'ati va milliy hunarmandchiligidagi dizaynerlik yechimlarining shakllanish va rivojlanish evolyutsiyasi, uning taraqqiyot bosqichlarida amal qilgan asosiy tendensiyalari, unda shakl go'zalligi va qulayligi, tejamkorligi, uning davr talablari, ijtimoiy muhit xususiyatlari, amal qilgan qonuniyatlar va tendensiyalarga muvofiqligi va h.k.;

- badiiy loyihalashning konstruktiv asoslariga oid qonuniyatlar;

- dizaynerlikda sohalar bo'yicha qo'llaniladigan material-larning xususiyatlari, texnologik jarayonlar haqida tasavvurlarga ega bo'lish hamda ulardan o'z faoliyatida maqsadga muvofiq fodalanish tartiblari va h.k.

Dizaynerlikning nazariy asoslari tizimida uning ijodiyotning boshqa sohalari bilan aloqalari haqida ham o'quvchilar yetarli tasavvurlarga ega bo'lishi lozim. Bu o'quvchilarda turli

sohalarda dizaynning amal qilish lozim bo'lgan qonuniyatlarini o'zlashtirish imkoniyatlarini kengaytiradi. Umuman, o'quvchilar ning dizaynerlik ijodkorliklarini rivojlantirishda san'at turlari bo'yicha qo'llaniladigan professional loyihalarni idrok etish hamda o'z imkoniyatlari darajasida ularning imitatsiyalarini yaratish nazarda tutiladi. Zero, san'atda turli yondashuvlar zamonaviy tendensiyalarning in'ikosi sifatida ro'yobga chiqadi. Shuning uchun ularning qo'llanish ko'lamlari turlicha. Bu turlitumanlik quyidagilarda namoyon bo'ladi.

Tasviriy va amaliy san'at. Uning mazmunida turli shakllarni qo'llanishi bilan birga asarni tomoshabinga taqdim etishda muayyan darajada dizaynerlik loyihalari qo'llaniladi. Bu namoyish qilinayotgan asarni inter'yerda (ko'rgazma zalida) joylashtirish, uni yoritish, asarning syujeti, yyetakchi rangi (koloriti)ga mos baget tanlashda dizaynerlik madaniyati shakllangan bo'lishi lozim. Shuning uchun ham maktabdan tashqari ta'lim muassasalarida dizaynerlikka ixtisoslashtirilgan to'garaklardan tashqari boshqa yo'nalishdagi, masalan, tasviriy va amaliy san'at to'garagi mashg'ulotlarida o'quvchilar o'zlarini yaratgan ishlarini ko'rgazma uchun belgilangan talablar asosida rasmiylashtirishi ularda, birinchidan, dizaynerlik tasavvurlarini shakllantirib boradi, ikkinchidan, sohaning elementar nazariy asoslarini o'zlashtirishlari uchun zamin yaratadi.

O'quvchilarda dizaynerlik ijodkorligini rivojlantirishda sintetik xususiyat kasb etadigan san'at yo'nalishlari haqida nazariy bilim hamda amaliy ko'nikmalarga ega bo'lish muhim didaktik ahamiyat kasb etadi. Shu ma'noda teatr san'ati, me'morlik hamda televideniyening ahamiyati beqiyos.

Teatr san'atining bugungi kundagi tajribalarida badiiy loyihaning asosiy mazmuni estetik muhitni tashkil etish nuqtai nazardan milliy va zamonaviy yondashuvlarning mushtarak tatbiqini ko'rish mumkin. Ikkinci jihatdan uning yana bir ko'rinishi – kontsert-shou dasturlari, muayyan jarayon bilan bog'liq bo'lgan loyihalarni – teatrlashtirilgan dizayn loyihalarini ko'rish mumkin. Mustaqillik yillarda «Nihol» (sahna dizayner-rassomi Baxtiyor To'raev), «Ofarin» (sahna dizayner-rassomlari Baxtiyor To'raev va Saidakmal Rasulov) kabi shou dasturlarini dizaynerlik yechimlarida XX asrda qo'llanilgan boshqa variant-

lardan sezilarli farq qiladi. Shuning uchun ham mактабдан ташқари та'lim muassasalarida shu kabi badiiy-dizaynerlik loyihalarni tahlil etish, individual tarzda ijodiy topshiriqlar bajarish o'quvchilarda dizaynerlik ijodkorligini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda insoniyat hayotiga keng kirib borgan vositalar ichida televideniya yetakchi o'rин egallaydi, ya'ni televideniya o'zining shakl-shamoyili, ko'plab statik va dinamik kompozitsiyalari bilan tomoshabin dunyoqarashiga tinimsiz ta'sir etib kelmoqda. Agar undagi badiiy loyihaga aloqador elementlarni o'zlashtirish jarayoni ilmiy-nazariy asosda, maqsadli tarzda tashkil etilsa, o'quvchilarda dizayn san'atining nazariy asoslarini o'zlashtirish jarayoni keng tarmoqli tarzda kechishi ta'minlanadi. Jumladan, o'quvchi-yoshlarda katta qiziqish uyg'otayotgan turlituman kliplar, televizion grafika vositalari (shrift (titr) kompozitsiyasi, zastavka, leybl, televizion «shapka», «otbivka» va b.), tasviriy stenografiya (sahna (studiya)ni bezash, ko'rsatuvga mos dekoratsiya o'rnatish va h.k.) kabilar teleko'rsatlarning soni va yo'nalishiga monand tarzda turli-tumandir. Ularda dizaynerlikning muhim jihat - simvolika va stilizatsiya elementlarini o'zlashtirish uchun samarali material vazifasini o'tashi mumkin.

Libos dizayni haqida gapirganda uning nazariy asosining ajralmas qismi sifatida tarixiy ma'lumotlarni keltirishni ham nazarda tutmoq lozim. O'zbekistonlik olimlar libos dizaynnini matoning tarixi bilan bog'liq ekanligi haqidagi kontsepsiyanı ilgari surar ekan, uning retrospektivasining dastlabki bosqichlari sifatida eramizdan avvalgi XV-V asrlarni, ya'ni mato to'qish texnikasi ixtiro etilgan davrdan boshlanganligiga ishora qiladilar.

Libos dizayni bilan bog'lik keyingi bosqich sifatida insonlarning faoliyat turlari (kimdir temirchi, kimdir chorvador) hamda ularning jamiyatdagi tabaqalashuvi kiyimlarga nisbatan turlicha yechim topishni taqozo etgan. Shu tariqa Antik davrdagi Rimda, qadimiy Hindiston va Misrda turli qatlam odamlariga mos liboslarni loyihalash, bugungi termin bilan aytadigan bo'lsak, dizayni nuqtai nazaridan ayricha yondashuvlar kashf etildi. Libos dizayni vaqtlar o'tishi bilan takomillashib, o'zgarib

borgan bo'lsa-da, uning ayrim elementlari bugungi kungacha modernizatsiyalashtirilgan tarzda yetib kelgan.

Libos dizayni aslida qadimiy sohalardan biri sifatida e'tirof etilsada, badiiy ijodiyotning alohida sohasi tarzida professional darajada rivojlanib boroqda. Shuning uchun ham keyingi yillarda libos dizayni bo'yicha xalqaro miqyosda tadbirlar o'tkazib kelinmoqda.

O'zbekistonda libos dizaynining shakllanish va rivojlanish tarixiga oid materiallarni mazkur san'atning nazariy asoslari tarkibiy qismi sifatida o'rgatilar ekan, tarixiy tasviriy vositalarga tayanish tarixiy ob'yekтивlik nuqtai nazaridan to'g'ri yondashuv hisoblanadi. Xususan, Sharq miniatyura san'ati namunalarida musulmon dunyosi kishilarining liboslari evolyutsiyasining tasviriy talqinini ko'rish mumkin. Demak, qiz bolalar bilan milliy libos dizayni bo'yicha o'tkaziladigan mashg'ulotlarda miniatyura san'ati namunalaridan unumli foydalanish mumkin.

Navbatdagi muhim didaktik vazifalardan biri dizayn yo'naliishlarini to'g'ri tanlash va o'quvchilarda dizaynerlik qobiliyatlarni rivojlantirishda unga amal qilishdan iborat. Dizaynnning asosiy yo'naliishlari quyidagilardan iborat:

- sanoat dizayni;
- muhit dizayni;
- jarayonlar dizayni;
- grafik dizayn;
- landshaft dizayni;
- me'moriy dizayn;
- libos dizayni;
- kompyuter dizayni.

Dizaynerlik sohasining qamrov jihatidan eng nufuzlisi, shubhasisiz, sanoat dizayni hisoblanadi. Sanoat dizayni aslida soha nuqtai nazaridan tom ma'noda keng qamrovli bo'lsa-da, tasnifiy yo'naliishga ko'ra shartli tarzda:

- mehnat qurollari dizayni;
- turli mexanizmlar dizayni;
- maishiy texnika dizayni;
- transport vositalari dizayni;
- mebelsozlik dizayni kabi asosiy turlarga bo'linadi.

Muhit dizayni, ayniqsa, zamonaviy shaharsozlikda muhim o'rincutadi. Shahar muhitining badiiy loyihasi, navigatsion dizayn, intererlar dizayni, yirik megapolislaming muhim atributi – shaharning tungi rangli yoritish tizimi dizayni kabi turlari zamonaviy dizaynning tez sur'atlarda rivojlanayotgan turlardan biri hisoblanadi.

Jarayonlar dizayni imkoniyatlarining kengligi, sintetik xarakterga egaligi bilan ajralib turadi. O'zbekiston sharoitida o'tkazib kelinayotgan ikki bayram jarayoni – Navro'z umumuxalq bayrami hamda Mustaqillik kunini nishonlash tom ma'nodagi badiiy jarayon sifatida dizayn san'atining majmuaviy ko'rinishi hisoblanadi. Zero, unda landshaf dizayni, rangli elektrobezak dizayni, qatnashchilarining libos dizayni, jarayonning umumiyy badiiy loyihasi – bularning barchasi ham alohida dizayn sohasi, ham majmuaviy ko'rinishdagi dizayn sifatida insonga kuchli siyosiy-ma'navy, badiiy-estetik ta'sir etadi.

Grafik dizayn mazmun va mohiyatiga ko'ra dizayn san'atining xususiyatlari, o'ziga xosliklarini to'la-to'kis ochib berish imkoniyatining kengligi bilan ahamiyatlidir. Bu sohada turli shartli belgilar, leybllar, emblemalar, etikettkalar, poligrafiya dizayni bo'yicha tayyorlanadigan grafik tasvirlar mazmun va shakl mukammalligini, mushtarakligini ochib berish borasida e'tiborga molikdir.


Grafik dizayn yana shunisi bilan qiziqarlik, birinchidan, dizaynerlikning deyarli barcha sohalarida grafik ishlov berish, ijodiy izlanish badiiy loyiha yechimini topishning eng ommalashgan hamda samarali usuli hisoblanadi. Ikkinchidan, grafik dizaynda stilizatsiyalashga asoslangan grafik yechimlar, simvollar ictiro qilish uchun real tasvirlardan foydalanish uchun keng imkoniyatlar taqdim etiladi. Quyida keltirilayotgan illyustrativ materiallar bunga misol bo'la oladi.

1-rasmida akademik tasviriy san'atning grafik usulida dinamika jihatidan intensiv harakatdagi ot tasvirlangan. Undan konturli tasvirning real varianti (2-rasm) hamda stilizatsiyalashтирilgan tasvirlari (3-rasm) grafik dizaynerlikning izlanish bosqichlari sifatida qaralishi mumkin. Natijada tasvirning stilizatsiyalashтирilgan hamda badiylashtирilgan lo'nda va ayni paytda aniq grafik tasviri hosil bo'ladi (4-rasm). Bu endi grafik tasvir sifatida biror bir tashkilot, firma yoki korxonanining, ishlab

chiqariladigan mahsulotning emblemasi bo'lishi mumkin. Xuddi shunday ijodiy jarayonni 5-rasmida ham ko'rish mumkin. Shuningdek, ot tasviri bilan bog'liq dizaynerlik yechimlari dekorativ, konturli va siluetli tarzda grafik simvollar tarzida yaratilishi mumkin (6 – 7-rasmlar).



1-rasm



2-rasm



3-rasm



4-rasm



5-rasm



6-rasm



7-rasm

Zamonaviy sharoitda shaharsozlikni rivojlanishi bilan landshaf dizaynerligi sohasiga bo'lgan e'tibor yildan-yilga ortib bormoqda. O'zbekiston sharoitida bu borada katta yutuqlarga erishilmoqda. Viloyatlarning markazlari, ayniqsa, Toshkent shahrida landshaft dizaynining me'morchilik dizayni bilan sintetik aloqadorlikdagi badiiy loyihalalar bo'yicha keng miqyosdagи ishlar amalga oshirildi. Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy bog'i, Amir Temur hiyoboni, Shahidlar xotirasi maydoni, «Toshkent lend» istirohat bog'i kabi maskanlarda amalga oshirilgan ishlar landshaft dizaynining namunasi sifatida o'quvchi-yoshlarda dizaynerlik ijodkorligini rivojlantirishda nazariy-namunaviy material sifatida samarali qo'llanilishi mumkin.

Me'moriy dizaynda tor ma'noda binoning umumiyl badiiy-konstruktiv ko'rinishi, ekster'yer (tashqi ko'rinish) va inter'yeri (ichki ko'rinishi) bo'yicha alohida-alohida badiiy loyihalanadi, ya'ni uning dizayni yaratiladi. Keng ma'noda yuqorida keltirilgan misollar kabi landshaft dizayni bilan kompleks tarzda dizayn yechimi topiladi.

Ta'kidlab o'tilganidek, zamonaviy shaharsozlikning muhim atributi sifatida landshaft dizayniga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shuning uchun ham respublikamiz maktabdan tashqari ta'lrim muassasalarida dizaynerlikning mazkur sohasining me'yoriy asoslari yaratilib amaliyotga tatbiq etib kelinmoqda. Xususan, Respublika «Bioekosan» majmuasi uslubchisi A. Baratov hamda o'quv-uslubiy bo'lim boshlig'i F. Nizamovalar tomonidan O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligining 2011-yil 31-martdagи 69-sonli «Maktabdan tashqari ta'limga qo'yiladigan Davlat talab-

larini tasdiqlash to'g'risida»gi buyrug'i asosida qayta ishlangan hamda takomillashtirilgan «Landshaft dizayni» to'garagi o'quv dasturida shu yo'nalishda olib boriladigan ishlarning asosiy mazmuni o'z ifodasini topgan. Unda asosiy talablar sifatida O'zbekiston hududida mavjud o'simliklar negizida landshaft dizayni bilan shug'ullanish imkoniyatlari bayon etilgan. Shuningdek, o'quvchilarning amaliy ko'nikma va malakalariga qo'yiladigan talablar ham ma'lum darajada tuproqshunoslik, o'simlik dunyosi bilan bog'lik talablar belgilangan. Jami 216 soatga mo'ljallanib, shundan 90 soati nazariy hamda 126 soati amaliy mashg'ulotlarga ajratilgan, o'quv soatlari landshaft dizaynini to'la-to'kis qamrab olgan emas. Xususan, unda shahar va qishloq, turli maqomdag'i (shahar ko'chalari, markaziy maydonlari, hiyobonlar, ta'llim muassasalari, dam olish zonalari, ma'muriy binoalar va h.k.) inshootlar atrofida yaratiladigan landshaftning kompozitsion yechimi, uning tarkibiy komponentlari, kompozitsiyada yaxlitlik va mushtaraklik printsiplariga amal qilish, shakl va rang kompozitsiyasi kabi masalalarga alohida e'tibor qaratish lozim. Zero, bu elementlarsiz landshaft dizaynini mukammal tarzda tasavvur etib bo'lmaydi. Mazkur yo'nalishda nazarda tutilgan bir yillik, ko'p yillik dekorativ o'simliklar, o'simliklar va daraxtlar, bioxilma-xillik, lanshaft dizaynining dekorativ va texnik qurilmalari kabi mavzulardagi nazariy va amaliy mashg'ulotlar o'quvchilarda lanshaft dizayniga oid nazariy bilim va amaliy ko'nikma, malakalarni bir tomonlama rivojlantirishga olib keladi. Shu ma'noda lanshaft dizaynerligi sohasini me'morlik to'garagi mashg'ulotlari bilan omuxtalashdirilgan tarzda olib borish o'quvch-yoshlarda dizaynerlik ijodkorligini rivojlantirishning didaktik imkoniyatlarini birmuncha kengaytiradi.

Dizaynerlik sohasining eng navqiron, ayni paytda universal sohasi kompyuter dizaynerligi hisoblanadi. Uning universalligi shundaki, aynan kompyuter vositasida dizaynerlikning yuqorida sanab o'tilgan sohalari bo'yicha kompyuter vositasida turli badiiy loyihalar yaratiladi. Bevosita kompyuter dizaynerligi sifatida turli animatsiyalar, prezentsiyalarni ko'rsatib o'tish mumkin. Shuningdek, veb-dizayn deb ataluvchi ijodiy faoliyat ham bevosita kompyuter dizaynerligi bilan bog'liq va bu soha

o'quvchi-yoshlarda katta qiziqish uyg'otayotganligi bilan ahamiyatlidir.

Dizaynerlikning yuqorida sanab o'tilgan sohalari ham professional ijodiy soha, ham o'quvchi-yoshlarda ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish vositasi sifatida o'qitilishi talab etiladi. Zero, ular dizaynerlik sohasining zamonaviy sharoitdag'i eng omma-bop turlari hisoblanadi, ya'ni ular maktabdan tashqari ta'l'im sharoitida o'quvchi-yoshlarning dizaynerlik ijodkorligini rivojlantirishning nazariy asoslari sifatida muhim didaktik ahamiyat kasb etadi.

3.2. O'quvchilarda dizaynerlik qobiliyatlarini rivojlantirishning asosiy ob'yektlari

Dizaynerlik sohasining asosiy ob'yektlari sifatida besh turdag'i ob'yektlarni e'tirof etish mumkin. Funktsional vazifa hamda mohiyat jihatidan ulami quydagicha klassifikatsiyalash mumkin.

1. Har qanday dizaynerlik mahsulotida (loyihasida), shubhasiz, **obraz** yetakchi o'rinda turadi. Chunki muayyan obrasziz hech qachon hech narsa mavjud bo'lmaydi. Shu ma'noda o'quvchilarning dizaynerlik bilim va malakalari tizimidagi o'quv topshirig'i muayyan badiiy-konstruktiv obraz yaratishga qaratilishi lozim. Zero, obraz atalmish falsafiy tushunchaning mazmuni moddiy borliqdagi voqeа va hodisalar, buyumlar va mahsulotlar olami haqidagi tasavvurlarning inson ongida aks etishi tushuniladi. Demak, loyihalashtirilayotgan har qanday buyum, mahsulotning obraqi inson ongida dastlabki tasavvurlar tarzida shakllanadi. Dizayner o'z faoliyatida bu tasavvurlarni badiiy-konstruktiv, tasviriy-estetik izlanishlar vositasida muayyan obraqga aylantiradi. Shuning uchun ham o'quvchilarda dizaynerlik qobiliyatlarini rivojlantirishda obraq haqidagi tasavvurlarni tarkib toptirishga yo'naltirilgan mazmun ustuvorlik kasb etmog'i lozim. Ayni paytda ta'kidlash joizki, obraqda reallik elementlari bo'lishi lozim, ya'ni obraqda buyumning mazmuniy strukturasi hamda loyiha kontseptsiyasini aks ettiruvchi kompozitsion yaxlitlikning optimal nisbatlari, munosabatlarining saqlanishini ta'minlashi lozim. Boshqacha

so'z bilan aytganda, kompozitsiyaning barcha komponentlari garmonik tarzda muvofiqlashtirilishi talab etiladi.

2. Loyihalashtirilayotgan mahsulotning **funktsiyasi**. Mahsulot, buyum belgilangan funktsiyani bajaradi. Masalan, dazmolning funktsiyasini changyutgich bajara olmaydi. Demak, loyihalanayotgan buyumning funktsiyasidan kelib chiqqan holda dizaynerlik yechimlarini taqdim etish o'quvchilarning dizaynerlik qobiliyatlarini rivojlantirishda ustuvor elementlardan, asosiy ob'yektlardan biri hisoblanadi.

3. Bajarilishi rejalashtirilayotgan (loyihalashtirilayotgan) buyum (mahsulot)ning **morfologik** xususiyatlari. Bunda buyumning dizayn loyihasini tayyorlayotgan dizayner mahsulotning tuzulishi, strukturasi, umumiyl shakli, tayyorlash jarayonida qo'llaniladigan materiallar, usullar, texnika va texnologiyalar, buyumning funktsiyasi kabi masalalarni inobatga olishi lozim bo'ladi. Masalan, taxtadan yoki temirdan tayyorlanadigan stulga bir yondashuvga asoslangan dizayn loyiha taqdim etib bo'lmaydi. Fuktsiyasi jihatidan har ikki turdag'i buyum bir xil maqsadga qaratilgan bo'lsada, tayyorlanish jarayoni va boshqa texnologik ko'satkichlariga ko'ra ularni bir xil loyiha asosida tayyorlanmaydi. Demak, dizayner bu jihatni e'tiborga olishi lozim.

Dizaynerlik loyihalarida buyumning morfologik xususiyatlari ichida uning konstruktsiyasi yetakchi o'r'in tutadi. Keng ma'noda badiiy loyihalash amaliyotida buni **tektonika** deb ham yuritiladi, ya'ni bu jarayonda buyumlarning barcha komponentlari (qismlari), ularning o'zaro munosabatlari, nisbatlari, funktsional aloqadorligi kabi nyuanslarni oldindan hisobga olgan holda loyihalashni talab etadi. Shu joyda yana bir o'ta muhim xususiyatni e'tiborga olish kerak: har qanday ijodiy topshiriq o'quvchilarning yoshiga, ijodiy imkoniyatlariga muvofiq tarzda berilishi lozim. Aks holda beriladigan topshiriqdan ko'zda tutilgan didaktik maqsadga erishib bo'lmaydi.

Konstruktsiya yaratiladigan buyumning funktsional hamda texnologik xossalarni inobatga oluvchi xususiyat kasb etadi. Tabiat qonuniyatlaridan ma'lumki, barcha mavjud narsalar tashqi ko'rinishiga ko'ra muayyan geometrik shakllarga, massaga, rangga, fakturaga ega bo'ladi. O'quvchilarda

dizaynerlikka oid ijodkorlikni rivojlantirishda sanab o'tilgan xususiyatlarni inobatga olmasdan turib mashg'ulotlarning didaktik imkoniyatlaridan to'la-to'kis foydalanish mumkin emas.

4. Buyumlarning estetik xususiyatlari. Bunda ob'yeqtning tayyorlanish jarayonini, shuningdek, undan foydalanishning qulayligi, mustahkamligi, tejamkorligi kabi komponentlarni inobatga olgan holda mahsulotning chiroyli ko'rinishga ega bo'lismiga alohida e'tibor qaratiladi. Estetik jihatning asosiy komponentlari tizimida buyumning shakli, konstruktsiyasi, rangi insonga ta'sir etish xususiyatlarga ko'ra estetik obraz tarzida namoyon bo'lishi lozim.

3.3. Maktabdan tashqari ta'lif muassasalarida o'quvchilarning dizaynerlik qobiliyatlarini rivojlantirishning metodik asoslari

Maktabdan tashqari ta'lif muassasalarida o'quvchi-yoshlarning dizaynerlik ijodkorligini rivojlantirishda mazkur jarayonning didaktik imkoniyatlarini aniqlash, ta'lif jarayonida unga amal qilish, mavjud me'yoriy asoslari, hujjatlarni tanqidiy o'rganishga asoslanishi lozim. O'zbekistonda amal qilayotgan dizaynerlik ta'lifining me'yoriy asoslari mazkur yo'nalishda muayyan ishlar amalga oshirilayotganligidan dalolat beradi.

Zamonaviy sharoitda nafaqat maktabdan tashqari ta'lif muassasalarida, umuman dizaynerlik sohasida libos dizaynerligi o'ta ommalashgan soha sifatida e'tirof etilmoqda. Tabiiyki, bu jarayonga muvofiq tarzda Barkamol avlod bolalar ijodiyot markazlarida muayyan me'yoriy-metodik asosga ega bo'lgan to'garaklar faoliyat ko'rsatmoqda. «Liboslar dizayni» to'garagi dasturi (tuzuvchi – Respublika o'quvchilar saroyi to'garak rahbari Sh. Dadamuhamedova), Davlat talablari va uslubiy qo'llanmada soha bo'yicha o'quvchilar egallashlari lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar ko'lami belgilab berilgan. Jumladan, o'quvchilar tomonidan egallanishi lozim bo'lgan bilimlar tizimida libosning kelib chiqish tarixi; libos va dizayn tushunchasiga ega bo'lism; libos dizaynida qo'llaniladigan mato turlari va ularning xususiyatlari; libos yaratishda shakl va rang xususiyatlarini bilish hamda amaliy faoliyatda ularga amal qilish

tartiblarini bilish; libos loyihasini yaratishda turli mazmun va xarakterdagи ma'lumot va materiallardan foydalanish; libos dizaynnini yaratish jarayonlari, bosqichlari haqida tushuncha va tasavvurga ega bo'lish; libos dizaynnini yaratish jarayonida uni konstruktsiyalash, eskiz metodidan foydalanishni bilish; libos dizaynida kompozitsiya qonuniyatlarini amal qilish tartiblarini bilish kabilar ustuvor tarzada o'rgatilishi lozimligi belgilab qo'yilgan.

O'quvchilarning dizaynerlik ijodkorligini rivojlantirishning tarkibiy komponentlari sifatida ko'nikma va malakalarga ham muayyan talablar qo'yildi. Xususan, bu tizimda:

– liboslarning milliy-tarixiy xususiyatlarini bilish hamda ijodiy faoliyatda unga amal qila olish. Zero, har bir millatning libos yaratish borasida o'z tarixi, milliy xususiyatlari mavjud. Bu xususiyatlar libos yaratish san'atining barcha jabhalarida amal qiladi. Jumladan, libos yaratishda qo'llaniladigan matolar, libos va mavsum, libos va kasb-kor kabi kategoriyalarda o'z aksini topadi. Misol uchun, ayollar libosini loyihalashda atlas va adres kabi matolardan, asosan, o'zbek milliy liboslarini yaratishda foydalaniлади;

– libos loyihasini yaratishda tarixiylik va zamonaviylik printsipliga amal qilish qonuniyatlarini bilish hamda amaliy ijodiy faoliyatda unga amal qilish malakalarini tarkib toptirish;

– libos dizaynnini yaratishning badiiy va texnik jihatlari haqida amaliy malakalarga ega bo'lish. Bunda eskiz ishlash metodi asosida libos dizaynining variantlarini ishlash, unda libos va shakl, libos va rang, libos va mato, libos va konstruktsiya, libos va kombinatsiyalar (kombinatsiyalashda ikki xil ma'noni anglash mumkin. Birinchisi, libos dizaynining badiiy-konstruktiv yechimida turli operatsiyalar vositasida kompozitsiyani topish – libos qismlarini alohida-alohida loyihalash hamda ularni variativ tarzda yaxlit libos loyihasiga birlashtirish. Ikkinchisi, libos dizaynining estetik ko'rsatkichlarini oshirishga yo'naltirilgan operatsiyalar – applikatsiya usulida, biser tikish yoki yopishtirish usulida libos dizayninig estetik ko'rinishi mukammallashtirish va h.k.) printsiplariga amal qilish tartiblarini o'zlashtirib borish;

– libos dizaynini yaratishning eng zamonaviy, har jihatdan imkoniyatlari keng va tezkor, tejamkor vositasi – kompyuter texnologiyalarining libos dizayniga moslashtirilgan maxsus dasturlaridan foydalana olish kabi ko'nikma va malakalar o'quvchi-yoshlarning libos dizaynerligi bo'yicha ijodkoriklarini shakllantirish va rivojlantirishning muhim shartlaridan biridir.

Libos dizaynerligi dizaynerlikning boshqa sohalari kabi badiiy-ijodiy, tasviriy faoliyat bilan bog'liq bo'lgaligi bois ijodiy izlanish jarayoni muhim o'rinni tutadi. Eskiz ishlash esa, shu jarayonning yakuniy kompozitsiyasini hal etishning asosiy komponenti hisoblanadi. Shu ma'noda libos dizaynerligida eskiz ishlash metodi o'quvchilarning dizaynerlik ijodkorligini rivojlantirishdagi ahamiyati katta.

Ishlab chiqarish tarmoqlarini rivojlantirishning ma'lum talablari tizimida tayyorlanadigan mahsulotlarning badiiy-konstruktiv yechimlarini zamonaviy ijtimoiy-estetik talablar asosida takomillashtirib borish alohida e'tiborga molik masalalar sirasiga kiradi. Zamonaviy tilda buni dizaynerlik loyihalari deb ataladi. Har qanday dizaynerlik yechimlarini, topishda, shu jumladan, libos dizaynerligi bo'yicha badiiy loyihalashtirishning asosiy komponentlaridan biri – izlanish jarayoni muhim ahamiyat kasb etadi. Tasviriy faoliyat bilan bog'liq ijodkorlik sohasida ijodiy izlanishning o'ziga xos shakli – eskiz ishlash shaklining o'rnini o'quvchilarda badiiy ijodkorlik sifatlarini tarkib toptirishda o'rnini beqiyos. Dizaynerlikning barcha sohalari ham bundan mustasno emas.

Keyingi yillarda jadal sur'atlar bilan rivojlanayotgan hamda o'quvchi-yoshlar o'rtaida katta qiziqish uyg'otayogan dizaynerlik sohasi, ayniqsa, libos dizaynerligi bo'yicha o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda eskizlar ishlash badiiy ta'limning alohida e'tiborga molik metodi hisoblanadi.

Har bir liboschi-rassom o'ziga xos did va fantaziyaga, ma'lum bir mavzularni ko'rib, idrok qilib, tahlil qilish asosida vujudga kelgan badiiy g'oyasi – fikriga ega. Ushbu badiiy fikr, albatta, qandaydir sabab-hodisadan olingan taassurot natijasida turki bo'lib vujudga keladi, ammo dastlabki g'oyaga asoslangan holda unga ishlov berish, sayqallashtirib yanada aniqlash-tirish ijodkordan katta mahorat talab qiladi. Tasvirlash orqali

liboslar loyihasi bo'yicha rassom-dizaynerlar o'z tasavvurini yanada boyitadi, asosiy chizgilarni tushirib olib, inson qomatida yaratilajak libosning taxminiy nisbatlari, silueti, uning detallariga ham e'tibor qaratib, g'oyaga aniqlik kiritadi. Ushbu fikrni ma'lum bir vositalar orqali tasvirlanishiga qarab eskizlar turli xil bo'lishi mumkin. Liboschi-rassom o'ziga yaqin bo'lgan turli vositalar yordamida xomaki eskizlarni yaratadi. Bunday eskizlar esa faqatgina muallifga tushunarli bo'lgan stil, texnika va usulda chizilgan bo'lib, ular xomaki eskizlar deb ataladi. Homaki-eskizlar shakl hosil qilish jarayonida u yoki bu badiiy loyiha, yechim yoki taxminni aniqlash, izlanish vazifasini o'tab, qoralama taxminiy ishlov berishlarni o'z ichiga oladi. Xomaki eskizdan asosiy eskizga o'tish jarayoni tezda sodir bo'Imasligi, ya'ni g'oyalarni izlash natijasida loyihalanayotgan mahsulotning yanada ko'plab xomaki tasviriy variantlari ham yaratilishi mumkin.

Q'o'yilgan maqsadga muvofiq eskizlarda loyihaning asosiy xususiyatlari o'z aksini topgan bo'lishi zarur. Masalan, agar eskizda libos dizayni bo'yicha buyum ko'rinishlarini bajarish vazifasi qo'yilgan bo'lsa, rassom-dizaynerning diqqati yaratilayotgan libosning chiziqli-konstruktiv tomoniga qaratiladi, ya'ni u model siluetini, so'ng uning ichki konstruktiv setkasi (tuzulishi)ni ishlab chiqadi. Bunday eskiz yaratiladigan buyum (libos)ning ishchi varianti hisoblanib, model konstruktsiyasi va uning detallari unda aniq aks etadi.

Eskizlarning shunday turlari borki, ularning asosiy vazifasi yangi timsol ustida izlanish bo'lib, unda rang yo'nalishi plastikasi hamda fakturasini topish asosiy maqsad qilib qo'yiladi. Ushbu vaziyatda eskizlar rangli tarzda bajarilib, uni yanada aniqlashtirish uchun turli grafik usullar qo'llanadi.

Eskiz ustida ishlash ko'p bosqichli jarayon bo'lib, unda qator fragmentli bosqichli ishlar bajariladi. Uning dastlabki bosqichida bajarilgan eskiz buyumning konstruktiv tuzulishi hamda uning estetik ko'rsatkichlariga oid g'oya, fikrga aniqlik kiritishga yordam beradi. Shakl ustida izlanish turli yo'llar orqali amalga oshirilishi mumkin, ammo doim avval o'ylab qo'yilgan g'oyadan kelib chiqib ish yuritish lozim.

Maktabdan tashqari ta'llim muassasalaridaga libos dizaynerligi to'garaklarida shug'ullanayotgan o'quvchilarning

birinchi o'quv yilidan keyingi bosqichlarida ta'lif olish jarayonida ishchi eskizlar ustida ishlash malakalari ham mazmun, ham shakl, ham konstruktiv-kompozitsion yechim topish malakalari nuqtai nazaridan takomillashib borishi lozim. Agarda, ta'lifning dastlabki bosqilarida o'quvchilar detallarni joylashtirish, libosning badiiy bezagi sifatida naqshning joyini topish, fakturani oq-qora ranglarda mahorat bilan ko'rsatib bera olish talab qilinsa, ta'lifning keyingi bosqichlarida o'quvchilar eskizlari yanada ixcham va lo'nda vositalar orqali: model konturini aniqlashtiruvchi va fikrni to'liq ifoda etuvchi chiziqlar, eskizlarda namoyon bo'layotgan, yanada original va dadil fikrlarga boy bo'lishi darkor. Qisqacha qilib aytganda, o'quvchi o'zi tomonidan yaratilayotgan eskiz qanday tasnifga egaligini tushungan bo'lib, yetarli darajadagi badiiy mahoratga ega bo'lishi lozim.

Uyg'onish davrining buyuk ixtirochisi va musavviri Leonardo da Vinchining ta'biri bilan aytganda – «chizish orqali ko'zga aniq bo'lgan ixtiro va xohishni ko'rsatishga harakat qilinadi, shu jarayonda qoniqish hosil qilmaguncha biror bir chiziqni qo'shib yoki olib tashlab turish lozim». Bu bilan rassom-dizayner eskiz ustida ishlash ko'p bosqichli jarayonligini, izlanishlar natijasida g'oyani aniqlashtirib borish, badiylikka zid bo'lgan fiklarni saralash, ularga aniqlik kiritib borish aynan eskiz ishslash jarayonida sodir bo'lishini ta'kidlab o'tadi.

Libos dizayni ustida ishslash jarayoni to'rt bosqichda amalga oshirilishi mumkin. Uning **birinchi bosqichida** loyihalanayotgan libos dizayni uchun material to'planadi. Bu jarayon, ayniqsa, tarixiy mavzudagi liboslar ishslash jarayoni uchun o'ta muhim ahamiyat kasb etadi. Bu jarayon - manbalar bilan ishslash jarayoni hisoblanadi. Shuning uchun ham maktabdan tashqari ta'lif muassasalaridagi libos dizaynerligi to'garaklari qatnashchilarining bilim, ko'nikma va malakalariga qo'yildigan Davlat talablarida libos tarixiga oid materiallarni biliishga oid shartlar ham qayd etilgan.

Ikkinchi bosqichda ma'lum bir vazifaga mo'ljallangan «ijodiy papka» yig'iladi. U o'zida libos chizgilari, ranglar majmui, me'morchilik asarlaridan namunalar, xalq amaliy san'atidan lavhalarni jamlagan bo'lishi mumkin. Qisqasi, libos dizayni uchun ishlatilishi mumkin bo'lgan materiallar yig'iladi.

Ishning uchinchi bosqichi eskizlarda shakllantirilgan badiiy g'oyalarni rivojlantirishga asoslanadi. Ushbu bosqichda fikrning dastlabki bo'laklari, fragmentlar, usullar ko'satilishi mumkin.

Izlanishning **to'rtinchi bosqichida** asosiy e'tibor libosning funktsional vazifasidan kelib chiqqan holda uning nisbati, shakli, qo'llaniladigan badiiy bezak, masalan, naqsh fakturasi va konstruktsiyani hisobga olib yaxlit suratni tasvirlashdan iborat bo'ladi. Bu eskizda turli fikrlar, badiiy g'oyalarni inobatga olgan holda shakllantirilgan badiiy loyihalar haqida to'liq ma'lumot o'z aksini topishi lozim. Bunda loyiha haqidagi tasavvurlarning to'liq bo'lishi uchun uning turli rakurslari tasvirlanishi talab etiladi. Topshiriqning o'z asl shaklini namoyish etishi uchun uning ko'rinishi turli tomonlardan ifodalanishi kerakligi haqidagi fikrni Leonardo da Vinci ham e'tirof etib o'tgan. O'quvchilarda dizaynerlik ijodkorligini shakllantirish va rivojlantirishning asosiy metodik mexanizmi hisoblangan mazkur yondashuv dizaynerlikning boshqa sohalariga ham tatbiq etilishi mumkin, ya'ni o'quvchilarning dizaynerlik ijodkorligini rivojlantirishda badiiy loyihalashning barcha bosqichlarining bajarilishi muhim didaktik shart hisoblanadi.

O'quvchilarning dizaynerlik ijodkorligini rivojlantirishga yo'naltirilgan ijodiy topshiriqlar ularning bajarayotgan ishida, yaratayotgan badiiy loyihasida o'z aksini topishi lozim. Shu bilan birga bajarilayotgan ish kerakli badiiy aniqlikka ega bo'lishi ham talab etiladi. Muhimi, eskizlar badiiy xilma-xillikga egaligi bilan farqlanib, muayyan grafik qonuniyatlar asosida ishlangan bo'lishi kerak.

Eskiz kompozitsiyasidagi muhim grafik vositalardan biri chiziq va dog'dir. Tasviriy san'atning bu kabi ifodaviy vositalari umumiy o'rta ta'lim tizimida ham o'rganilishini e'tiborga olgan holda mактабдан ташқари та'лим мұассасаларда о'quvchilarning dizaynerlik qobiliyatlarini rivojlantirishda ularning yangi qirralarini, imkoniyatlarini kengaytirishga yo'naltirilgan ta'limiy jarayonlar asosida tashkil etish maqsadga muvofiq. Chiziq qog'oz sathidagi uch o'lchamli fazoviy shaklni namoyon etishi bilan birga, shartli tekislik shaklida siluetli yechimni ifodalashi ham mumkin. Chiziq va dog' shakl hajmi yoki tekislikdagi shartlilikning grafik tasviri vositasida ma'lum bir ornamental

aniqlikka ega bo'lib, ularning eskizda joylanishi umumiy naqshlardagi ritmik tuzilishi ba'zi qonuniyatlariga bo'y sunadi. Libos dizaynida chiziqlar va grafik dog'lardan foydalanishga oid illyustrativ materialni quyidagi rasmda ko'rish mumkin (8-rasm).



8- rasm. G.Alimova. Libos dizaynida dog'lardan foydalanish

Dizayn loyihalarini yaratishda mazkur tasviriy-ifodaviy usul keng qo'llanilib, buyumning konstruktiv va estetik parametrlarini aniqlashda muhim omil vazifasini o'taydi. Shuning uchun ham o'quvchilarda dizaynning turli sohalarida ijodkorlik qobiliyatlarni rivojlantirishda samarali didaktik yondashuv, metodik vosita sifatida qo'llanish tavsiya etiladi.

Shunday qilib, tasvirlanayotgan eskiz maydoni bo'yicha eng katta bo'lgan asosiy dog' urg'usi o'zidan kichik bo'lgan tusli urg'ularni bo'yundirib, chiziqlar orqali namoyon bo'lishi lozim. Grafik tasvirlashda chiziq shakli (hajmi), uning fakturaviy aniqligi, naqshinkorligi, plastikasi va nafisligi hisobga olinishi lozim. Alovida vaziyatlarda, agarda bizga shaklning siluetli plastikasi muhimroq bo'lsa, chiziq va dog', hattoki, uning uch o'lchamli ko'rinishi yo'qotilgan taqdirda ham modaning so'nggi talablariga javob berishi kerak. Biroq, shu ikki vaziyatda ham katta shaklning yaxlitligi qat'iy saqlangan bo'lishi lozim.

Chiziqlar va dog'larning bejirimlligini ochib berish – chiziqli rasmga qo'yilgan qat'iy talablardan biridir. Chiziq va dog'

ritmikasi to'g'ri topilgan bo'lib, uning estetikasi naqshinkor mavzularni o'zida aks ettira olishi lozim (9-rasm).



9-rasm. Ermatova D., Ismoilova K. Libos eskizi namunalari.

Ma'lumki, bu kabi tasviriy vositalardan foydalangan hola yaratilgan rasmlarda dog' asosiy rol o'ynaydi. Chiziq esa ikkinchi darajali ahamiyat kasb etadi. Shunday chiziqli rasmlar, eskizlar borki, ularda dog'lar emas, balki chiziqlar asosiy rol o'ynaydi. Chiziqli-konstruktiv eskizlar bir rang tusi bilan bajariladi. Chiziqli yechim bilan dog' o'tasida mutanosilik mavjuddir. yengil chiziq o'z kuchi va qalinligi bo'yicha teng bo'lishi mumkin. Buyum silueti yengil chiziqlar asosida tasvirlangan hollarda, chiziq - konstruktiv ishlov berish yoki fakturani ko'rsatib berish vazifasini bajaradi.

G'oyalarni shaklda namoyon etish printsiplari batamom etilganidan so'nq, muallifga material (mato, qog'oz va boshqa ashyolar) va timsol aniq bo'lganida, tekislik (qog'oz sathida) tasvirlangan eskizdan hajmli shaklga o'tish ehtiyoji o'z-o'zidan paydo bo'ladi. Odatda, hajmli eskizlar matoni manekenda shakl qidirish orqali bajariladi. Bunda hajmli eskiz tabiiy o'lchamda bo'lib, ignalar yordamida mato zichligi hisobga olinib g'oyaga muvofiq ravishda yaratiladi. Shuni aytib o'tish joizki, hajmli

eskizdan olgan taassurotlar odatda o'zgacharoq bo'lishi mumkin, chunki rang va tekislikdagi shakllar hissiyotini namoyish etish birmuncha murakkab. Shuning uchun rassom-dizayner eskizlar tasvirini yaratishda barcha materiallар imkoniyatlарini yangi shakllar ustida izlanishi jarayonida hisobga olishi maqsadga muvofiqdir. Biroq maktab yoshidagi o'quvchilar bilan mактабдан tashqari ta'lim muasasalaridagi dizaynerlik to'garaklarida olib boriladigan ta'lim-tarbiya ishlarida har doim ham loyihani natural ko'rinishda yakunlash imkoniyati mavjud emas. Jumladan, libos dizayni bo'yicha yaratilgan eskizlar asosida libosni tayyor bo'yum shaklida tayyorlash imkoniyati bo'imasligi mumkinligini inobatga olgan holda asosiy e'tiborni eskizlar ishslash, ya'ni tasviriy-ijodiy faoliyatga qaratish maqsadga muvofiq.

Mazkur ishda o'quvchilarning dizaynerlik qobiliyatlarini rivojlantirishda libos dizayniga ko'proq urg'u berilmoqda. Zero, dizaynerlikning aynan shu sohasi ham tarixiylik va zamonaviylik nuqtai nazaridan, ham ommaviyligi, ham milliylik xususiyatlarini talqin etish imkoniyatlari va eng muhimmi, o'zining maishiy ahamiyatiga ko'ra insoniyat hayotiga keng tatbiq etilganligi, qolaversa, zamonaviy O'zbekiston dizayn san'atida aynan libos dizayni dunyo miqyosida tobora yuqori nufuzga ega bo'lib borayotganligi, ayni paytda badiiy ijodiyotning mazkur sohasiga barcha yoshdagi, ayniqsa, mакtab yoshidagi o'g'il-qizlarda katta qiziqish uyg'otayotganligi o'quvchilarda dizaynerlik ijodkorligini rivojlantirishning mazkur sohasiga ustuvor tarzda yondashilishiga asos bo'ldi. Chunki libos – ham san'at asari, ham maishiy buyum sifatida ma'lum bir o'ziga xos timsoli topilgan majmua hisoblanadi. Uning diqqat markazida esa inson turadi. Ushbu majmua o'zida kiyim, poyafzal, soch turmag'i, grim, turli qo'shimcha aksessuarlarni birlashtirib ma'lum bir qulaylik yaratuvchi estetik funktsiyani bajaradi. Shuning uchun ham libos dizayniga majmuaviy san'at turi, murakkab ijodiyot sohasi sifatida ko'proq e'tibor qaratish talab etiladi. Libos dizayni uning ijodkoridan badiiy-konstruktiv tuzilish, estetik tafakkur, badiiy-ijodiy bilim va mahoratni talab etadi.

Libos dizaynini yaratishda uning badiiy-estetik sifatlari, texnik va texnologik xususiyatlari – rangi, fakturasi, tuzilishi, materiali har xil bo'lgan ashylar qo'llaniladi.


Libosni yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, majmuaviy dizayn sohasi bo'lganligi uchun uning kompozitsion yechimlariga alohida e'tibor qaratiladi. Libos dizaynidagi kompozitsion komponentlarning uyg'unligini ta'minlash ko'nikmalarini shakllantirish o'quvchilarning dizaynerlik iqtidorlarini ro'yobga chiqarish, malakalarni shakllantirish tizimining muhim komponenti sifatida diqqat markazida bo'ladi.

Insonlarning libos dizayniga nisbatan munosabati, aniqroq qilib aytganda, kiyinish madaniyatida mushtaraklik holatlari kuzatilmoxda. Agar bundan 50 yil oldin insonlarning kiyimiga qarab o'quvchi, o'qituvchi, shofyor yoki quruvchini «taniy» olgan bo'lsak, bugun bunday baho berish biroz mushkul ish hisoblanadi. Shuning uchun bugungi kunda insonlarning asosiy qismi kiyinish madaniyati borasida ma'lum darajadagi estetik didga ega ekanligini e'tiborga olgan holda o'quvchi-yoshlarda dizaynerlik qobiliyatlarni tarkib toptirishda libosning estetik funktsiyasiga ustuvor tarzda qarash talab etiladi. Bu vazifaning asosiy mazmuni inson qomatiga ko'ra libosni dizaynerlik yechimini topishda turli metodikalar, variativ vazifalardan foydalananishni tavsiya etish metodik jihatdan to'g'ri yondashuv sifatida e'tirof etiladi. Buning uchun maxsus ishlab chiqilgan metodik tizimdan foydalilanadi. Bu tizimda, birincha o'rinda, kiyimning funktsiyasidan qat'iy nazar har bir odamning qaddiqomatini e'tiborga olish turadi. Zero, kiyimning asosi, konstruktsiyasi aynan har bir odam uchun individuallik kasb etadi. Shuning uchun maktabdan tashqari ta'lim muassasalaridagi libos dizaynerligi to'garaklarida o'quvchilarda ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishda inson qomatini chizish malakalarini shakllantirish diqqat markazida bo'ladi.

O'quvchilarda inson qomatini tasvirlash malakalarini shakllantirishning elementar talablaridan biri ularda qalamtasvir va rangtasvirdan ma'lum darajada amaliy malakaga ega bo'lishlik bilan bog'liq. Chunki bu yo'nalishdagi malakasiz maxsus mashqlarni bajarish mumkin emas. Shu tizimdagagi mashqlarning dastlabki bosqichida inson qomatini sodda

holatda, ya'ni gavda a'zolarining tafsilotlarisiz, murakkab harakat va rakurslarsiz tasvirlash mashqlari bajariladi. Bunda odam anatomiyasini yaxshi bilish, ayniqsa, skelet va uning bo'laklararo nisbatlarini yaxshi o'zlashtirish lozim bo'ladi. Bu turdag'i mashqlarning muhim shartlaridan biri mashg'ultlarning muntazamligi bilan belgilanadi, ya'ni o'quvchilarga mustaqil mashg'ulot sifatida har kuni 15-25 daqiqa davomida inson qomatini qoralamasi bilan shug'ullanish vazifa qilib berilishi, to'garak rahbari o'quvchilar tomonidan bajarilgan ishlarni har bir mashg'ulot oldidan ko'rib chiqishi va o'quvchilarga kerakli metodik ko'rsatmalar berib borishi lozim.

Mazkur yo'nalishda o'quvchilarning amaliy faoliyatini tashkil etish borasida illyustrativ materiallarga murojaat etamiz (illyustrativ material sifatida libos dizayneri G. Alimovaning materiallaridan foydalanildi). 10-rasmda inson qomatini tuzishning sodda ko'rinishlari aks etgan.



10-rasm

Qomat tuzishda yordamchi chiziqlardan foydalaniladi. Yordamchi chiziqlar o'lchamlari boshning o'lchamidan olinib, gorizontal ravishda chizib chiqiladi. Bosh va yelka qismlari tasviri tushirilgandan so'ng tayanch chiziq chiziladi. Bu tayanch chiziq qomatni yerda mustahkam turishini ta'minlaydi. Bel kengligi

o'lchami bosh kiyim kengligidan olinadi va qomat rasmida ko'rsatilganday ko'rildi. Tirsaklar bel sathida turishi kerak. Qomatning tayanch chizig'i o'ng yoki chap oyoqga kelib tushishidan uning turlicha rakurslari (ko'rinishlari, burligan holatdagi ko'rinishi) hasil bo'ladi. So'ngra sekin-asta, tayyor qomatga liboslar kiygiziladi. Bu yerda libosning qomatga mos joylanishi, faraz qilinayotgan mato fakturasi, zichligi ham e'tiborga olinadi.

Ushbu usulda qomatning tuzilishi kerakli natija berishi uchun, faqatgina uning o'zini turli rakurslarda turganini bir necha tasvirini bajarish muhim, shunda qomatning kerakli nisbatlarini joy-joyida qo'llash, chizish jarayonida o'z-o'zidan avtomatik tarzda hasil bo'ladi va rassom endi qomatga emas, yaratilayotgan kompozitsiya timsolining yaqqol chiqishiga o'yfikrlarini va mahoratini sarflaydi.

O'quvchilarda libos dizayni bo'yicha ijodiy qobiliyatлarni rivojlantirishning navbatdagi bosqichi libos shakllarini formatga komponovkalashtirish (mos tarzda joylashtirish) va rang yechimini topishdan iborat. Shakllarni qog'oz o'lchamida komponovkalashtirish uchun rejalashtirilayotgan loyihaning dastlabki elementlari tasvirlanadi. Keyingi bosqichda mazkur eskizga ishlov berilib, g'oya loyihalanayotgan libosning tashqi ko'rinish, uning siluetiga chiqariladi. Siluetlar turli xil bo'lishi mumkin, ammo bir qog'oz formatida komponovkalashtirish uchun tanlangan siluetlar bir-birini to'ldirib tura olishi kerak, ya'ni hajmli va vazni og'ir bo'lgan libos shakli yonida yengil va hajmi kichkina libos shaklini joylashtirishimiz mumkin.

O'quvchilarda libos dizayni bo'yicha ijodiy qibiliyatлarni rivojlantirishda qo'llanilayotgan barcha elementlarning kontrastliligi (masalan, qo'llanilayotgan ranglarda, matonining fakturasi, teksturasi va h.k.) muhim ahamiyat kasb etadi. Agar libos shakli bir-biriga nisbatan kontrast bo'lmasa, ularni badiiy hissiyot va intuitsiya orqali bir-biriga moslab olib, komponovkalash (o'zaro mutanosib tarzda joylash)tirishimiz mumkin. Bunda komponovkalashning quyidagi usullaridan foydalanish maqsadga muvofiq:

1. Bir planli komponovka. Unda libos shakllari bir qatorda joylashadi. Bu yerda asosiy, bejirim va yorqinroq ko'ringan libos

birinchi planga chiqib turadi, ikkinchi libos shakli uni to'ldirib turishi lozim.

2. Ikki planli komponovkada libos shakllari ikki qatorda joylashadi (11- rasm). Asosiy libos bir qator oldinroqqa chiqib turadi, ikkinchi shakl uning orqasida joylashib, uni to'ldirib turadi.

3. Ko'p planli komponovka usuli ko'pincha sahnaviy ko'rinishlarni kengroq yoritib berish uchun qo'llaniladi, bunda asosiy libos shakli birinchi planga joylashtirilib, ularni to'ldirib turish uchun orqa fonga massovkalar, ya'nini batafsil yoritilishi shart bo'lмаган liboslar, yoki ikkinchi darajali qahramonlar joylashtiriladi.



11-rasm

Komponovkalash jarayonida libosda asosiy shakl, ya'ni hajm jihatdan boshqa shakllarga nisbatan yirikroq bo'lgan shakl ajratib olinib, xajmiga ko'ra ikkinchi va uchinchi o'rinda turuvchi shakllar yirik shaklga nisbatan joylashadi. So'ng yordamchi detallar bilan libos kompozitsiyasi yaqqolroq chiqishi uchun to'ldiriladi.

Kompozitsiyada xarakterni, ya'ni libos shakllaridagi mazmun yoki qahramonlar hissiyotlarini yaqqolroq tasvirlashda turli xil o'q chiziqlardan foydalanish lozim. Bu yerda chiziqlar libos kompozitsiyasining markazidan o'tadi. Ikkita libos shakli formatga sig'magan taqdirda asosiy libos shakli (yoki hajmliroq ko'ringan

libos shakli) ustiga chiqariladi. Komponovkalar statik ko'rinishda, ya'ni harakatsiz holatda bo'lishi ham mumkin. Bu holda libos shakli bir asosiy geometrik figuraga to'g'rilab olinadi. Geometrik figuralar formatda to'liq o'z joyini topgandan so'ng, ulardan nazarda tutilayotgan g'oyaning siluetini aniqlashtirishga o'tiladi. Fikrlanayotgan g'oyaning mohiyati yo'qolib ketmasligi uchun, siluet ichida libos shaklini yaqqollashtirib, undagi fason, konstruktiv va dekorativ chiziqlari aniqlanadi. So'ng tasviri tushirilgan liboslar shakliga batafsil ishlov berilib, ularda rang dog'lari taqsimlanadi. Rang dog'larini taqsimlashda kompozitsiyaning asosiy rangi aniqlanib, qolgan qo'shimcha ranglar majmui topiladi (12-rasm).



12-rasm

Libos dizayni bo'yicha keltirilgan metodik yondashuvni xulosalagan holda umuman maktabdan tashqari ta'llim sharoitida barcha yo'naliishlar bo'yicha o'quvchilarning dizaynerlik qobiliyatlarini rivojlantirishning metodik bosqichlarini quyidagicha tashkil etish didaktik imkoniyatlardan to'la-to'kis foydalanish nuqtai nazaridan maqsadga muvofiq bo'lishi mumkin.

Birinchi bosqich. Dizaynerlik sohasida vazifa berish tartiblari. Bu bosqichda vazifaning mazmuni va mohiyatini to'g'ri talqin etish, ya'ni bajarilishi rejalashtirilayotgan vazifani o'quvchi

to'liq anglab yetishi lozim. Shuningdek, dizaynerlikning turli yo'nalishlariga xos xususiyatlardan kelib chiqqan holda vazifalar tafsilotlarini shakllantirish lozim bo'ladi. Bunda o'quvchilarning individual va gender xususiyatlari ham inobatga olinishi lozim.

Ikkinchi bosqich. Berilgan topshiriq yuzasidan kerakli ma'lumot to'plash hamda mavjud material (ma'lumot) ni anglash va ijodiy umumlashtirish. Zero, aynan anglash jarayoni dizaynerlik loyihasining psixologik asosini tashkil etadi. Anglanganlik darajasi esa didaktik imkoniyatlardan foydalanish samarasini belgilab beradi. Bu jarayonda to'garak rahbarining pedagogik mahorati, ya'ni uning vazifani o'quvchilarga tushunarli tarzda bayon eta olishi, to'g'ri yo'llanma berishi, o'quvchi faoliyatini metodik boshqarib borishi; o'quvchining berilgan topshiriqni bajarish borasidaga kuzatishlari natijasida shakllangan taassurotlari, to'plagan shaxsiy tajribasini dizayn loyihasini yaratish jarayoniga tatbiq etish malakalari, unga beriladigan qo'shimcha tavsiyalar muhim metodik ahamiyat kasb etadi.

Uchinchi bosqich. To'plangan materiallar asosida loyihalashtiriladigan dizayn yechimini izlashga yo'naltirilgan ijodiy jarayon. Bunda o'quvchi bir necha eskizlar ishslash vositasida buyum dizaynining badiiy-konstruktiv yechimini ijodiy izlaydi. Eskiz variantlarini tengdoshlari, ustozlari bilan muhokama qiladi, yakuniy xulosa chiarishga tayyorgarlik ko'radi.

To'rtinchi bosqichda esa homaki loyihalari asosida dizaynerlik yechimi originalda bajaradi. Bu original libos dizayni (imkoniyat va sharoit mavjud bo'lgan taqdirda libos natural tarzda tayyorlanadi), buyumning yakuniy eskizi, maketi, etiketka, nishon va boshqa grafik simvollarning tasvirlari ishlanadi, muhokama etiladi hamda loyiha himoya qilinadi. Demak, tajribalar, manbalarning tahliliga asoslangan holda o'quvchilarning dizaynerlik qobiliyatları rivojlantirishda ko'pbosqichli metodik ko'rsatmaga asoslangan ijodiy jarayon sodir bo'ladi.

XULOSA VA TAVSIYALAR

Umumiy o'rta ta'lif maktablarida mehnat ta'limi darslarida o'quvchilarning dizaynerlik tafakkurini shakllantirish maqsadida amalga oshirilgan nazariy tahlillarimizning dastlabki natijalari quyidagi xulosalarga kelish imkonini berdi:

1. Umumiy o'rta ta'lif maktablarida mehnat ta'limi (tasviriy san'at, chizmachilik) darslarida o'quvchilarning dizaynerlik tafakkurini shakllantirish sohasida mustaqillik yillarda o'zbek pedagogikasida ma'lum tadqiqotlar oshirilgan bo'lsada, ularda o'quvchilarning dizaynerlik tafakkurini shakllantirish bo'yicha maxsus monografik tadqiqot amalga oshirilmaganligiga ishonch hosil qildik.

2. Tadqiqotimizda zamonaviy metodologik manbalarni, tegishli davlat ta'lif siyosatiga doir qarorlarini, muammoning pedagogik amaliyotdagi (milliy va chet el) holatini tahlil qilish asosida tadqiqotimizning umumiy o'rta ta'lif muassasalarini uchun dolzarbli va talabga ega ekanligiga amin bo'ldik.

3. Muammoning metodologik-pedagogik, psixologik-pedagogik jihatlari aniqlandi hamda pedagogik asoslari ishlab chiqildi. Umumiy o'rta ta'lif maktablarida o'quvchilarning dizayn ijodkorligini dars jarayoni hamda darsdan tashqari sharoitlarda shakllantirishning ustuvor yo'nalishlari ko'rsatib berildi.

4. Umumiy o'rta ta'lif maktablarida o'quvchilarning dizayn ijodkorligi orqali dizaynerlik tafakkurini shakllantirishning mohiyati, xususiyatlari, o'ziga xosliklari ko'rib chiqildi hamda ushbu tadqiqot mazmunida uning talqini, shuningdek, ijtimoiy, ijtimoiy-pedagogik ahamiyati ko'rsatib berildi.

5. Nazariy-pedagogik asoslar va asosiy qoidalar bilan bir qatorda muammoni hal qilishning nazariy-amaliy ko'rsatmalari ham ishlab chiqildi.

6. Umumiy o'rta ta'lif maktablarida o'quvchilar dizayn ijodkorligini shakllantirish va rivojlantirishning tarixiy, nazariy hamda amaliy holatlarini o'rganish, tahlil qilish, umumlashtirish orqali uning mezonnari, omillari, algoritmlari variantlari hamda ko'rsatkichlari ishlab chiqildi.

7. Shuningdek muammoni hal qilishning pedagogik tamoyillari, omillar, shartlar, rag'batlari belgilab berildi hamda muammoni to'g'ri hal qilish qonuniyatları aniqlandi.

8. Umumi o'rta ta'lif maktablarida mehnat ta'lifi darslarida o'quvchilarning dizaynerlik tafakkurini shakllantirish bo'yicha bilim zahiralari oshirildi, ko'nikma hamda malakalari takomillashtirildi.

Umumi o'rta ta'lif maktablarida o'quvchilar dizayn ijodkorligini rivojlantirish orqali dizaynerlik tafakkurini shakllantirishga doir ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqildi:

- Dars va darsdan tashqari mashg'ulotlar jarayonlarini muvofiqlashtirish;

- O'quvchilarning dizayn ijodkorligiga bo'lgan ishtiyoqini oshirib borish;

- Dars va darsdan tashqari mashg'ulotlar jarayonlarida o'quvchilarning ilgarigi egallagan bilimlarini inobatga olish hamda o'quvchilarning tashabbus va majburiyatlarini qo'llab-quvvatlash;

- Dars va darsdan tashqari mashg'ulotlarda ikki tomonlama fikr-mulohazalar almashuvini tashkil qilish;

- Dars va darsdan tashqari mashg'ulotlar jarayonlarida o'qituvchi-o'quvchilar uchun o'quv jarayonini yengillashtirish hamda o'quv jarayonini baholab borish.

Shunday qilib, umumi o'rta ta'lif maktablarida o'quvchilar dizay ijodkorligi orqali dizaynerlik tafakkurinini shakllantirish faoliyati yaxlit va tizimli tashkil etilsagina samarali natijalarga erishish mumkin.

TAVSIYA ETILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Каримов И.А. Высококвалифицированные специалисты – стимул прогресса. – Т.: Узбекистан, 1995.
2. Каримов И.А. Великое будущее – это высокая духовность народа. / Собр.соч., Т.5.
3. Каримов И.А. Гармонично развитое поколение – основа прогресса Узбекистана: Речь на 1Х сессии Олий Мажлиса Республики Узбекистан 27 августа 1997 года // Гармонично развитое поколение – основа прогресса Узбекистана /Сб.док. – Т.: Шарқ, 1997.
4. Каримов И.А. Каримов И.А. Современные кадры – важнейший фактор прогресса: по пути безопасности и стабильного развития. // Собр.соч., Т.6.
5. Закон Республики Узбекистан «Об образовании» // Гармонично развитое поколение – основа прогресса Узбекистана /Сб.док. – Т.: Шарқ, 1997.
6. Национальная программа по подготовке кадров // Гармонично развитое поколение – основа прогресса Узбекистана. /Сб.док. – Т.: Шарқ, 1997.
7. Андриянова В.И., Железнякова Л.И., Талипова Р.Т. Что можно смастерить из природного материала? Поделки детей. Русский язык в 1 классе: Методическое руководство к учебнику «Русский язык в картинках» для учащихся первых классов начальных четырехлетних школ с узбекским языком обучения. – Ташкент: Ўқитувчи, 1986.
8. Андриянова В.И. О взаимодополняемости собственного мышления человека и дизайнерского мышления // Формирование гармонично развитого поколения в современных условиях: Сборник научно-методических статей. – Ч. 12. – Т., 2011.
9. Байгородова Л.В. Серебрянникова Л.Н. Обучение технологии в средней школе: 5-11 класс: Методическое пособие. – Москва: Гуманитарный издательский центр ВЛАДОС, 2003.
10. Бандуристый Ф.Ф. Оптимизация обучения художественному проектированию в системе специальной подготовки учителя изобразительного искусства в педвузах

(университетах). Дис... на соискание ученой степени доктора пед. Наук.– Хабаровск: 2004.

11. Безмоздин Л.Н. В мире дизайна. -Ташкент: Фан, 1990.

12. Беспалько В.П., Татур Ю.Г. Системно-методическое обеспечение учебно-воспитательного процесса подготовки специалистов: учеб.- метод. пособие. – М.: Высшая школа, 1989.

13. Большой англо-русский словарь под ред. И.Р. Гальперина, М.:»Русский язык», 1979.

14. Буткевич О.В. Красота: природа, сущность формы. – Л.: Художник РСФСР, 1983.

15. Визуальная культура, визуальное мышление в дизайне / В.Ф.Колейчук и др. – Москва, 1990. .

16. Власов В.Г. Иллюстрированный художественный словарь / В.Г.Власов. – СПб.: АО «Икар», 1993.

17. Выготский Л.С. Воображение и творчество в детском творчестве. – 3-е изд. / Л.С.Выготский – М.: Просвещение, 1991.

18. Гагарин Б.Г. Конструирование из бумаги. – Ташкент, 1988.

19. Гавrilova L.B. Постапное формирование «Дизайн-культуры», как профессионального понятия, у будущих конструкторов одежды в процессе обучения в вузе // Известия Самарского научного центра Российской академии наук. – Самара, 2009.-T.11 (№4)..

20. Гавrilova L.B. Концепция и модель системы формирования дизайн-культуры будущих конструкторов одежды // Образование и наука: известия Уральского отделения Российской Академии образования». - Екатеринбург, 2009.-№3.

21. Гавrilova L.B. Актуальность формирования культурной активности у студентов // Легкая промышленность. Сервис: материалы региональной науч.-тех. конф. – Самара: СФ МГУС, 2003.

22. Гавrilova L.B. Формирование дизайн–культуры студентов вуза в процессе проектирования швейных изделий, как педагогическая проблема // Инновации в

системе непрерывного профессионального образования: сб. статей VIII Международной науч.-метод. конф. преподавателей вузов, ученых и специалистов.- Н/Новгород: Волжский гос. инженерно-педагогический ун-т, 2007.

23. Гаврилова Л.В. Дизайнерская культура будущих специалистов / Л.В.Гаврилова, Ю.А.Кустов // Татищевские чтения: актуальные проблемы науки и практики: материалы VII Международная науч.-прак. конф. - Тольятти: Волжский ун-т им. В.Н. Татищева, 2010.- Ч11.

24. Герчук Ю.Я. Основы художественной грамоты / Ю.Я.Герчук. – М.: Учебная литература, 1998.

25. Гладышев Г.М. Педагогические условия духовно-творческого потенциала будущего художника-педагога: Дис. ... канд. пед. наук. – Оренбург, 2000.

26. Дайн Г.Л. Игрушечных дел мастера / Г.Л.Дайн. – М.: Просвещение, 1993.

27. Долженко Ю.А. Проблемы формирования «успешного» педагога в системе постдипломного образования/ Практико-ориентированное пособие для руководителей ОУ. – Барнаул: АКИПКРО, 2001.

28. Дударева Н.В. Психолого-педагогические основы формирования проектного мышления учащихся и студентов профоразования // Фундаментальные исследования. – Москва, 2008. – № 8.

29. Ефремов В.И. Творческое воспитание и образование детей на базе ТРИЗ. – Пенза, 2001.

30. Игнатьев С.Е. Закономерности изобразительной деятельности детей: Учебное пособие для вузов / С.Е.Игнатьев. – М.: Академический проект; Фонд «Мир», 2007.

31. Изобразительное искусство: предметная неделя в школе / Сост. О.В.Свиридова. – Волгоград: Учитель, 2007.

32. История индустрии моды: методические рекомендации к проведению семинаров/ сост. Л.В. Гаврилова.- Самара: филиал «МГУС», 2007.

33. Концептуальная модель обучения на основе развития когнитивно-творческих способностей учащихся как условие подготовки подрастающего поколения к вызовам XXI века // Формирование гармонично развитого поколения

в современных условиях: Сборник науч.-мет. статей в 20 ч. / Под общ. ред. проф. Р.Х.Джураева – Ч. 13. – Ташкент: МНО РУз, УзНИИПН, 2011.

34. Комарова Т.С. Как научить ребенка рисовать / Т.С.Комарова. – М.: Столетие, 1998.

35. Конышева Н.М. Методика трудового обучения младших школьников: Основы дизайнерского образования: Учеб. пособие для студ. сред. пед. учеб. заведений / Н.М.Конышева. – М.: Издательский центр «Академия», 1999.

36. Конышева Н.М. Теория и методика преподавания технологии в начальной школе: учеб. пособие для студентов пед. вузов и колледжей / Н.М. Конышева. – Смоленск: Ассоциация ХХI век, 2007.

37. Коротеева Е.И. Изобразительное искусство: Учебно-наглядное пособие для учащихся 1–4 классов начальной школы / Е.И.Коротеева. – М.: Просвещение, 2003.

38. Костенко Т.В. Школа: зерна дизайна – ростки культуры // Техническая эстетика. – 1991. – № 11.

39. Кузин В. С. Изобразительное искусство и методика его преподавания в начальных классах / В. С. Кузин. – М.: Просвещение, 1984.

40. Кудина Г.Н., Мелик-Пашаев А.А., Новлянская З.Н. Как развивать художественное восприятие у школьников / Г.Н.Гудина, А.А.Мелик-Пашаев, З.Н.Новлянская. – М., 1988.

41. Леонтьев А.А. Слово в речевой деятельности. – Москва: Наука, 1965.

42. Ломоносова М.Т. Графика и живопись: Учебное пособие / М.Т.Ломоносова. – М.: ООО «Издательство Астрель»; ООО «Издательство ACT», 2003.

43. Лопанова М.Б., Рабочих Т.Б. Личностно-деятельностные технологии обучения: Учебно-методическое пособие. – Омск: ОмГПУ, 2004.

44. Малиновская Л. П. Вопросы формирования дизайнерского мышления на уроках изобразительного искусства в начальных классах / Л.П.Малиновская. – Тернополь, 1993.

45. Машбиц Е.И. Психологические проблемы компьютеризации обучения. – М.: Педагогика, 1988.

46. Методические указания к выполнению лабораторных работ по дисциплине «Основы технологий материалов для оказываемых услуг и работ»/ сост. Л.В. Гаврилова. - Самара: СФ «МГУС», 2004.

47. Методические указания к выполнению курсовой работы по дисциплине «КТОП» / сост. Л.В. Гаврилова.- Самара: филиал «МГУС», 2007.

48. Milliy mafkura - davlatimiz va jamiyatimiz qurilishida biz uchun ruhiy-ma'naviy kuch-quvvat manbai. – Т.: O'zbekiston, 2000. – Т. 8.

49. Nozilov D.A. O'rta Osiyo dizayni tarixidan. – Т.: O'zbekiston, 1998.

50. Национальная программа по подготовке кадров // Гармонично развитое поколение – основа прогресса Узбекистана: Сборник докладов. – Ташкент: Шарқ, 1997.

51. Неменский Б.М. Мудрость красоты: О проблемах эстетического воспитания / Б.М.Неменский. – М.: Просвещение, 1987.

52. Нестеренко О.И. Краткая энциклопедия дизайна / О. И. Нестеренко. – М.: Молодая гвардия, 1994.

53. Общие требования к оформлению выпускных квалификационных работ: методические указания /сост. С.А.Бажуткина, Л.В.Гаврилова, Н.Н.Петрунина.- Самара: филиал «МГУС», 2007.

54. Основные термины дизайна. Краткий словарь-справочник / Под ред. Л.А.Кузьмичева. – М.:ВНИИТЭ, 1988.

55. Открытая учебная и образовательная сеть, TAFE NSW, Австралия. (TAFE NSW- New South Wales Department of Education and Training. www.tafensw.edu.au/) .

56. Павлова М.Б., Сасова И.А., Питт Дж., Гуревич М.И. Технология 5 кл. – Москва: Вентана-Граф, 2006.

57. Педагогический дизайн (Журнал «ALN», Том 1, Выпуск 1 – март 1997 года).

58. Педагогические основы личностно-ориентированного обучения и воспитания в средней общеобразовательной школе. Монография. Коллектив (В.И. Андриянова, С.К.Аннамуратова и др.). – Т.: Фан, 2007.

59. Петрушин В.И. Психология и педагогика художественного творчества. – Москва: Академический проект, 2006.

60. Программы учебных дисциплин для студентов факультета начальных классов МГПУ / Под общ. ред. Л.П.Стойловой. – М.: МГПУ, 2008.

61. Программы общеобразовательных учреждений. Рисунок. Живопись. Композиция. 1–11 кл. (для классов с углубленным изучением предметов художественно-эстетического цикла). – М.: Просвещение, 1995.

62. Радионов В.Е. Теоретические основы педагогического проектирования. Дисс. ... д-ра пед. наук. С.Пб., 1996.

63. Рожкова Е.Е. Изобразительное искусство в начальной школе / Е.Е.Рожкова. – М.: Просвещение, 1980.

64. Ромизовский А.Ж. «Разработка педагогических систем. Принятие решений в планировании курсов и учебных планов», повторное издание 1999 года, Kogan page Ltd.

65. Ростовцев Н. Н. Методика преподавания изобразительного искусства. – 3-е изд., доп. и перераб. / Н. Н. Ростовцев. – М.: Агар, 1998.

66. Савенкова Л.Г. Интегративная программа полихудожественного развития «Изобразительное искусство и среда» 1–11 классы / Л.Г.Савенкова. – М., 1995.

67. Савенков а.и. Детская одаренность: развитие средствами искусства / а.и.савенков. – м.: педагогическое общество россии, 1999.

68. Сергеев И.С. Как организовать проектную деятельность учащихся: Практическое пособие для работников общеобразовательных учреждений. – Москва: АРКТИ, 2005.

69. Сидоренко в.ф. Генезис проектной культуры и эстетика дизайнера творчества: автореферат диссертации на соискание ученой степени доктора искусствоведения – М.: ВНИИЕЭ, 1990.

70. Сокольникова Н.М. Изобразительное искусство: Учебник для учащихся 5–8 кл.: В 4 ч. – Обнинск: Титул, 1996. – Ч. 1: Основы рисунка; Ч. 2: Основы живописи; Ч. 3:

Основы композиции; Ч. 4: Краткий словарь художественных терминов.

71. Сокольникова Н.М. Изобразительное искусство и методика его преподавания в начальной школе: Учеб. Пособие для студ. высш. пед. учеб. заведений. – 2-е изд., стереотип. / Н. М. Сокольникова. – М.: Издательский центр «Академия», 2003.

72. Sulaymonov A., Alimova G. O'quvchilarning dizaynerlik qobiliyatlarini rivojlantirishda for-eskiz metodidan foydalanish G`G` «Xalq ta'llimi» j. 2012, 2-son.

73. Стор И.Н. Смыслообразование в графическом дизайне. Учебное пособие для студентов вузов по специальности «Художественное проектирование текстильных изделий» – М.: МГТУ, 2003.

74. Хуторский А.В. Ключевые компетенции. Технология конструирования // Народное образование. – Москва, 2003. – № 5.

75. Уваров А.Ю. Педагогический дизайн// Информатика: Прил. к газ. «Первое сент.» - Б.м. — 2003 . — 8-15 авг. (N 30).

76. Учебно-методические комплекты по изобразительному искусству для начальных классов под редакцией: В.С.Кузина, Б.М.Неменского, Н.М.Сокольниковой, Т.Я.Шпицаловой.

77. Холмянский Л.М., Щипанов А.С. Дизайн / Л.М.Холмянский, А.С.Щипанов. – М.: Просвещение, 1985.

78. Цевенков Ю.М., Семенова Е.Ю. Информатизация образования в США. М., 1990. 80с. (Новые информационные технологии в образовании: Обзор. инф./НИИВО; вып. 8).

79. Шамухитдинова Л., Чурсина В., Камилова Х. Анализ исторических прототипов способов морфологической трансформации одежды // ж. «Искусство». – 2002. № 3.

80. www.umich.edu/~ed626/define.html. Исправленное и дополненное издание: 18 октября 1996 года, ©1996, Университет штата Мичиган.

Mundarija

Kirish	3
--------------	---

I bo'lim. Umumiy o'rta ta'lif maktabi o'quvchilarida dizayn ijodkorligi xususiyatlarini rivojlantirishning psixologik-pedagogik asoslari

1.1. Intellekt va intellektual faoliik. Ijodiy intellektual faoliyat	9
1.2. Ijodiy qobiliyatlar tushunchasi va ularni shakllantirish mexanizmlari	13
1.3. Inson shaxsiy hamda dizaynerlik tafakkurining bir-birini to'ldirishi	17
1.4. Mehnat – barchasining otasi	24
1.5. O'quvchilarning dizaynerlik tafakkurini rivojlantirishda loyihalar metodidan foydalanish	29
1.6. Umumiy o'rta ta'lif maktabi o'quvchilarida dizayn ijodkorligi xususiyatlarini namoyon etishning innovatsion texnologiyalari	37

II bo'lim. Ta'lif va tarbiya jarayonida o'quvchilarda dizayn ijodkorligi xususiyatlarini rivojlantirishning didaktik imkoniyatlari

2.1. Mehnat ta'limi darslarida badiiy konstrukturlik faoliyatini tashkil qilishning nazariy va metodik masalalari	49
2.2. Texnik estetikasining nazariy qoidalari	64
2.3. Tashqi ko'rinish estetikasi	70
2.4. O'quvchilarda dizayn ijodkorligi xususiyatini rivojlantirish muammosi	75
2.5. Sinfdan tashqari ishlarda o'quvchilarning dizayn ijodkorliklarini shakllantirish innovatsion texnologiyalari	79

III bo'lim. Maktabdan tashqari to'garak mashg'ulotlarda o'quvchilarning dizaynerlik qobiliyatlarini rivojlantirishning didaktik imkoniyatlari

3.1. Maktabdan tashqari ta'lif muassasalarida o'quvchilarning dizayn ijodkorligini rivojlantirishning nazariy asoslari	90
3.2. O'quvchilarda dizaynerlik qobiliyatlarini rivojlantirishning asosiy ob'yektlari	101
3.3. Maktabdan tashqari ta'lif muassasalarida o'quvchilarning dizaynerlik qobiliyatlarini rivojlantirishning metodik asoslari	103
Xulosa va tavsiyalar	118
Tavsiya etilgan adabiyotlar ro'yxati	120

60000

SH.Q.MARDONOV, S.K.ANNAMURATOVA, V.I.ANDRIYANOVA,
A.P.SULAYMONOV, O.JABBOROVA, SH.AXMEDOVA

O'QUVCHILARNING DIZAYN IJODKORLIGINI SHAKLLANTIRISH

«Сано-стандарт» Тошкент, 2012

Нашр учун масъул *М.Умирова*
Мухаррир *А.Тилавов*
Техник мухаррир *М.Қосимова*
Бадиий мухаррир *И.Захидова*

Нашлиц. № А1 177, 03.01.2011.

Теришга 08.11.2012 йилда берилди. Босишига 03.12.2012 йилда рухсат этилди.

Бичими: 60x84 ¹¹⁶. Офсет босма. Таймс гарнитураси. Шартли б.т.7,44.

Нашр б.т.7,4. Адади: 3000. Буюртма №1570.

Баҳоси шартнома асосида

«Сано-стандарт» нашриети, 100190, Тошкент шаҳри,
Юнусобод-9, 13-54. E-mail: sano-standart@mail.ru

«Сано-стандарт» МЧЖ босмахонасида босилди.
Тошкент шаҳри, Широк кӯчаси, 100-уй.
Телефон: (371) 228-07-94, факс: (371) 228-07-95